O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UZLUKSIZ TA’LIMNI SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI



MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

7-8-iyun 2024 yil

Guliston - 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UZLUKSIZ TA’LIMNI SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

II-QISM

7-8-iyun 2024 yil

Guliston – 2024

UO‘K: 378:005.591.6(08)
BBK: 74.00ya43
R 32
Raqamlashtirish sharoitida uzluksiz ta’limni sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya [Matn] / O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat pedagogika instituti.-Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2024.-286 b.

Ushbu konferensiya to‘plamida 2024-yil 7-8-iyun kunlari Guliston davlat pedagogika instituti tomonidan tashkil etilgan “Raqamlashtirish sharoitida uzluksiz ta’limni sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim – izlanuvchilar, magistrlar, bakalavr va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, shuningdek barcha tadqiqotchilar foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati:
Rais: J.X.Karshibayev, rektor, b.f.d., professor.

A’zolar:
N.A.Ayaqulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor.
A.A.Qalandarov **–** O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.
J.K.Komilov – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor.
D.Samadov – Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.
Sh.T.Norqulov – Pedagogika fakulteti dekani.
M.B.Niyozov – “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri.
Sh.A.Abdufatayev – “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
M.A.Mavlyanov – “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
M.Z.Xudayberdiyev – “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:
p.f.n., dotsent S.I.Qulmamatov.
p.f.n., dotsent D.E.Toshtemirov.

Konferentsiya to‘plamiga kiritilgan maqolalarning mazmuniga mualliflar javobgardir.

ISBN 978-9910-792-68-7

© Guliston davlat pedagogika instituti, 2024.
©«Ziyo nashr-matbaa» 2024

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda mamlakatimizda katta o‘zgarishlar bo‘lib, tub islohotlar jamiyatimiz va iqtisodiyotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Jumladan, ta’lim tizimi ham muntazam va uzluksiz ravishda takomillashtirilib, fan va ta’limni rivojlantirishga, yoshlarning chuqur bilim olishiga munosib sharoit yaratishga katta e’tibor berilib, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida innovatsiya jarayonlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fan va ta’lim tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator Farmonlari va Qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy qilindi.

2020 yil 6 oktabrda “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4851 qarori e’lon qilindi. Qarorda axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish

“Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, qarorda axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tiziminining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratilayotganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida uzoqni ko‘zlab olib borayotgan islohotlari bu yo‘nalishda oqilona qadam tashlanganligi va strategiyani to‘g‘ri belgilanganligini isbotlab bermoqda. Yetishib chiqayotgan iqtidorli va bilimli yoshlar turli olimpiada, musobaqalar, tanlovlar hamda konferensiyalarda muvafaqqiyatli qatnashib, yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar.

Institutimizda o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjuman “Raqamlashtirish sharoitida uzluksiz ta’limni sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, davlatimiz rahbarining yuqorida aytilgan bir qator hujjatlar doirasida olib borilayotgan amaliy tadbirlardan biridir.

Tashkil etilgan anjuman raqamli texnologiyalarning turli sohalarga qo‘llanilishi, o‘qitish jarayonida erishilgan tajribalarni umumlashtirish hamda ommalashtirishni, shuningdek, mavjud muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilishni maqsad qilib olgan.

Anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman!

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori J.H.Karshibayev

1-SHO'BA.
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

MURAKKAB ELEKTR ZANJIRLARNI KIRXGOF QONUNLARINI BEVOSITA TATBIQ ETISH USULIDA HISOBLASHNING INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TUSHUNTIRISH

Raimov Xolbek Kadirovich- *Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*
Sultonova Nafosat Farxodjon qizi, Ne'matova Mohinur Shuhratjon qizi -
Guliston davlat pedagogika instituti talabalari
e-mail: physic-kholbek84@mail.ru

Elektr zanjiri va uning elementlari. Elektr zanjirining asosiy qonunlari


Elektr toki o'tadigan yo'ldagi turli elektr tuzilmalar yig'indisi elektr tuzilmalar yig'indisi elektr zanjiri deyiladi. Har qanday elektr zanjiri uchta asosiy elementdan, tok manbai, iste'molchlardan va tutashtiruvchi simlardan tashkil topgan bo'ladi. Tok manbai elektr zanjirlarini berk zanjirda yurgazib ma'lum ish bajaradi. Ayrim musbat zaryadni berk zanjirda yurgizish ishi elektr yurituvchi kuch (EYuK) deyiladi. EYuK ning birligi Volt (V)

Elektr yurituvchi kuch manbalarining bir necha turi mavjud ya'ni[1,2]:


A. Galvanik elementlar;
B. Akkumulyatorlar;
C. Elektr generatorlar;
D. Kremniyli yarim o'tkazgich fotoelementlar (Quyosh batariyalar).

Elektr energiyasi iste'molchilar qatoriga elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantiruvchi elektr dvigatellar, yoritish lampalari, elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantiruvchi isitish asboblari va hokazolar. Elektr zanjirni idrok haritasi metodi yordamida tushuntiramiz:

Eng oddiy elektr zanjiri 1-rasimda keltirilgan bo'lib undan ko'rinadiki, bu zanjirda tok manbai, kalit, elektr lampa, ampermetr va ulovchi similardan tashkil topgan. 2-rasmda elektr zanjir elementlari keltirilgan.




1-rasm



2- rasm

Yuqoridagilardan foydalanib o‘rganuvchilarni bilish, tyshunish, amalda qo‘llash, tahlil, sintez hamda xulosa chiqarishga yordam beradigan idrok xaritasidan foydalanamiz. Quyidagi idrok xaritasi yordamida mavzuni asosiy tushunchalari,u nimalardan tashkil topganligi va nimalar bilan uzviy bog‘liqligi haqida fkir yuritiladi. Idrok xaritasiga e’tibor berilsa, unda zanjir elementlari, uni tashkel etuvchi barcha qismlari hamda qismlar bilan bog‘liq boshqa qismlari bog‘liqliigi keltirilgandir. Olingan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar va ularga uzviy bog‘liq bo‘lgan “yordamchi” tushunchalar bir birini to‘ldiradi, shu bilan birga ular o‘rtasida qaytar aloqa mavjuddir.(3-rasm):

Idrok xaritasi



3-rasm

Om qonuni zanjiriga oid asosiy qonun bo‘lib, zanjirdagi tok va kuchlanish o‘zaro qanday nisbatda boglanganligini ifodalaydi. Bu qonunga ko‘ra tarmoqlanmagan berk zanjirdagi tok Elektr yurituvchi kuchga to‘g‘ri prorsianal, zanjirning to‘la qarshiligiga

teskari proporsianaldir. Mazkur qonunga binoan elektr zanjirdagi tok kuchi quyidagicha ifodalanadi[1-11]:

$$I = \frac{E}{R + r} \quad (1)$$


Kirxgofning I-qoidasi. Tugunga ulangan o‘tkazgichlar orqali kiruvchi va undan chiquvchi toklarning algebraik yig‘indisi nolga teng:

$$\sum i_k = 0 \quad (2)$$

Kirxgofning II-qoidasi.Berk kontur tarmoqlaridagi kuchlanish tushuvlarining algebraik yig‘indisi, Konturdagi EYuKlarning algebraik yig‘ndisiga teng:

$$\sum i_n r_n = \sum E_n \quad (3)$$

Murakkab zanjirlar hisoblashda ba’zi tushunchalarni kiritamiz ya’ni: Elektr zanjir deb, elektr tokini hosil qiluvchi va uni oqib o‘tishini ta’minlash uchun berk yo‘l hosil qiladigan yig‘indisiga aytiladi.**Tarmoq** - elektr zanjirining ma’lum bir qismi bo‘lib, ketma-ket birlashtirilgan qarshiliklar (rezistorlar), energiya manbalari va hokazolardan iborat. **Tugun** - elektr zanjirining uchta va undan ortiq tarmoqlarining birlashgan joyi. **Kontur** zanjirining bir necha tarmoqlaridan iborat yopiq yo‘l.



4-rasm

yuqoridagi 4- rasmda keltirilgan zanjirdan elektr zanjirga doir inglizcha atama va so‘zlarni bilib oladilar.

Kirxgof qonunini bevosita qo‘llash usuli

Kirxgofning I va II qonunlaridan foydalanib, har qanday murakkab elektr zanjirlar uchun kerakli tenglamalerni tuzib hamda ularni birgalikda yechib, zarur kattaliklarni aniqlash mumkin

Berilgan zanjir uchun Kirxgof qonunlari asosida tenglamalar tuzishdan avval quyidagi tartib va qoidalarga rioya qilish zarur[1-11]:

-Berilgan elektr zanjirni soddalshtirish.

-Berilgan elektr zanjir sxemasini mustaqil konturlarga ajratish.

-Sxemada avvaldan berilgan EYuK, kuchlanish va toklarning hamda avvaldan nom'lum bo'lgan toklarning ixtiyoriy shartli musbat yo'nalishlarini tanlash.

- Sxemadagi har bir berk konturni aylanib chiqishning ixtiyoriy yo'nalishlarni ko'rsatish.


-Kirxgofning birinch qoidasi bo'yicha $k_I = n_T - 1$ hol uchun toklar tenglamasini tuzish(n_T -zanjirdagi tugunlar soni).

-Kirxgofning ikkinchi qoidasiga ko'ra o'zaro bog'lq bo'lmagan $k_{II} = n_{tarmoq} - (n_T - 1)$ tenglamalarni tuzish.


-Kirxgof qoidalari bo'yicha tuzilgan tenglamalar soni $k_U = k_I + k_{II}$ ya'ni tarmoqlar soniga teng bo'lishi kerak .

5- rasmda elektr zanjir va uning tashkil etuvchi elementlar ularning sxematik belglari, hamda uning harakterlovchi formulalar keltirilgan. Bu Klaster metodi orqali talabalar zanjirning ko'rgazmali tarzda nimalardan tashkil topganligini ko'rish imkonini beradi. 5-rasmni AKT ekranda ko'rsatiladi.

Quqoridagi koidalar asosida quyida 6-rasmda keltirilgan elektr zanjirini hisoblaylik.



5-rasm



6-rasm

Keltirilgan elektr zanjirni mustaqil konturlarga ajratib konturlar sonini uchga teng ekanligini ko‘rish mumkin hamda ularni shartli ravishda I, II va III deb belgilaymiz.

Berilgan konturni musbat aylanib chiqishh yonalishlashini soat strelkasini aylanish kabi tanlab olamiz (zanjirda egri strelkada belgilangan) bu hisoblashlarda qulaylik beradi.

Navbatda tarmoqlar soni va tugunlar sonini aniqlab olamiz. Yuqoridagi elektr zanjirning tarmoqlari bu ikki tugun oraliqlari tushunilib jami $n_{tarmoq}=6$ ta tarmoq mavjud ekanligini ko‘rish qiyin emas, shu bilan birga ajratishga qulay bo‘lishi uchun har bir tarmoqdagi qarshilik ranglar bilan ajratilgan. Tugunlar esa ikki va undan ortiq tarmoqlar tutashish niqtasi zanjirda qora nuqta shaklida berilgan bo‘lib ular jami $n_T=4$ tani tashkil etadi[1-6].

Kirxgofning I-qonunini qo‘llab tugunlar sonidan kelib chiqib toklar uchun tenglamalarni hosil qilamiz ya’ni:

$$k_I = n_T - 1 = 3 \quad (3)$$

(3) da ko‘rinadiki, (1) formuladan foydalanib tok uchun uchta tenglama tuzamiz. Tenglama tuzishda yana bir muhim jihatiga e’tibor betish kerak, ya’ni tugunga kiruvchi toklarni musbat deb, undan chiquvchi toklarni manfiy deb olishimiz zarur va yetarlidir. Aslida bu Kirxgofning I- qonunini mazmunidir. Tenglamalar quydagiga teng bo‘ladi[1-5]:

$$\begin{cases} I_1 + I_2 + I_3 = 0 \\ -I_1 - I_4 - I_6 = 0 \\ -I_2 + I_4 - I_5 = 0 \end{cases} . \qquad (4)$$

Navbatda, Kirxgofning II-qonuni uchun tenglamalar tuzamiz bunda tuzilishi kerak bo‘lgan tenglamalar soniniquyidadicha topamiz, ya’ni ularning soni:

$$k_{II} = n_{tarmoq} - (n_T - 1) = 6 - (4 - 1) = 3, \quad (5)$$

(5) tenglamadan kelib chiqqan holda mos tenglamalarni tuzamiz. Bunda konturni aylanib chiqish yo‘nalishi ixtiyoriyligidan 8-rasmdagidek qilib tanlaymiz va tenglamalani tuzamiz. Konturga unga “qo‘shni” konturga tegishli bo‘lgan taqmoq elementlarini ham hisobga olish zarur.

Birinchi kontur bo‘yicha tenglam[6]:

$$\text{I)} \quad I_1R_1 - I_2R_2 - I_4R_4 = E_1 - E_2 \qquad (6)$$

ikkinchi kontur bo‘yicha tenglam:

$$\text{II)} \quad I_2R_2 - I_3R_3 - I_5R_5 = E_2 \qquad (7)$$

uchunchi kontur bo‘yicha tenglam:

$$\text{III)} \quad I_4R_4 + I_5R_5 - I_6R_6 = 0 \qquad (8)$$

Yuqoridadi tenglamalarga e'tibor beradigan bo'lsak, har bir had oldidagi "+" va "-" ishoralari bir martadan uchraydi. Bu tartib buzilsa demak tenglamalar noto'g'ri tuzilgan bo'ladi. Tuzilgan tenglamalarni aniq bir murakkab elektr zanjiriga tatbiqlari bilan ham ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish umkinki, ta'lim samaradorligini oshirish hozirgi kundagi ta'lim sohasi oldida turgan muhim va dolzarb muammolardan biri. Bu sohada mamlakatimizdagi Oliy ta'lim muassasalarida bir qator ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli usullaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar qo'lami kundan-kunga oshib bormoqda va zaruriy shart-sharoitlar yaratib borilmoqda.

"Murakkab elektr zanjirlarni hisoblash usullari" mavzusini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'limda samaradorlikni oshishga sabab bo'ladi. Innovatsion metodlardan foydalanib mashg'ulotni o'tkazish Bulum taksonomiyasining barcha bosqichlarini o'rganuvchilar ongida shakillanishiga olib keladi hamda natijani kafolatlaydi.

Foydalanigan adabiyotlar

1. A.S.Karimov va boshqalar, Elektrotexnika va elektronika asoslari. Toshkent, "O'qituvchi" 1995 yil, 468 bet.
2. П.А. Бутрин, О. В. Толчеев. Электротехника, Москва. «Академик» 2013. 16
3. Gulzar Ahmad, Basic Electrical Engineering, Peshawar, Pakistan, 2019, p.26
4. В. В. Колесников, Основы теория цепйе, Санкт Петербургб 2006, 44 с.
5. В.В. Муханов, А.Г. Бабенко, Расчет сложных цепей, Екатеринбург 2009, 6 с.
6. S.F.Amirov, M.S. Yoqubov, N.G'. Jabbarov Elektrotexnikaning nazariy asoslari Toshkent 2006. 150 bet.
7. Н.А.Макенова, Т.Е. Хохлова. Решебние по электротехнике. Издательство Томского политехнического университет 2015. 165 с.
8. Ch.K.Alexander. Fundomentals of Elektric Circuits. 1056 page.
9. Ю.М.Осиповб П.А.Борисов. Методы расчета линейных электрических цепей. Санкт-Петербург 2012. 126 с.
10. Л.И.Аристова, А.В. Лукутин. Сборник задач по электротехнике. Издательство ТПУ 2010. 108 с.
11. А.П.Курулёв, И.Л.Свито и др. Теория электрическая цепей. Сборник задач. Минск БГУИР 2017.142 с.

KOMPYUTER OFIS DASTURLARNI O‘RGANISHDA AMALIYOFIS.UZ PLATFORMASIDAN FOYDALANISH

G‘aniyev Temur Komiljon o‘g‘li, Xakimova Farangis Abdualimovna - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari
E-mail: ganiyevtemur1@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi davrda har bir kasb egasi kompyuter ofis dasturlarida ishlashni bilishi toboro zarur bo‘lgan vaqtda kompyuter ofis dasturlarni o‘rganishda AmaliyOfis.Uz platformasining ahamiyati va samarali foydalanish usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter ofis dasturlari, word, excel, powerpoint, mikrosoft ofis paketi, amaliyofis.uz, ofis dasturlarni o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy kompyuterlarning aksariyatida aynan “Microsoft Office” ofis dasturlaridan foydalaniladi. Ushbu dasturlar paketining standart ko‘rinishi yordamida oddiy matnli hujjat yaratishdan boshlab, foydalanuvchi ma’lumotlar bazasi, elektron jadval, veb-xizmatlar uchun formatlar, statik veb saytlar va murakkab multimediali taqdimotlargacha yaratish mumkin. Shunday ekan, har bir kompyuter va axborot resurslari foydalanuvchisi oldida ushbu ofis dasturlari paketini o‘rganish va uning imkoniyatlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida unumli foydalanish maqsadi turadi. Hozirgi kunda biror dasturiy ta’minot, xususan, Microsoft Officening imkoniyatlari, funksiyalari bilan tanishish va unda ishlashni o‘rganishning bir necha usullari mavjud.


Kompyuter ofis dasturlarni o‘rganishda ko‘pchilik o‘quv markazlarga borish orqali o‘rganishni afzal ko‘radi. Lekin bu usulda o‘quvchidan ortiqcha bo‘sh vaqt talab qiladi va o‘quv markaz tomonidan belgilangan qat’iy vaqt rejimi talab qilinadi. Bu usulning kamchiligi ham shunda.

Kompyuter ofis daturlarni o‘rganishning yana bir usuli internetda youtube platformasi orqali yaxshi bir kanalga obuna bo‘lish va videolarni birin ketin ko‘rib chiqish orqali o‘rganish usuli hisoblanadi. Bu usulning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchida ixtiyoriy vaqt rejimi bo‘lim o‘ziga mos bo‘lgan vaqtda o‘rganish va qolib ketgan darslarni o‘zlashtirib olish uchun vaqtning ko‘pligi hisoblanadi. Ammo bu usulda ham bir qancha kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘qituvchi bilan yuzma yuz suhbatning yo‘qligi o‘quvchida paydo bo‘lgan tushunmovchiliklarga javob topish imkoniyatning yo‘qligi va har qanday o‘quvchida ham ustozsiz o‘rganishdagi iroda pastligi hisoblanadi.

Yuqoridagi sabablarni hisobga olgan holda kompyuter ofis dasturlaridan foydalanishning yangicha metodi va uslublarni o‘zida jamlagan AmaliyOfis.Uz platformasini keltirish mumkin. Ushbu platforma nomidan ham bilish mumkinki, kompyuter ofis dasturlarni amaliy o‘rganish usullariga tayangan, huddi inson suzishni o‘rganishi uchun suvga tushgandek, o‘quvchi ham kompyuter ofis dasturlarni

o‘rganish uchun kompyuterning ofis dasturlarida amaliy o‘rganishni boshlaydi va berilgan topshiriqlarni qilish jarayonida ketma-ket kerakli ko‘nikmalarni o‘rganib boradi. AmaliyOfis.Uz platformasi asosan uchta dasturni word, excel va powerpointni o‘rganish bo‘yicha shablonlarni o‘zida jamlagan. Shablonlar ketma-ketligiga ega bo‘lib dastlab sodda so‘ng qiyinlashib boradi. Ba’zi bir qismlar bir necha shablonlarda takrorlangan bu esa o‘quvchida takrorlash va o‘rganib olish zarurligini talab qiladi.

AmaliyOfis.Uz platformasiga ixtiyoriy brauzer orqali kirish mumkin bo‘lib, ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng word dasturni o‘rganishni boshlaymiz va birinchi shablon bilan tanishib chiqamiz.


KOMPYUTER SAVODXONLIGI UCHUN NAMUNALAR

- ✓ Ro‘yxat
- ✓ Shriftlar
- ✓ Abzaslar
- ✓ Intervallar

I. So‘z **qidirish**.
II. Topilgan so‘zni *almashtirish*.
III. Barchasini belgilash.

Elementlar: O_2 H_3

Daraja lar: 8^3 9^{10}

1-rasm

Yuqoridagi shablon orqali nimalarni o‘rganish nazarda tutilgan ekanligini ko‘rib o‘tamiz:

1. birinchi qatordagi matni yozamiz va shrift tanlash va o‘lcham berishni o‘rganish.
2. so‘ng tartiblanmagan ro‘yxat bilan ishlashni va unga kerakli marker tanlashni o‘rganish.
3. so‘ng tartiblangan ro‘yxat bilan ishlashni va unga mos indeklash turni tanlashni o‘rganish.
4. tartiblangan ro‘yxat ichida yozuvni qalin, og‘ma, tag chiqizli holatlarga keltirishni o‘rganish.
5. “Elementlar” so‘zini orqa foniga rang berishni o‘rganish.
6. Kimyoviy elementlarni yozishni o‘rganish.
7. Matematika formulalardagi daraja ko‘rinishlarni yozishni o‘rganish.

O‘quvchi har bir shablonni qilish jarayonida kerakli ko‘nikmalarni amaliy o‘zlashtiradi va shu orqali o‘rganadi. Shablonlar qiyinlashib boradi va har bir shablondan o‘ziga kerakli bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirish hisobiga kompyuter ofis dasturlarni o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://amaliyofis.uz
2. https://infocom.uz/microsoft-office-2007-dasturlar-paketini-organishda-ozbek-tilidagi-msofficetutor-interaktiv-multimediali-oqitish-tizimini-qollash/

TEXNIKA YO'NALISHIDAGI OLIY O'QUV YURTLARIDA FIZIKANI O'QITISHDA SAMARADORLIKKA ERISHISH

Mamatkulov B., **Shermuhammedov A., Mamatkulova G**- Jizzax politexnika instituti "Fizika" kafedrasi o'qituvchilari
Zayniddinova N.- Jizzax politexnika instituti 2-kurs talabasi

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin uning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, unga bilim berish masalasiga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu sababdan istiqlolning birinchi kunlaridayoq, ma'naviyatimizni tiklash, uni yanada yuksaltirish, zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va talablari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bular ichidagi eng muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundir. Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish va kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. U har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi zamon ta'lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri axborotlashtirilishidir, asosan o'quv –ta'lim jarayonlariga uni tuzish va optimallashtirishga undovchi turlicha axborot vositalari uslublarini joriy etilishi bilan bog'liq. Oliy ta'limning axborot maydoni umuman muassasalar va xususan, samaradorlik va sharoitlarni ta'minlash uchun mo'ljallangan uning barcha tuzilmalarining o'zaro ta'sirini va o'quv jarayoni sifatini oshirishdir. Biroq, faqat multimedia o'quv vositalarini joriy etish, materialni o'zlashtirishni, talabalarning motivasiyasini oshirish bilangina, ularning mustaqilligini faollashtirish mumkin emas, balki bo'lajak mutaxassisning ko'p qirrali vakolatlarini aniq tarzda to'g'ri shakllantirishdan iborat.

Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri – malakali, fidoyi bakalavr darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashdir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bakalavr darajasidagi o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda tashabbuskorlik-pedagogik faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirish shaxsiy javobgarligini oshirish; ularning o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishining ustasi bo'lishi, o'z sohasi bo'yicha bilimlarni har tomonlama chuqur bilishi zarurligi. Fizika fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tayanch fan, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi. O'quvchining dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o'rganish jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim va tarbiya berishda psixo-pedagogik asoslarni hosil qilish davomida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning bilish ko'nikmasining rivojlanishi bilan bog'liq holda V.P.Bespalko bilim xizmati natijasining to'rt darajasini aniqlagan va ularning ahamiyatini quyidagicha yoritib bergan:

I daraja – tanishish: o'quvchilar boshqa shunga o'xshash obyektlar qatorida ushbu obyektni anglashi, farqlashi, ularni o'zlashtirish qobiliyatlariga qarab farqlanadi.

Tanishish darajasidagi o‘zlashtirish ko‘pincha o‘rganish obyekti haqidagi umumiy qarashlar, fikirlash bo‘lsa, suhbat turidagi javoblar “ha – yo‘q”, “yoki” bilan chegaralanadi.

II daraja – reproduksiya: bu darajada o‘quvchilar o‘rganish obyekti bilan bog‘liq harakatlarni og‘zaki bayon qilib berish imkoniyati darajasidagi asosiy tushunchalarni o‘zlashtiradi, turli harakatlar va har xil tadbirlarni tahlil qiladi.

III daraja – to‘liq o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar: bunda o‘quvchilarning xizmati ba’zi bir sinf ishlarini yechish uchun o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llanish va obyektiv yangi ma’lumotlarni egallash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi

IV daraja – transformatsiya: u o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakasini qo‘llay bilish orqali turlicha qiyinchilikdagi vazifalarni yecha oladigan ma’lumotlarni egallashni ko‘zda tutadi.

Olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun fizikadan olib boriladigan mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, mashg‘ulotlar jarayonini takomillashtirish ishlarini olib borish muhim va yechilishi zarur vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish va uning mazmunini ishlab chiqish bugungi kun ta’lim tizimining muhim vazifasidan biri hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda Fizikadan o‘zlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarning olib borilishi o‘rganish va tahlil qilish.

2. Mashg‘ulot olib borish uchun tavsiya etilgan respublikamizdagi mavjud va xorijiy adabiyotlar o‘rganish va tahlil qilish.

3. Blum taksanomiyasi asosida amaliy mashg‘ulotlar mavzularini mustahkamlash va talabalarning o‘z - o‘zini baholash uchun nostandart topshiriqlar ishlab chiqish.

5. Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarga AKTni qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish.

Fizikanining barcha bo‘limlari qiziqarliligi, murakkabligi, zamonaviyligi, o‘rganish uchun yuqori darajada tasavvur talab etiladi. Amaliy mashg‘ulotlarning yangi takomillashtirilgan va ishlab chiqilgan strukturasi va mazmuni, uni o‘qitish metodikasi hamda yaratilgan o‘quv qo‘llanma texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fizikaning bo‘limidan chuqur va mustahkam bilimlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Sadriddinov “Fizika o‘qitish uslubi asoslari” O‘quv qo‘llanma-T.: O‘zbekiston 2006

2. G‘oibova, Nargiza Ziyoxonovna. "Fizika o‘qitishda samaradorlikka erishish omillari." Science and Education 1.8 (2020): 295-299.

3. Qulboyev, Z., Sh Urinov, and A. Abduraxmonov. “Texnika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida qattiq jismlar fizikasi bo‘limini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari” Science and Education 2.10 (2021): 380-386.

4. Yarmatov R.B. Bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsining tarbiyasi va rivojida ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligi darajasi haqida // “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent, 2011. № 5. – B.84-87. (13.00.01. №17)

5. Shermuhammedov A.A., A.A.Mustafakulov, and B.H.Mamatkulov. “Multimedia in the teaching of physics use.” Conferencea (2021): 105-108.

KOMPYUTER TEXNIKALARI SOTILADIGAN ONLAYN-DO‘KON UCHUN VEB-SAYT ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nuriyev Mansur Karimovich -Guliston davlat universiteti “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: mansurnuri@gmail.com
Axmadov Muxiddin Zikriddin o‘g‘li – Guliston davlat universiteti Amaliy matematika yo‘nalishi talabasi.
E-mail: muhiddinahmadov25@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kompyuter texnikalari sotiladigan onlayn-do‘kon uchun veb-sayt ishlab chiqishning nazariy asoslari, veb-ilovani yaratish maqsadi va afzallikalri, onlayn do‘konning afzalliklari haqida, kompyuter uskunalarini sotadigan onlayn-do‘kon uchun samarali veb-saytning asosiy elementlari, veb ulova tuzilishi va veb-sayt ishlab-chiqish vositalarining asoslari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xulosa qismida esa kompyuter texnikalarni sotish uchun onlayn-do‘koni veb-saytni samarali ishlab chiqishda asosan nimalarga etiborni qaratish kerakligi haqida omillari sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, onlayn-do‘kon, virtual savdo, kontent, platforma, kompyuter texnikasi, potentsial xaridor, to‘lov shlyuzlari, web-brauzer.

Raqamli transformatsiya davrida onlayn-do‘kon veb-saytiga ega bo‘lish o‘z qamrovini kengaytirish va sotishni ko‘paytirishni xohlaydigan korxonalar uchun majburiy bo‘lib qoldi.

Har qanday biznesning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan kompaniya o‘z ma'lumotlarini mijozlar va hamkorlarga qanchalik samarali etkazishiga bog‘liq.

Veb-sayt yaratish va uni Internetga joylashtirish va maqsadli auditoriyani xabardor qilishning muqobil usullaridan biridir.

Aynan internetda ko‘pchilik batafsil va dolzarb ma'lumotlarni qidiradi, buning asosida ular o‘zlarini qiziqtirgan kompaniya, mahsulot va xizmatlar haqida tasavvurga ega bo‘lishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda virtual savdoning eng mashhur turi bu onlayn-do‘kondir. Onlayn do‘kon odatda taqdim etilgan tovarlarning vizual va rang-barang katalogini o‘z ichiga oladi, bu bizga potentsial xaridorni qiziqtirishga, unga tanlov qilishga yordam beradi va oxir-oqibat xaridni amalga oshiradi.

Veb-ilovani yaratish maqsadi va afzallikalri. Onlayn do‘kon har bir Internet foydalanuvchisiga tanish bo‘lgan veb-sayt bo‘lib, mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni qulay tuzilgan shaklda taqdim etadi.

Onlayn do‘konlar kerakli modullar bilan jihozlangan veb-sayt kontentini boshqarish tizimlari yordamida yaratiladi. Yirik onlayn-do‘konlar maxsus ishlab chiqilgan yoki moslashtirilgan standart boshqaruv tizimlarida ishlaydi.

Onlayn do‘kon veb-sayti uchun kontentni boshqarish tizimi xosting platformasida mustaqil ravishda o‘rnatiladigan qadoqlangan mahsulot bo‘lishi mumkin, u xizmat ko‘rsatadigan veb-studiyaning shaxsiy ishlanmasi bo‘lishi mumkin yoki u har oyda taqdim etiladigan dasturiy ta'minot bo‘lishi mumkin.

Onlayn do‘konning afzalliklari:

- xonani ijaraga olish, sotuvchilar va boshqa xodimlarni yollash xarajatlarini talab qilmaydi;
- har qanday mijoz yashash joyidan qat’i nazar, do‘konning virtual vitrinalaridan foydalanishi mumkin;
- onlayn-do‘konda virtual maydonda hech qanday cheklovlar yo‘q;
- internet-do‘kon egasi o‘zining virtual savdo maydonini oddiy do‘kon egasi kabi ijaraga berishi mumkin;
- internet-do‘konni yaratish vaqti va narxi oddiy do‘konnikiga nisbatan nomutanosib ravishda past;
- potentsial xaridor o‘zini qiziqtirgan mahsulot yoki xizmat haqida vositachilar (sotuvchi, menejer) yordamisiz to‘liq ma’lumot oladi;
- onlayn rejimda faoliyat yurituvchi onlayn-do‘kon xaridorning fikr-mulohazalarini (forumlar, chatlar, mehmonlar kitoblari) o‘z ichiga oladi, bu bizga foydalanuvchi savollariga tezkor javob berish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, fikr-mulohazalar va takliflarni olish imkonini beradi;
- xohlagancha mahsulot joylashtirishimiz yoki istalgan miqdordagi xizmatlarni tavsiflashimiz mumkin;
- uydan chiqmasdan xarid qilish imkoniyati mijozlar uchun onlayn xaridni yanada jozibador qiladi.

Onlayn do‘kon ochishni tanlab, korxona o‘z biznesini rivojlantirishning yuqori darajasiga o‘tadi va uning assortimentini xaridorlarning keng doirasi uchun yanada qulayroq qiladi.

Kompyuter texnikasining onlayn chakana savdosi tobora ommalashib bormoqda, chunki iste'molchilar qulaylik, keng tanlov va raqobatbardosh narxlarni izlaydilar. Samarali onlayn kompyuter chakana veb-sayti korxonalarga ushbu imkoniyatlardan foydalanishga va ushbu dinamik sektorda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Kompyuter uskunalarini sotadigan onlayn-do‘kon uchun samarali veb-saytning asosiy elementlari:

• **Foydalanuvchilar uchun qulay dizayn:** Veb-sayt navigatsiya qilish oson bo‘lishi va do‘kon brendini aks ettiruvchi jozibali dizaynga ega bo‘lishi kerak.

• **Yuqori sifatli kontent:** Mahsulot tavsiflari, tasvirlar va videolar yuqori sifatli bo‘lishi va xaridorlarga sotib olish bo‘yicha ongli qaror qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni taqdim etishi kerak.

• **Qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO):** Veb-sayt potentsial mijozlar tomonidan osongina topilishi uchun qidiruv tizimlari uchun optimallashtirilgan bo‘lishi kerak.

• **Ishonchli to‘lov shlyuzlari:** ishonchli to‘lov shlyuzlarini integratsiya qilish xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlash va mijozlar ma’lumotlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

• **Ajoyib mijozlarga xizmat ko‘rsatish:** mijozlarga bir nechta aloqa kanallarini taqdim etish va ularning so‘rovlariga tezda javob berish.

Veb-ilova tuzilishi

Onlayn do‘konning tuzilishi quyidagi funktsional qismlardan iborat:

- mahsulot katalogi;
- foydalanuvchi savati;
- ro‘yxatga olish shakli;
- buyurtma berish shakli.

Mahsulot katalogi murakkab va ko‘p darajali ma'lumotlar tuzilmasi bo‘lib, u mahsulotlarni sodda va tushunarli tarzda tartibga solishi kerak. Bunday katalogni tasavvur qilishning eng oson usuli - bu ob'ektlar daraxti, uning yuqori darajasi bo‘limlar ro‘yxatidan iborat. Bo‘limlarda bo‘limlar yoki ma'lum bir mahsulotga havolalar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bunday buyurtma tovarlarni qulay va tez qidirish va buyurtma qilish uchun zarurdir.

Foydalanuvchi aravachasi - bu foydalanuvchi tomonidan buyurtma qilingan tovarlarni saqlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar massivi.

Ro‘yxatdan o‘tish shakli foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini kiritish uchun ishlatiladi. Ushbu ma'lumotlar keyinchalik ularni onlayn-do‘kon bilan ishlash seanslari orasida aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu ma'lumotlar server tomonida ham, mijoz tomonida ham saqlanishi mumkin.

Buyurtmani topshirish shakli mijozning aloqa ma'lumotlarini kiritish va u buyurtmani tashkilotning elektron pochtasiga yuborish uchun ishlatiladi.

Veb-sayt ishlab-chiqish vositalarining asoslari. WordPress GNU GPL ostida tarqatiladigan ochiq manbali kontentni boshqarish tizimidir. PHP-da yozilgan, ma'lumotlar bazasi sifatida MySQL-dan foydalanadi. Qo‘llash doirasi - bloglardan juda murakkab yangiliklar manbalari va onlayn-do‘konlargacha. O‘rnatilgan "mavzular" va "plaginlar" tizimi muvaffaqiyatli arxitektura bilan birgalikda deyarli har qanday loyihalash imkonini beradi.

Grafika bilan ishlash uchun Paint NET 3.2.1 paketi tanlandi. Bu bepul dasturlar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Paint NET grafik tasvirlar bilan ishlash uchun kerak bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga oladi.

Veb-sayt ishlab-chiqish vositalarini tanlash tamoyillari:

- dasturiy ta'minot bepul bo‘lishi kerak;

- dasturiy ta'minot uyda nosozliklarni tuzatishga ruxsat berishi kerak, ya'ni. har safar to‘g‘ridan-to‘g‘ri veb-serverda loyihaga o‘zgartirishlar kiritmasdan;

- platforma mustaqilligi.

Yuqoridagi tamoyillarni hisobga olgan holda quyidagi vositalar majmuasi tanlandi: HTML, CSS, JavaScript, PHP.

HTML - HyperText Markup Language standart dasturlash tili bo‘lib, WEB muhitida gipermatnli hujjatlarni yaratish uchun mo‘ljallangan.

HTML hujjatlarini har xil turdagi WEB-brauzerlar ko‘rish mumkin. Hujjat HTML yordamida yaratilganda, WEB-brauzer hujjatning turli elementlarini ajratib ko‘rsatish va birinchi navbatda ularni qayta ishlash uchun HTMLni sharhlashi mumkin. HTML-dan foydalanish hujjatlarni ularni ko‘ruvchi har qanday tizimda shriftlar, chiziqlar va boshqa grafik elementlar yordamida taqdim etish uchun formatlash imkonini beradi.

Ko‘pgina hujjatlarda sarlavha, paragraflar yoki ro‘yxatlar kabi standart elementlar mavjud. HTML teglari yordamida siz ushbu elementlarni belgilashingiz mumkin, WEB-brauzerlarni ushbu elementlarni ko‘rsatish uchun minimal ma'lumot bilan ta'minlab, hujjatlarning umumiy tuzilishi va axborot to‘liqligini saqlaysiz. HTML-hujjatni o‘qish uchun faqatgina HTML teglarini sharhlovchi va hujjatni ekranda ko‘rsatadigan WEB-brauzer kerak bo‘ladi.

CSS (Cascading Style Sheeets) - kaskadli uslublar jadvallari.

Uslub - ob'ektning tashqi ko‘rinishini belgilaydigan parametrlar to‘plami.

CSS ning afzalliklari:

- CSS kod hajmini sezilarli darajada qisqartirish va uni o‘qishga qulay qilish imkonini beradi;
- CSS faqat HTMLda o‘rnatib bo‘lmaydigan parametrlarni o‘rnatish imkonini beradi. Masalan, havolalardan tagiga chizishni olib tashlang;
- CSS sahifalar ko‘rinishini o‘zgartirishni osonlashtiradi. Tasavvur qiling, siz 50 sahifadan iborat veb-sayt yaratdingiz, uning barcha sarlavhalari ko‘k rangda. Biroz vaqt o‘tgach, siz ko‘k rangni yashil rangga o‘zgartirmoqchi edingiz. Siz barcha 50 sahifani ko‘rib chiqishingiz va tegishli atributdagi rangni o‘zgartirishingiz kerak bo‘ladi. CSS bilan buni faqat bir marta, uslublar jadvalida qilishingiz kerak;
- CSS saytning blok-layout deb ataladigan qismi bilan bog‘liq.

JavaScript Netscape Communications tomonidan mijoz va server Internet ilovalarini yaratish uchun ishlab chiqilgan skript tilidir. Netscape Navigator veb-sahifalarga o‘rnatilgan JavaScript skriptlarini sharhlash uchun mo‘ljallangan.

JavaScript - bu ob'ektga yo‘naltirilgan skript dasturlash tili. Bu ECMAScript tilining dialekti.

JavaScript odatda dastur ob'ektlariga dasturiy kirish uchun o‘rnatilgan til sifatida ishlatiladi. U veb-sahifalarga interaktivlikni qo‘shish uchun skript tili sifatida brauzerlarda keng qo‘llaniladi.

Asosiy arxitektura xususiyatlari: dinamik terish, zaif matn terish, avtomatik xotirani boshqarish, prototip dasturlash, birinchi darajali ob'ektlar sifatida funktsiyalar.

PHP umumiy maqsadli skript tili bo‘lib, u veb-ilovalarni ishlab chiqishda intensiv foydalaniladi. Hozirda hosting provayderlarining ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va dinamik veb-saytlarni yaratishda foydalaniladigan dasturlash tillari orasida yetakchilardan biri hisoblanadi.

Dasturlash sohasida PHP eng mashhur skript tillaridan biridir. Oddiyligi, bajarilish tezligi, boy funksionalligi va PHP litsenziyasi asosida manba kodlarining taqsimlanishi tufayli.

Xulosa. Kompyuter texnikalarni sotish uchun onlayn-do‘koni veb-saytni samarali ishlab chiqish puxta rejalashtirish, amalga oshirish va doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu maqolada tasvirlangan metodologiyaga rioya qilish orqali biz mijozlarni jalb qiladigan, savdoni oshiradigan va brend obro‘sini mustahkamlaydigan veb-sayt yaratishimiz mumkin. Maqsadli auditoriyaning ehtiyojlarini tushunish, to‘g‘ri elektron tijorat platformasini tanlash, jozibali kontent yaratish, xavfsizlikni ta'minlash va tahlillarni kuzatish ushbu dinamik va raqobatbardosh sektorda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridir.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Никсон Р. Создаем динамические веб-сайты с помощью PHP, MySQL и JavaScript. – СПб.: Питер, 2011. –496 с.
2. X.N.Zaynidinov, E.Sh.Nazirova, D.S.Yaxshibayev, S.U.Maxmudjanov. Web ilovalarni yaratish. Toshkent. 2020 -349 b.
3. Лоусон Б., Шарп Р. Изучаем HTML5. Библиотека специалиста. – СПб.: Питер, 2011. -272с.
4. Горнаков С.Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). Москва 2009.
5. Лоусон Б., Шарп Р. Изучаем HTML5. Библиотека специалиста. – СПб.: Питер, 2011. -272с.

GEOMETRIK MASALALARNI YECHISHDA DASTURLASHDAN FOYDALANISH

Xursandov Hamidillo Fayzillo o'g'li, Ahtamqulov Muhriddin Ahtamqul o'g'li - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali o'qituvchilari
Ahmadjonov Shahriyor Hasanovich - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 2-kurs talabasi

XXI asr axborot texnologiyalari asri. Dunyomizda qilinayotgan kashfiyotlar, olimlarning izlanishlari, fan-texnika yangiliklari fikrimizning yaqqol misolidir. Masalan, atom energetikasi, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining xilma-xilligi, internet texnologiyalari va undan tashqari raqamli televideniyaning rivoji – bularning barchasi asrimizning katta yutuqlaridandir.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada, shu jumladan axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborotlashgan jamiyatni shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar izchillik bilan va aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy kadrlarni yetishtirish borasida respublikamiz ta'lim tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda - Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Geometrik masalalarni dasturlashdan foydalanishning dolzarbligi juda kengdir:

1. Amaliyotlarni avtomatlashtirish: Dasturlash orqali geometrik masalalar yechish, o'qituvchilar va talabalar uchun amaliyotlar va masalalar yechilish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi.

2. O'rganishni osonlashtirish: Geometrik masalalarni dasturlash orqali, o'qituvchilar va talabalar matematikni o'rganish va amaliyotlar ustida ishlash uchun ma'lumotlarni osonlashtirishadi. Dasturlash, abstrakt matematik konseptlarini ko'rsatish, tahlil qilish va masalalarni hal qilishda yordam beradi.

3. Koordinat va geometrik ob'ektlar bilan ishlashning osonligi: Dasturlash, geometrik masalalarni yechishda koordinat sistemasi va geometrik ob'ektlar bilan ishlashni osonlashtiradi. Bu, koordinat sistemasi orqali masalalarni model qilish, geometrik ob'ektlarning qiymatlarini hisoblash va natijalarni aniqlashga imkon beradi.

4. Matematik formulalarni amaliyotga o'tkazish: Geometrik masalalarni dasturlash, matematik formulalarni amaliyotga o'tkazishda juda qulaydir. Bu

formulalar, dastlabki qiymatlarga moslashtiriladi va dasturlash tili orqali avtomatlashtiriladi. Natijada, masalalar tez va aniq hal qilinadi.

Geometrik masalalarni dasturlashdan foydalanishning maqsadi va vazifalari quyidagilardir:

1. Masalalarni avtomatlashtirish: Geometrik masalalar dasturlash yordamida avtomatik ravishda hal qilinadi. Bu, masalalarni qo‘lda yechish zarurati yo‘qligini anglatadi va masala muammolari tez va to‘g‘ri hal qilinishiga imkon beradi.

2. Koordinatlar va geometrik ob’ektlar orqali muammoni hal qilish: Dasturlash, geometrik ob’ektlar bilan ishlash uchun ideal vositalardan biridir. Koordinat sistemasi, geometrik shakllar, hajmlar va boshqa ob’ektlar dasturlash yordamida soddalashtiriladi va oson hal qilinishiga imkon beriladi.

3. Matematik formulalarni ishlatish**:** Dasturlash masalalarni yechishda matematik formulalardan keng foydalaniladi. Dasturlash tilida matematik formulalarni dastlabki qiymatlarga uyg‘unlashtirish va ulardan foydalanish osonligi, masalani tez va aniq hal qilishga imkon beradi.

4. Amaliyotlar va hisob-kitobning avtomatlashtirilishi: Geometrik masalalarni dasturlash, masalalar yechilishini avtomatik ravishda bajarishga yordam beradi. Bu, ko‘p sonli masalalar uchun quyidagi ishni tezda va aniq ravishda bajarishga imkon beradi.

5. Natijalarni vizualizatsiya qilish: Dasturlash masalalar yechishda natijalarni vizualizatsiya qilishga imkon beradi. Bu, yechimlarni grafiklar, grafikalar yoki boshqa vizual yordam orqali ko‘rsatish, natijalarining tushuntirilishi va tahlili uchun yordam beradi.

6. Matematik darslarida va fan o‘qitishida foydalanish: Geometrik masalalar dasturlash orqali o‘qituvchilar va talabalar uchun ma’lumotlarni yaxshilash, matematik fanini o‘rganish va amaliyotlar bilan tanishish uchun samarali vosita bo‘ladi.

Bular maqsadlar va vazifalar orqali, geometrik masalalarni dasturlashning ahamiyati va qulayligi ko‘rsatiladi. Bu, masalalar yechilishni oson va samarali qilish, matematik va dasturlash ko‘nikmalarini biriktirish va ularni amaliyotga tatbiq etishga imkon beradi.

Chiziqli masalalarni yechishda geometrik usul (geometric approach) quyidagi amaliyotlardan foydalanishni anglatadi:

Geometrik tahlil: Geometrik usul, masalani geometrik rivojlantirish, tushunish va vizualizatsiya qilishga asoslangan. Masalani grafik sifatida tasvirlab, geometrik o‘lcham va usul orqali yechishga imkon beradi.

Geometrik model: Masalani geometrik model orqali ifodalash, chizish yoki diagrammalarni ishlatish yordamida muammolarni hal qilishga yordam beradi. Model orqali muammoning xususiyatlari aniqlanadi va uning yechimi topiladi.

Geometrik masalalarni dasturlash orqali hal qilish juda qiziq mavzu bo‘lib, dasturlash masalalarni oson va samarali hal qilishga imkon beradi. Geometrik masalalarni yechish uchun ko‘p qo‘llaniladigan dasturlash tili Python. Bu til orqali, geometrik formulalar va qiymatlarni ishlatib, masalalarni yechish oson va tez amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, geometrik masalalarni hal qilishda trigonometriya funksiyalari, koordinatlar, geometrik ob'ektlarning qiymatlari, kabi dasturlashning turli ko‘nikmalari foydalaniladi. Bu, matematik va dasturlashni birgalikda ishlatishni va ko‘plab amaliyotlarni tez va samarali yechishni ta'minlaydi.

Geometrik masalalar, matematika sohasidagi muammolar va savollar, shakl, uzunlik, masshtab, koordinatlar va boshqa geometrik omillar orqali hal qilinadigan muammolardir. Bu masalalar, geometrik ob'ektlar va ularning xususiyatlarini o‘rganish, aniqlash va hisoblash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Geometrik masalalar ko‘plab turli turlarga bo‘lishi mumkin, masalan:

1. To‘rtburchaklar va kvadratlar: Bu turdagi masalalar to‘rtburchaklar va kvadratlar haqida bo‘lib, ularning yuzini, perimetri, diagonalini va boshqa xususiyatlarini hisoblashni talab qiladi.

2. Doiralar va sharlar: Doiralar va sharlar haqida masalalar, doiraning yuzini va perimetri, doiraning radiusi, diametri va boshqa xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltiriladi.

3. Triyangular: Triyangular haqida masalalar, uchburchakning yuzini, perimetri, burchaklarini aniqlash, shuningdek, gipotenuzani hisoblash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

4. Kublar, o‘lchamli ob'ektlar va hajmlar: Bu turdagi masalalar kublar, to‘g‘ri prizmalar va hajmlar haqida bo‘lib, ularning hajmini, yuzini va boshqa xususiyatlarini hisoblashni talab qiladi.

5. Koordinatlar va grafiklar: Koordinat sistemasi bo‘yicha masalalar, geometrik ob'ektlar yaratish, ularning orqali yurish va boshqa grafik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Geometrik masalalar o‘qituvchilar, talabalar va dasturchilar uchun oson va samarali matematik masalalarni yechish uchun yaxshi vosita bo‘lib, ularning tushuntirilishi va yechilishi fikr-mulohazalar va savollar chog‘ida chidamli bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.A.Mengliyev, O.A.Abdug‘aniev, S.Q.Shonazarov, D.Sh.To‘rayev “Python dasturlash tili”, Termiz-2021
2. Прохоренок Н.А. Python.Самое необходимое. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2011, –416 с.
3. Python asoslari. Abbosbek. Ibragimov qo‘llanma.
4. M.A. Bobojonova Python dasturlash tili.
5. Pythonda dasturlash asoslari “Anvar Narzullayev” 2021

O‘QUV JARAYONIDA KORPORATIV TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Taniberdiyev Akbarjon Abduganiyevich – Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchi, (PhD)

XXI asr ta’lim oluvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, korporativ tarmoq texnologiyalari asosida masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda 2020 yil 23 sentyabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlanib, ushbu qonun asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllaridan biri masofali ta’limni amalga oshirishga ruxsat berildi. Masofali o‘qitish - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqat qilish sharoitlarini ta’minlaydigan an’anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o‘qitish jarayonida o‘quvchining qaerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilishda ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot-metodik ta’minotning o‘rni juda katta. Ta’lim muassasalarida fanlardan axborot-metodik ta’minotni yaratish Internet va Intranet tarmoqlari hamda korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan bo‘ladi. Bu texnologiyalar asosida korporativ ta’lim portallarini tashkil etiladi.

Korporativ so‘zi korporatsiya so‘ziga mos kelib, lotincha “corporatio” - birlashma, uyushma, hamjamiyat degan ma’nolarni bildiradi. Korporativ tarmoq deganda katta tashkilotning mahalliy tarmog‘i tushuniladi. Korporativ tarmoq ya’ni korxona tarmog‘ida korxonada bajarilayotgan barcha ishlarni avtomatlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarida korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portalida masofali o‘qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlariga ta’lim portalida joylashtirilgan o‘quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o‘quv

va metodik qo‘llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali masofali ta’lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga, uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta’limning tashkiliy-uslubiy va me’yoriyhuquqiy bazasining rivojlanishiga, ta’lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta’minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portallariga masofali o‘qitish amalga oshiriladigan ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo‘jalik ishlarini yuritish, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv materiallari, testlar va boshqalar haqidagi veb saytlar majmuasi joylashtiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilish va uning o‘quvuslubiy ta’minotini yaratish masofali o‘qitishga mo‘ljallangan veb hujjatlar, jumladan ta’limiy saytlar va ta’lim portallarini shakllantirish, strukturasi va mazmunini ishlab chiqishga alohida talablar qo‘yiladi. Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portalining asosiy o‘quv-uslubiy qismi elektron darslikka asoslangan.

Elektron darslik - kompyuter va axborotkommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali resurslari masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri hisoblanib, unga masofali o‘qitishning tashkiliy-uslubiy va me’yoriy-huquqiy bazasi joylashtiriladi. Shuning uchun ta’lim resurslari o‘quvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi o‘quvuslubiy vositalar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘yinlar - SI shaxmat, poker, tic-tac-toe va boshqalar kabi strategiya o‘yinlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bunda kompyuter evristik bilimlar asosida ko‘plab mumkin bo‘lgan yechimlarni hisoblay oladi.

Tabiiy tilni qayta ishlash - bu odamlar gapiradigan tabiiy tilni tushunadigan kompyuter bilan muloqot qilish qobiliyati.

Nutqni aniqlash - ba’zi aqlli tizimlar odam ular bilan muloqot qiladigan tilni eshitish va tushunishga qodir. Ular turli xil urg‘ularni, jargonlarni va boshqalarni boshqarishi mumkin.

Qo‘l yozuvini aniqlash - dasturiy ta’minot qog‘ozga qalam yoki ekranda yozilgan matnni stilus yordamida o‘qiydi. U harf shakllarini tanib, ularni tahrir qilinadigan matnga aylantirishi mumkin [6].

Aqlli robotlar - bu odamlar tomonidan berilgan vazifalarni bajarishga qodir robotlar. Ularda yorug‘lik, issiqlik, harakat, tovush, zarba va bosim kabi haqiqiy dunyodan jismoniy ma’lumotlarni aniqlash uchun sensorlar mavjud. Ular yuqori samarali protsessorlarga, bir nechta sensorlarga va katta xotiraga ega. Bundan tashqari, ular o‘zlarining xatolaridan saboq olishlari va yangi muhitga moslashishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон Республики Узбекистан "О защите информации в автоматизированной банковской системе" // Собрание законодательства Республики Узбекистан.-Т,, 2006, № 14.

2. “Анализ возможностей реализации услуг Интернет-вещей на базе существующих операторов связи”. В.В. Лебедянцев, С.Д. Абидуева. СибГУТИ, Новосибирск 2016

3. “Анализ и разработка радиоинтерфейса системы “Интернет вещей” Ю.Г. Гилярова , Д.Г. Кузнецов. СибГУТИ, Новосибирск 2017

4. A Survey of Machine and Deep Learning Methods for Internet of Things (IoT) Security Mohammed Ali Al-Garadi, Amr Mohamed, Abdulla Al-Ali, Xiaojiang Du, Mohsen Guizani

5. Yuldashev, U. (2022). METHODOLOGY FOR INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE TEACHER OF INFORMATION SCIENCE. *Science and Innovation*, *1*(8), 343-346.

6. Yuldashev, U. A., Agathonov, A. A., & Butaboyev, A. A. (2023). DEVELOPMENT OF COMPETENCES IN THE FIELD OF WEB DESIGN FOR FUTURE INFORMATION TECHNOLOGY SPECIALISTS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(6 Part 2), 31-37.

BIOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA LABORATORIYA MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Davranov Furqat O‘ktamovich – Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quv fanlari ta'lim oluvchilarning hissiyotlarini uyg‘otadigan, ularning individual xususiyatlarini ochishga, ularda izlanish hislatlarini shakllantirishga yo‘naltirilsa kutilgan natijalarga erishiladi. O‘quvchida insoniy fazilatlar hosil qilish uchun laboratoriya topshiriqlarida o‘quvchining o‘zini harakatga keltiradigan jihatlar topishga e'tibor qaratilmog‘i lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun topshiriqlarni yaratishda o‘quvchini haddan tashqari zo‘riqtirib yubormaslikka rioya qilish, ya'ni belgilangan topshiriqlar o‘quvchilar yoshiga va fiziologik xususiyatlari talablariga javob bera oladigan darajada bo‘lishi, ularda o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji inobatga olinishi lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan metodik qo‘llanma, tavsiya yoki ko‘rsatmani yaratuvchi mualliflar amaliy tajriba va fan ehtiyojlarini inobatga olib laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma qo‘lyozmasini tajribali o‘qituvchilar bilan muhokama qilishi, laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmani yaratishda barcha o‘quvchilar doirasi, ya'ni ularning tahsil olish sharoitlari va ularning qobiliyatlarini hisobga olish, topshiriqlarni tanlashda ularning o‘quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlariga mos kelishi inobatga olinishi, fanning o‘quv dasturini uslubiy qo‘llanmani yaratishda asos qilib olish; taklif etilayotgan laboratoriya topshiriqlari o‘quvchilarni faollikka va tanqidiy fikrlashga undashi, aniq maqsad va vazifalarga yo‘naltirishi, mutaxassislik fanlari bilan bog‘liq bo‘lish kabi bir qator talablarga javob berishi lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar quyidagi mezonlar asosida tuziladi:

1. O‘quvchi - o‘quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda topshiriqni tushunarli, ravon va qiziqarli shaklda tuzish.
2. Topshiriqlarni tushunarli va mantiqiy izchil bajarish jarayonini osonlashtirish uchun illyustrasiya va chizmalardan o‘rinli foydalanish.
3. Laboratoriya topshirig‘i mazmuniga aloqador fikrlarni aniq qo‘llash.
4. Topshiriqqa tegishli bilimlarni qisqa bayon qilish hamda manbaa bilan o‘zaro teran bog‘lash.
5. Topshiriqni tuzishda o‘ziga xos va betakrorlikni, o‘quv predmetiga va o‘quvchining bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish.
6. Laboratoriya topshirig‘ini predmet dasturiga to‘la mos keladigan va uni to‘laligicha qoplaydigan shaklda yozish.
7. Topshiriq mazmunining aniqligi va bexatoligini ta'minlash.

8. Topshiriq hajmini kengayib ketmasligiga e'tibor berish.

9. O‘quvchi - o‘quvchilarni berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashga va amalda qo‘llashga imkon yaratish.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarning kundalik turmush amaliyoti bilan bog‘lash;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;
- fanga oid yetarli miqdordagi ma'lumotlarni o‘zida mujassamlashtirish;
- o‘quvchiga o‘z-o‘zini yoki o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini berishi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan toshpiriqlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilar:

- ta'lim olish jarayonida o‘quvchilarda komil inson fazilatlari, odob-axloq asoslarini, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini jonlantirish;
- laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni ilmiy asoslangan, ishonchli va aniq bo‘lishi, voqea-hodisalar o‘zaro bog‘langan bo‘lishi;
- topshiriqlar tushunarli va qiziqarli bo‘lishi, sodda va ravon tilida tuzilishi;
- topshiriq materiallari kundalik turmush va hayot bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi;
- fan tarixi va milliy merosga asoslangan holda berilishi;
- o‘quvchilar to‘plagan bilimi va hayot tajribasiga mos bo‘lishi;
- beriladigan topshiriq materiallari ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta'riflar bilan mantiqiy izchil bog‘langan bo‘lishi;
- topshiriqlarda yosh avlodni kasbga yo‘naltiradigan g‘oyalar aks etishi;
- o‘quvchilar topshiriq orqali berilayotgan bilim, masala va ko‘nikmalarni egallash zarurligini anglashi, ularni hayot uchun foydasini, ahamiyatini tushunishi;
- topshiriq tuzilishi ko‘rsatmalikka va hodisalar rivojini ichki va tashqi mantiqiylikka asoslanishi;
- topshiriqlarni tanlashda o‘quvchilarda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni jamlantirishga yordam beruvchi kerakli suratlar, sxemalar, chizmalar kabi ko‘rgazmali illyustrasiyalar bo‘lishi, bezaklar o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadigan bo‘lishi va o‘quvchining dars materialni o‘zlashtirishga yordam berishi, ranglarning o‘z joyida va zaruriy me'yorlarda ishlatilishi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni bilim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni izlab topish ko‘nikmalarni hosil qilishni ta'minlashi kerak. Laboratoriya mashg‘ulotlari muayyan yo‘nalishdagi bilimlar berishdan tashqari, o‘quvchilarda olamni, tabiat va jamiyatni idrok etishga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mamatov Avaz Muxiddinovich – Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchi

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikani bilishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun ularning matematika fani bilan qiziqtirish ham muhim hisoblanadi.

Jamiyatning axborotlashuvi zamonaviy darslarda albatta kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu esa o'z-o'zidan o'quvchilarning kompyuter savodxonligi va madaniyatini rivojlantirishga olib keladi.

O'qituvchi mashg'ulot uchun o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga muvofiq ravishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- o'qituvchi kompyuteri va videoproektor yordamida ko'rsatish uchun mo'ljallangan namoyish qiluvchi dasturlar;
- o'quvchilarning bilim darajalarini aniqlash uchun trenajyorlar;
- masalalarni yechish bo'yicha o'quvchilar ko'nikma va malakalarini oshirish uchun trenajyorlar;
- matematika tarixi hamda o'rganilayotgan mavzu, yechilayotgan masalalar bo'yicha axborot qidiruv yoki ma'lumotnoma dasturlari.

Kompyuterlardan foydalanish rejalashtirilgan mashg'ulotlar odatiy mashg'ulotlar kabi olib boriladi. Ularda kompyuterlardan dars mavzusiga oid xususiy masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Bunda o'quvchi tomonidan joriy mavzuni chuqur o'zlashtirilishiga, ijodiy mulohaza yuritishiga erishish mumkin.

Kompyuterli mashg'ulotlarni boshlashdan avval o'quvchilarni albatta texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish lozim. Undan keiyn o'quvchilar kompyuterlar bilan ishlash uchun boshlang'ich ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuterlar bilan bitta mashg'ulot mobaynida 15 minut, kun davomida esa 30-40 minutdan ortiq ishlamasliklarini nazorat qilish lozim. Shu munosabat bilan o'quv jarayoni to'laligicha axborotlashtirilmaydi, faqat uning alohida olingan elementlarini an'naviy usuldagi darslar tarkibiga kiritish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda kompyuter ta'limi uchun bir qator amaliy dasturlar mavjud. Ulardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari mashg'ulot samarasini orttirish uchun ehtiyojga ko'ra turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin. Namoyish etish uchun mo'ljallangan dasturlardan biri foydalanuvchilar o'rtasida keng tarqalgan *Microsoft PowerPoint* dasturi hisoblanadi. Uning yordamida multimediyali prezentatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash mumkin. Bunday prezentatsiyalar o'quv materiallarini rang-barang, bo'yoqlarga boy, dinamik tarzda ifodalashda o'qituvchiga katta yordam bera oladi.

Yaxshi o'qiydigan o'quvchilarning yomon o'qiydigan o'quvchilardan asosiy farqi ularning qobiliyatlarida emas, balki ularning faolligidadir. Kompyuter o'quvchilarga xato qilishga imkon beradi va shu zahotiyoq bu xatolikni tuzatishga o'quvchilarda ishtiyoqni paydo qiladi. Kompyuter xuddi o'qituvchi singari

o‘quvchining xatti-harakatini baholay oladi. Ammo, uning xulosasi yakuniy va o‘zgarmas hisoblanmaydi. Demak, kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beruvchi vositalardan hisoblanadi.

Kompyuter o‘quv materiallarini ifodalash va o‘quvchilarga uzatish usullarini yetarlicha darajada kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, video va boshqa bir qator effektlarni ta'lim jarayonida qo‘llash evaziga turli muhit va vaziyatlarni yuzaga keltirish mumkin bo‘lib qoldi.

O‘quvchilar ta'rif, teorema, isbot, qoida va formulalarni eslab qolishlariga to‘g‘ri keladi. Mantiqan bir-biriga bog‘langan matematik bilimlar zanjirini eslab qolishga o‘rgatib, o‘qituvchilar ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga yo‘l ochadilar. Bunda quyidagicha topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- ikki xonali sonlarni eslab qoling;
- matematik terminlarni yodlang;
- so‘zlar zanjirini yodlang;
- xotiradagi ma'lumotlar bo‘yicha rasm chizing;
- rasmlarni eslab qoling va qayta chizing
- ko‘rish orqali diktant yozing;
- eshitish orqali diktantlar yozing.

Matematika darslarida bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus masala va mashqlardan muntazam ravishda foydalanib, kichik yoshdagi o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini shakllantiradi va rivojlantiradi, matematik madaniyatini shakllantiradi, matematik tayyorgarlik darajasini yuqoriga ko‘taradi, bolalarga ularni o‘rab turgan olamdagi eng sodda qonuniyatlarni anglab olishga va o‘zlariga bu olamda dadil yo‘l topishlariga, maktabda olgan matematik bilimlaridan kundalik hayotdagi turli masalalarda faol qo‘llashni o‘rganadilar.

O‘qituvchining ta'lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, rivojlantirish, orttirish va mustahkamlash, shuningdek faoliyatlarini ijodiy va mahsuldor qilish bo‘yicha mahorati o‘z fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni boy, rang-barang, qiziqarli qilib o‘tkazishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - Buxoro. Matbaa, 2001 yil.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T:, 2010-yil

MATEMATIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AXAMIYATI

Turdiyev Alisher Pardaboy o'g'li, Turaqulov Yashnar Sirojiddin o'g'li –
Guliston davlat pedagogika instituti magistrlari

Fan va texnikaning yangi yutuqlaridan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlarida talab qilinganidek ta'lim-tarbiya berishda kompyuter texnologiyalarinig imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uchun o'quv jarayonini tashkil etishning metodlarini takomillashtirishni talab etadi.

O'qituvchi o'quv jarayonining raxbari va boshqaruvchisi bo'lib, axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'qituvchining o'zi kabi kompyuter yangi, kuchli, mexnat samaradorligini oshiruvchi texnika vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Matematika o'qitishning samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri ta'limda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanishdir. Undan,

- ✓ o'tilgan materiallarni takrorlashda;
- ✓ yangi materialni bayon qilishda;
- ✓ mustaxkamlashda;
- ✓ mustaqil ishlarda;
- ✓ og'zaki mashqlar o'tkazishda;
- ✓ uy vazifalari berish va uning mazmunini tushuntirishda yoki ularning qanday bajarilganligini tekshirish va tahlil qilishda samarali foydalanish mumkin.

O'tilayotgan mavzuni programmalashtirilgan holdami yoki slaydlar orqali o'quvchilarga taqdim qilganda, mavzu bitta slaydga yoki kompyuterning monitoriga joy bo'ladigan darajada kichik-kichik bo'laklarga bo'lib berilishi maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchi uzundan uzoq mavzuni shunchaki passiv o'qib chiqmasdan, xar bir qiska bo'laklardan so'ng, o'quvchini o'ylantiradigan savol va topshiriqlar berilishi lozim. Bu topshiriqlarni o'quvchi mustaqil xolda bajaradi. Topshiriqlarning qanday bajarilganligini o'qituvchi o'zining kompyuteri orqali kuzatishi mumkin.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'zlashtirishini bunday nazorat qilish va baxolash, o'quvchilarga "qoniqarsiz" baxoga nisbatan salbiy psixologik ta'sirning kamayishiga, ularda fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishga xamda mustaqil ishlashga ishtiyoq uyg'onadi.

Kompyuter faqat o'quvchiga emas balki olingan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishda o'qituvchiga xam katta yordam beradi. Sinfning asosiy qismi kompyuter bilan band bo'lganida, o'qituvchi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash, qo'shimcha savollarga javob berish yoki yangi murakkabroq masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, ortiqcha kuch sarflamasdan o'qituvchining mexnat samaradorligi oshadi.

Iqtidorli, o‘z soxasi bo‘yicha yuqori darajada bilimga ega bo‘lgan yoshlar, Uzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining intellektual saloxiyatini xamda uni jaxon xamjamiyatidan munosib o‘rin egallashini taminlovchi omil va millatimizning ziynati xisoblanadi. Shuning uchun xam umumiy o‘rta ta'lim maktablarida uzluksiz ta'limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslagan davlat ta'lim standartlari joriy qilindi.

Shu munosabat bilan o‘quv mashg‘ulotlarida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish, o‘qitishning samarali vositalaridan biri xisoblanadi. Kompyuter texnologiyalari yordamida amaliy, xayotiy masalalarni yechishga ko‘prok e'tibor berish, o‘quvchilar bilimini mustaxkamlashga, o‘rganilayotgan qonun-qoidalarning xayotiy axamiyatini tushunib yetishga yordam beradi. Matematika fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy talim texnologiyalari, internet ma'lumotlaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchining mustaqil fikrlashga, erkin va ijodiy faoliyat olib borishida o‘quvchilar bilimini oshirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari yordamida o‘tiladigan mavzularni amaliy, ko‘rgazmali va jonli va tushunarli bayon qilish mumkin.

Jumladan, “Funksiyalar” bulimlarini o‘rganishda, chiziqli va kvadrat funktsiyalarning farqini animatsiyali slaydlar yordamida ko‘rgazmali ko‘rsatish mumkin. Funksiyalarning grafiklarini kompyuterda yasash orqali ularning xossalarini o‘rganish, o‘quvchilar tomonidan mavzularning puxta o‘zlashtirilishida kutilgan natijani beradi. “Trigonometriya elementlari” bobidan “Nuqtani kordinatalar boshi atrofida burish” mavzusini o‘tishda bazi burchaklarni burishning radian va gradus o‘lchovlari jadvalini, birlik aylananing nuqtalarini kordinatalar boshi atrofida burishdan foydalanib 180^0 dan katta burchaklarni, shuningdek manfiy burchaklarini xam qarashda kompyuterdan foydalanish, o‘tilayotgan mavzularning samarali o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin bayon qila olishga o‘rgatib, ijodkorligi, fanga bo‘lgan qiziqishi, izlanuvchanligi va kuzatuvchanligini oshiradi.

МОДЕЛИ ДВИЖЕНИЙ ВОДОСБРОСОВ С ЗАКРУТКОЙ ПОТОКА В НАПОРНЫХ ВОДОВОДАХ ДЖИЗАКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА

Холбоев С.М. - Гулистанский государственный университет докторант
Худайкулов С.И. - Международный технический Университет Кимё, Ташкент.

Постановка вопроса. К настоящему времени накоплен определенный опыт в проектировании водосбросов с закруткой потока в туннелях. При этом обычно обеспечивалось интенсивное гашение избыточной кинетической энергии и одновременно создавалось повышенное давление на стенки водовода, что позволяло при надлежащим образом запроектированном сооружении уменьшить, или исключить опасность возникновения кавитации при обтекании контактирующих с потоком поверхностей и элементов конструкции последнего. Эффективное гашение энергии потока внутри туннеля и камеры гашения, в случае ее применения, позволяет уменьшить скорость воды на выходе из водосбросного тракта до допустимых значений, что в свою очередь упрощает конструкции сооружений для сосредоточенного гашения энергии на концевом участке водосброса.




Рис.1.Регулирования давлением протечной части Джизакского водохралище

Однако существовавшие ранее методы расчета водосбросов с закруткой потока требовали уточнений и в ряде случаев не позволяли получить ожидаемых результатов при проектировании таких сооружений. Недостаточно было изучено влияние наклона шахты на гидравлические характеристики закрученного потока. Вопрос о влиянии геометрической формы бескамерного тангенциального завихрителя на структуру закрученного потока за ним и об интенсивности преобразования этой структуры вдоль по длине водосброса долгое время оставался вообще не изученным. В статье рассмотрим многофазный поток для многокомпонентной среды.

Специфическим для многокомпонентной среды является учет взаимодействия между частицами несомой фазы, их взаимодействия с границей. Для твердых частиц это взаимодействие в простейшем случае может быть представлено двумя типами явлений - упругого удара, задаваемого безразмерным коэффициентом удара K_y - характеризующим относительную

потерю энергии при ударе, и неупругого - сухого трения, задаваемого коэффициентом трения $f = arctg\varphi$.

Эти два безразмерных параметра, зависящих от свойств материалов частиц и стенок сосуда, а также от формы частиц, должны быть включены в анализ. Возможно и более полное описание взаимодействия частиц при ударе, приводящее к появлению большего числа параметров, которые трудно задать и контролировать в эксперименте.

Индивидуальное моделирование переносимых частиц трудновыполнимо и во многих случаях не является необходимым. Если обеспечены условия подобия состава твердых частиц, а также

$$K_y = idem \qquad (1)$$

$$f = idem \qquad (2)$$

или заведомо известно, что концентрация частиц мала и влияние условий (1), (2) несущественно, главные проблемы моделирования оказываются связанными с обеспечением подобия движения частиц в жидкости. Как видно из (1), движение твердой частицы определяется ее инерцией и силами, действующими на нее со стороны жидкости. Эти силы можно найти, полагая известной скорость частицы $V(x,t)$ и решая соответствующую краевую задачу для уравнений Навье - Стокса. Принципиальная трудность в постановке такой задачи состоит в необходимости учета реальной нестационарной и пространственной картины турбулентного потока, обтекающего частицу, влияния сложной формы частиц.

Пусть $U(x,t)$-есть мгновенное поле скорости, а $P(x,t)$- поле давления в «исходном» потоке без частиц. Введение в поток твердой частицы вызовет искажение поля скоростей и давлений соответственно на величины $u(x,t)$ и $p(x,t)$.Таким образом, поток, несущий частицу, задан уравнениями:

$$U_1 = U(x,t) + u(x,t);$$

$$P_1 = P(x,t) + p(x,t) \qquad (3)$$

Записав уравнения Навье-Стокса для исходного $U(x,t)$ и возмущенного $U_1(x,t)$ потоков и вычтя эти уравнения почленно одно из другого, получим уравнения относительно полей возмущений u и $p(x,t)$. В реальном русловом взвесенесущем потоке эти возмущения, вносимые частицами, обычно малы по сравнению с величинами исходного течения, и в получающихся уравнениях могут быть отброшены члены, нелинейные относительно $u(x,t)$и $p(x,t)$:

$$\frac{\partial u_\alpha}{\partial t} + U_\beta \frac{\partial u_\alpha}{\partial x_\beta} + u_\beta \frac{\partial U_\alpha}{\partial x_\beta} = -\frac{1}{\rho}\frac{\partial p}{\partial x_\alpha} + \nu\nabla u \qquad (4)$$

$$\frac{\partial u_\alpha}{\partial x_\alpha} = 0, \alpha, \beta = 1,2,3$$

Система (3) является обобщением известных уравнений Озеена. Краевые условия для (4) задаются на поверхности частицы:

$$u_\alpha = V_\alpha - U_\alpha \qquad (5)$$

и на большом удалении от частицы

$$u_\alpha = 0. \qquad (6)$$

Уравнения (4) решаются совместно с уравнением движения частицы (3), которое можно переписать, раскрыв значение интеграла в правой части:

$$m\frac{dV_\alpha}{dt} = -P_\alpha - T_\alpha + mg_\alpha \qquad (7)$$

где m - масса частицы, $m = \frac{\rho_s \pi d^3}{6}$; g_α - проекция ускорения свободного падения; P_α и T_α - проекции интегралов по поверхности частицы от нормальных давлений и касательных напряжений, вычисленных на основе решения уравнений (4).

Некоторые соображения о структуре сил можно высказать, и не решая системы (4) в полном виде.




Рис.1.Зависимость относительной гидравлической крупности частиц от их формы и Re_d

Поскольку в жидкости касательные напряжения возникают лишь при наличии градиентов скорости, можно полагать, что T_α пропорционально разности характерной скорости среды и частицы:

$$T_\alpha = C_\tau \rho \frac{u_\alpha |u|}{2} \frac{\pi d^2}{4} \qquad (8)$$

В отличие от T_α сила P_α, вызванная нормальным давлением, определяется не только скоростью относительного обтекания частицы u, но и полем давления, существовавшим в жидкости до введения частицы:

$$P_\alpha = \int_W grad_\alpha P dW + \int_\Omega p d\Omega_\alpha \qquad (9)$$

Первый интеграл в правой части (9) вычисляется по объему жидкости W, замещаемому частицей. Это выражение является обобщением известной «архимедовой силы» для условий движущейся жидкости.

Второй интеграл, вычисляемый по поверхности частицы, непосредственно учитывает нормальные давления, связанные с обтеканием частицы. Эта составляющая силы по аналогии с известными решениями о движении тела в

неподвижной жидкости также может быть представлена суммой двух компонент:

$$\int_{\Omega} p d\Omega_{\alpha} = P_{\alpha u} + P_{\alpha c} \qquad (10)$$

учитывающих влияние нестационарности движения (инерционности) $P_{\alpha u}$ и собственно силу сопротивления $P_{\alpha c}$:

$$\left.\begin{aligned} P_{\alpha u} &= C_m \rho \frac{\partial u_{\alpha}}{\partial t} \frac{\pi d^3}{6} \\ P_{\alpha c} &= C_p \rho \frac{u_{\alpha}|u|}{2} \frac{\pi d^2}{4} = C'_p \rho \frac{u_{\alpha} \nu}{d} \frac{\pi d^2}{4} \end{aligned}\right\} \qquad (11)$$

коэффициент сопротивления C_{τ} и C_p зависят от локального числа Рейнольдса $\mathrm{Re}'_d = |u| \frac{d}{\nu}$. Наиболее чувствителен к влиянию вязкости коэффициент C_{τ}, который с ростом числа Re быстро убывает. При малых числах Рейнольдса существенно зависит от Re'_d и коэффициент C_p. Например, согласно решению Озеена при $\mathrm{Re}'_d < 1$:

$$C_p \approx C_{\tau} = \frac{12}{\mathrm{Re}'_d}\left(1 + \frac{3}{16}\mathrm{Re}'_d\right) \qquad (12)$$




Рис.2.Зависимость w гидравлической крупность частиц кварцевого песка от приведенного диаметра d_k

В этих условиях мало изменяется коэффициенты C_{τ} и C_p. Коэффициенты существенно зависят от формы частиц. Форма частицы влияет даже на характер осаждения частиц в стоячей воды. Если центр тяжести и центр действия поверхностных сил частицы не совпадают, то падение частиц происходит по винтовой линии. Неудивительно, что даже малых числах Рейнольдса $\mathrm{Re}'_d < 10$ коэффициенты сопротивления частиц с разной формой могут отличатся в 2 раза [2,3,4,9]. При $\mathrm{Re}'_d \approx 10^3$ различие может быть в 5-10 раз. Суммарный коэффициент сопротивления $C_{\sum d} = C_p + C_{\tau}$ зависит от параметров нестационарного обтекания.

В [9] приведены ссылки, указывающие на противоречивость экспериментальных данных, касающихся влияния не стационарности. Отчасти это объясняется тем, что в экспериментальных работах силу сопротивления, действующую на частицу, обычно представляют в форме:

$$F_s = \Psi \Omega_s \frac{|U - V|}{2}(U - V) \qquad (13)$$

где U и V - векторы скорости соответственно жидкости и частицы; Ω_s - площадь поперечного сечения частицы.

В таком представлении нестационарные эффекты, связанные непосредственно с ускорением [первый член в правой части уравнения (10)], а в случаях резкой не стационарности и со сжимаемостью среды, не учитываются.

Их наличие вызывает существенное изменение Ψ, в том числе и под влиянием турбулентных пульсаций набегающего потока. При большой амплитуде пульсаций скорости коэффициент Ψ может быть в 3 раза больше стандартного значения. Учет реальной картины обтекания уменьшает разброс значений опытных констант, а в некоторых случаях (при простой форме поперечного сечения частицы) позволяет найти основную компоненту силы взаимодействия (параметр C_p) без введения опытных данных [1, 5,6].

Значения коэффициентов C_τ и C_p характеризующих сопротивление стационарному движению частицы в неподвижной жидкости, в целом понимается можнооценить одним параметром - гидравлической крупностью частицы w, под которой скорость равномерного осаждения частицы:

$$-V_2 = w = \sqrt{\frac{2}{3} gd\left(\frac{\rho_s}{\rho} - 1\right)\frac{1}{C_\Sigma}} \quad (14)$$

где

$$C_\Sigma = \frac{2C'}{\mathrm{Re}'_d}$$

Формула (14) непосредственно получается из уравнений (4) - (10) при:

$U_\alpha = 0; \frac{\partial u_\alpha}{\partial t} = 0; gradP = \frac{\partial P}{\partial x_2} = -\rho g$.

Зависимость (23)часто представляется в следующем виде:

$w = \varphi(\mathrm{Re}_d, форма частиц)\sqrt{g\rho^+ d}$ (15)

где $\rho^+ = \frac{\rho_s}{\rho - 1}$; $\mathrm{Re}_d = \frac{1}{\nu}\sqrt{g\rho^+ d}$. В качестве характеристики формы частицы в [12] предложена величина $\theta = \frac{d^2}{(l_s, b_s)}$ где l_s и b_s - длина и ширина частицы). На рис.1. показана полученная обработкой данных [7,10] зависимость $\varphi = \frac{w}{\sqrt{g\rho^+ d}}$ от Re_d и θ, а на рис.2. зависимость w кварцевых частиц ($\theta \approx 0{,}7$) в воде при 15 °С от приведенного диаметра d *и* этих частиц.

В реальном турбулентном потоке структура сил P_α и T_α может быть принята аналогичной (8)- (11). Дополнительная сложность здесь связана с явлением осреднения пульсирующего давления по поверхности частицы, искажением высокочастотной части спектра турбулентности потока, зависимостью коэффициентов C_p и C_τ от структуры пульсаций относительной скорости и, влиянием градиента скорости $\frac{\partial U_\alpha}{\partial x_\beta}$ [8,9,11].

Влияние этих факторов невелико, и воздействие на частицу можно рассчитывать по схеме ее нестационарного движения в колеблющейся безграничной жидкости со скоростью $u = V - U$, если для исходного течения выполняются следующие оценки:

$$\left.\begin{array}{l} \dfrac{Ud}{\nu} \prec\prec 4; \left|\dfrac{\partial U_\alpha}{\partial x_\beta}\right| \dfrac{d^2}{\nu} \prec\prec 24; \dfrac{d}{\lambda} \prec\prec 1 \\ \left|\left(\dfrac{1}{\rho_s + \dfrac{1}{2}\rho} + \dfrac{1}{\dfrac{3}{2}\rho}\right) gradP\right| < \dfrac{U'}{\lambda_t} \end{array}\right\} \qquad (16)$$

Здесь λ и λ_t — пространственный и временной тэйлоровские масштабы турбулентности:

$$\lambda = \frac{U'_\beta}{\left(\dfrac{\partial U_\beta}{\partial x_\alpha}\right)'}, \quad \lambda_t = \frac{U'_\beta}{\left(\dfrac{\partial U_\beta}{\partial t}\right)'}$$

Штрих (') у переменных означает вычисление средне квадратичного значения. Оценки (16) редко выполняются в реальных потоках. [1]. Однако если в первом приближении пренебречь этим об стоятельством, то условия подобия движения частицы можно записать в следующем виде:

из соотношения сил инерции и сопротивлений:

$$\pi_1 = \frac{m\left(1 + \dfrac{\rho}{\rho_s} C_m\right) U'_0 u_0}{C' \rho \dfrac{u_0 \nu}{d} \dfrac{\pi d^2}{4} d} = C'_0 \operatorname{Re}''_d = C'_0 \frac{U_0}{u_0} = idem \qquad (17)$$

из соотношения сил инерции и тяжести:

$$\pi_2 = \frac{m\left(1 + \dfrac{\rho}{\rho_s} C_m\right) U'_0 u_0}{mgd} = C'_1 \frac{U_0}{w} \frac{u_0}{w} = C''_1 \frac{u_0}{w} \operatorname{Re}''_d = idem \qquad (18)$$

из соотношения внешних сил (тяжести и градиента давления):

$$\pi_3 = \frac{w|gradP|}{mgd} = \frac{|gradP|}{\rho_s g} = \frac{\rho U_0^2}{\rho_s g l} = idem \qquad (19)$$

Здесь:

$$\left.\begin{array}{l} C'_0 = \dfrac{2}{3}\left(\dfrac{\rho_s}{\rho} + C_m\right)\dfrac{1}{C'}; C_0 = \dfrac{2}{3}\left(\dfrac{\rho_s}{\rho} + C_m\right)\dfrac{1}{C}; \\ C_1 = \dfrac{2}{3}\dfrac{1}{C}\left(\dfrac{\rho_s}{\rho} + C_m - 1 - \dfrac{\rho}{\rho_s} C_m\right) \\ C'_1 = \dfrac{1}{3}\dfrac{1}{C'}\left(\dfrac{\rho_s}{\rho} + C_m - 1 - \dfrac{\rho}{\rho_s} C_m\right) \\ \operatorname{Re}''_d = \dfrac{u_0 d}{\nu} \end{array}\right\} \qquad (20)$$

Коэффициенты C_0', C', C_1' мало изменяются при малых числах Рейнольдса ($\frac{\Delta C'}{C'} < 0{,}1$ при $\mathrm{Re}_d' < 10$; коэффициенты C_0, C, C_1 мало изменяются при больших числах Рейнольдса ($\frac{\Delta C}{C} < 0{,}1$ при $\mathrm{Re}_d' > 200 \Leftrightarrow 1000$)*..

Вывод. Если в первом приближении пренебречь малыми коэффициентами, то условия подобия движения частицы можно записать в виде (20). Из соотношения сил инерции и сопротивлений:

Список использованной литературы

1. Знаменская Н.С. Донные наносы и русловые процессы. Л.: Гидрометеоиздат, 1976.

2. Лятхер В. М. Прогноз гидравлического режима рек и водохранилищ. - Водные ресурсы, 1982, № 6. .

3. Ричардсон Э. Динамика реальных жидкостей. М.: Мир, 1965.

4. Фидман Б.А., Лятхер В.М. Исследование турбулентности методом фотокиносъемки. - В кн.: Динамика и термика речных потоков. М.: Наука, 1972.

5. Шрайбер А.А., Милютин В.Н., Яценко В.П. Гидромеханика двухкомпонентных потоков с твердым полидисперсным веществом. Киев: Наукова думка.1980.

6. Абдуллаев Б.Х., Худайкулов С.И., Саттаров С.М. "Движение потока с переменным расходом вдоль пути в закрытом наклонном трубопроводе" Scientific-technicaljournal (STJFerPI, ФарПИИТЖ, НТЖФерПИ, 2020, Т.24, №4) С.36-41.

7. Бегимов,У.И. Усмонова,Н.А. ЯкубоваХ.М., Худайкулов С.И. «Моделирование ударного импульса в водовыпускном трубопроводе»каркидонского водохранилища. Журнал «Проблемы механики». – Ташкент, 2020. - №4. – С.45-48.

8. Begimov U. I., Khudaykulov S.I., Narmanov O. A. «Formations of Ventilated Caves and Their Influence on the Safety of Engineering Structures» International Journal of Academic Information Systems Research (IJAISR) ISSN: 2643-9026 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 105-109. 1,05импактфактор.Impact Factor.

9. N.A. Usmonova, Prof. S.I. Khudaykulov. Spatial caverns in flows with their perturbations impact on the safety of the karkidon reservoir. 3rd Global Congress on Contemporary Science and Advancements Hosted From New York USA www.econferenceglobe.com. TECHMIND-2021, 126-130.

TEXNIKA YO’NALISHIDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARI

O‘rinov Shuhrat Suyunovich, Qulboyev Zohid Xo’jamuradovich -
Jizzax politexnika instituti o’qituvchilari
E-mail: qulboyevzohid35@gmail.com

Bugungi kunda mustaqil O’zbekiston yoshlarining kamolotga intilish, ma’naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg’ularini o’stirishda ulkan tadbirlar olib borilmoqda. O’zbek xalqining o’tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo’lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an’analarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an’ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o’rin tutadi.

Istiqlol sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma’naviy meros, unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o‘zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy an’ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o‘qituvchi-ustoz faoliyati bo‘lajak texnik-muhandis kadrlarni tayyorlashda nafaqat ta’lim berilayotgan fan asoslari yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki talabalarni auditoriyadan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish,ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish,ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy xislatlarni yuksaltirish hamda kasbga yo‘naltirishda “ustoz-shogird” an’analaridan foydalanish extiyojga aylanib bormoqda.[1]

Ustoz-shogird an'analari turmush talabidan tarixiy zaruratdan kelib chiqqan. Ustoz-shogird an'analari bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar almashinishiga qaramay uzoq zamonlardan bizga mavjuddir. Bu an’ana davr talabi bilan yangi sharoitda yangicha usullar orqali amalga oshirilsada, biroq maqsad barcha davrda ham bir xil bo'lib, yosh avlodni tizimli kamolotga yetkazishdir. Shuning uchun ham bizga azaldan ustozga aziz inson sifatida qaralgan. Butun mashriq zaminda ustoz-shogirdlik an'anasi chuqur hurmat, izzat-ikrom va o'zgacha oliy maqom qadriyatlar shohsupasining eng to'ridan joy olgan. Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so'zlari aynan ishlatilmasada, ularning burch va vazifalari aks etgan. Ustoz-shogird an'analari-yoshlarda kasbiy mahoratini tarbiyalashi, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishi, izlanishi, o'z ustida mehnat qilishi, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi[2].

Ma’lumki, texnika yo’nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi muhandislar kasb malakasining oshishida ustoz-shogird an’analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi.Tez sur’atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta’lim jarayonining qirralari mukammallashib bormoqda

Ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarning keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e’tibor qaratilmoqda.Ustoz-shogirdlik an’analaridan o‘rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda.Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o‘z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e’tibor har qachongiga nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o‘zgarishi borasida to‘plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an’analarini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishga asos bo‘ladigan yangi ta’lim tizimining tashkil etilishidir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi 2020 -yil 23- sentabrdagi 637-sonli qonunini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste‘dod» jamg’armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017-yil 27-iyulda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5121-son Farmoni.

2. Sayidaxmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –Toshkent.: -Fan va texnologiya, 2014.

3. Mahmudov, Z.S., & Najmiddinov, I.B. (2023). Milliy an’analarga asoslangan “ustoz-shogird” tizimidan foydalanish. iqro, 2(2), 330-334.

4. “Pedagogik mahorat” nazariy, ilmiy, metodik jurnal 3-4-son

5. Qulboyev, Z. (2021). Olamni o’rganishda va texnikaning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9), 366-369.

6. Kh, K. Z. (2022). COMPUTER OF SECTION OF SOLID PHYSICS TEACHING TECHNIQUES USING TECHNOLOGIES. Экономика и социум, (6-1 (97)), 153-156.

7. Qulboyev, Z.X. (2022). O‘quvchilarga ta’lim berishda fundamental fanning o‘rni va ahamiyati. Экономика и социум, (6-1 (97)), 223-226.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH YORDAMIDA YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKNING TARQALISHINI TADQIQ QILISH

Eshdavlatova S.E. – Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti;
Raufov H.R. – Toshkent Davlat Transport Universiteti o'qituvchisi;
Matyoqubova N.X. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti;

Bizning jamiyatimiz bugungi kunda ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda va yoshlar orasida jinoyatchilik ular orasida eng katta muammolardan biridir. Qurolli talonchilik, zo'rlash, qotillik, terrorizm, o'g'irlik, diniy ekstremizm va hokazo kabi qo'pol qonun buzilishi, jinoyatchilar deb nomlanuvchi kam sonli shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jinoyat harakatidir. Chunki ko'p sabablarga ko'ra, butun dunyo bo'ylab doimiy ortib bormoqda. Umumiy aholining jinoiy bo'lmagan va jinoiy faol aholining o'zaro ta'siri jinoyatchilikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, jinoiy faoliyat ishsizlik, tengsizlik va to'lovlar kabi ko'plab holatlarga ta'sir qilib kelmoqda. Doimiy ravishda jinoyat bilan bog'liq bo'lgan ishtirok – bu jazo. Qamoq yoki reabilitatsiya markazlariga yuborish kabi jazolar jinoyatchilarni jinoyat sodir etishni kamaytiradi. Inson xulq-atvori tabiatan oldindan aytish qiyin emas, shunga ko'ra, jinoyat va jinoiy xulq, ham mos ravishda bir chiziqli bo'lmagan tizimi tomonidan sodir etilishi mumkin. Jinoyat uchun eng yaxshi tavsiflangan model bu ijtimoiy yuqumli kasallik modelidir.

Oddiy differensial tenglamalar yordamida jinoyatchilik uchun matematik model shakllantirish va yuqorida keltirilgan bo'lib, so'nggi bir necha yil davomida tahlil qilindi. Bu yerda ishlatiladigan bir xil sezgir infektsiyalangan tiklanish (SIR) modeli [1-5] kabi ko'plab ijtimoiy muammolarni o'rganish uchun ishlatilgan.

Umumiy aholini quyidagilarga bo'lish orqali chiziqli bo'lmagan model taklif qilingan:

(i) sezgir bo'lmagan aholi ya'ni jinoyatchilikdan xabarsiz;

(ii) sezgir aholi ya'ni jinoyatchilikning zararlaridan xabardor;


(iii) jinoiy aholi ya'ni jinoyatchilik bn shug'ullangan

(iv) qamoqdagi aholi ya'ni jinoyatchilik qilish orqali qamalgan.

Matematik modelning tadqiq qilish jarayonida quyidagi ishlarni ko'rib chiqamiz: farazlar orqali matematik modelni qurish, turli xil muvozanat holatlarni aniqlash, turg'unlikni tahlil qilish.

Matematik model umumiy aholisi (T) bo'lgan mintaqani hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va u turmush tarziga qarab farq qiladigan to'rt toifaga (N, S, C va J)

bo'lingan[6-9]. N jinoiy hayotga qiziqishi bo'lmagan shaxslarni ifodalaydi, S jinoiy harakatlarni qilishga moyilligi bor bo'lgan shaxslar ya'ni shunday shaxslarki shu kungacha jinoyatlarni davom ettirmaganlar, ammo jinoiy faoliyatga nisbatan zaif, C ko'plab noqonuniy faoliyatlarda faol bo'lgan faol jinoyatchilarni anglatadi. J asosan sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo sifatida qamoqxonalarda yashovchi jinoyatchilar bo'lgan mahbuslarni bildiradi.



1-rasm: Jinoyatchilik dinamikasining sxematik diagrammasi

Jinoyatchilikni modellashtirishda ko'rib chiqiladigan parametrlar 1-rasmda ko'rsatilgan va keyingi chiziqli bo'lmagan differentsial tenglamalar tizimi orqali aniqlangan:

$$\begin{aligned}
\frac{dN}{dt} &= A - \frac{\beta_1 NS}{T} + \alpha S - \frac{(1-\beta_1)NC}{T} + \gamma C + \theta \nu J - dN \\
\frac{dS}{dt} &= \frac{\beta_1 NS}{T} - \frac{\beta_2 SC}{T} + \delta C - (\alpha + d)S \\
\frac{dC}{dt} &= \frac{\beta_2 SC}{T} + \frac{(1-\beta_1)NC}{T} + (1-\theta)\nu J - (\xi + \gamma + \delta + m + d)C \\
\frac{dJ}{dt} &= \xi C - (\nu + d)J
\end{aligned} \qquad (1)$$

Va quyidagi boshlang'ich shartlar bilan.

$$\begin{aligned}
&N(0) = N_0 \geq 0 \\
&S(0) = S_0 \geq 0 \qquad (2) \\
&C(0) = C_0 \geq 0 \\
&J(0) = J_0 \geq 0
\end{aligned}$$

β_1 - bu jinoyatchilikdan holi shaxslarni jinoyatchilik qilishga moyilligi bor bo'lgan shaxslarga aylantirish tezligi,

α - bu jinoyatchilik qilishga moyilligi bor shaxslar jinoyatchilikka aralashuv/oldini olish parametri,

β_2 - bu jinoyatchiga moyil bo'lgan shaxslar darajasi,

δ - bu jinoiy faoliyatni tark etishgan va maslahat yoki o'z qarori bilan sezgir sinfga qaytishga qaror qilgan shaxslarni anglatadi.

ξ - bu jinoyatchilarning jinoiy faoliyatni tark etishi va maslahat yoki o'z qarori bilan sezgir bo'lmagan sinfga qaytish darajasi

$(1-\beta_1)$- sezilmaydigan shaxslarning jinoyatchilar bilan aloqa qilish va jinoyatchilarga aylanish darajasi.

$(1-\theta)$- teskari siljish tezligi.

$\frac{1}{v}$- qamoqxonaning o'rtacha davomiyligini beradi.

A - muhojirlar soni,

μ - tabiiy o'lim darajasi va

m - jinoyat bilan bog'liq o'lim darajasi.

Yechimning musbatligi va chegaralanganligi. Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida modelni tadqiq qilamiz: Yechimning mavjudligini quyidagi teorema orqali keltiramiz:

Teorema1. Aytaylik, $D=\left\{(N,S,C,J)\in R_+^4 : N(0)>0, S(0)>0, C(0)>0, J(0)>0\right\}$, berilgan bo'lib, barcha $t\geq 0$ uchun musbat va chegaralangan bo'lsa, u holda (1) sistema yechimga ega bo'ladi.

Isbot. Isbotni ikki bosqichda amalga oshiramiz: birinchi modelning musbat ekanligini ko'rsatamiz, ikkinchidan modelning chegaralanganligini ko'rsatamiz.

Matematik jihatdan ma'noga ega bo'lishi uchun yechimlar musbat va chegaralanganligi muhimdir [10,11]. Yuqoridagi (1) tenglama sistemasidagi N(t), S(t), C(t) va J(t) larning har birini musbatligini tekshiramiz:

$$\frac{dN}{dt}\geq -\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}+\mu\right)N$$

Bu tengsizlikni ikkala tomonidan 0 dan t gacha integrallasak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int_0^t \frac{dN}{dt}\geq -\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}+\mu\right)N$$

$$\int_0^t \frac{dN}{N(t)}\geq -\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}+\mu\right)dt$$

$$\ln N(t)\Big|_0^t \geq -\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}+\mu\right)dt$$

$$\ln N(t)-\ln N(0)\geq -\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}+\mu\right)dt$$

$$\ln N(t)-\ln N(0)\geq -\int_0^t \mu dt-\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}\right)dt$$

$$\frac{N(t)}{N(0)}\geq e^{-\mu t-\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}\right)dt}$$

$$N(t) \geq N(0)e^{-\mu t-\int_0^t\left(\frac{\beta_1 S}{T}+\frac{(1-\beta_1)C}{T}\right)dt} \qquad (2)$$

Xuddi shu tartibda qolgan sinflarga, ham qo'llab, integrallab va soddalashtirib musbat ekanligini ko'rishimiz mumkin

Endi model sistemamiz yechimining chegaralanganligini tekshirish uchun model tenglamalarini qo'shib, quyidagini ega bo'lamiz:

$$\frac{dT}{dt}=\frac{dN}{dt}+\frac{dS}{dt}+\frac{dC}{dt}+\frac{dJ}{dt}=$$
$$=A-\frac{\beta_1 NS}{T}+\alpha S-\frac{(1-\beta_1)NC}{T}+\gamma C+\theta\nu J-dN+\frac{\beta_1 NS}{T}-\frac{\beta_2 SC}{T}+\delta C-(\alpha+d)S+$$
$$+\frac{\beta_2 SC}{T}+\frac{(1-\beta_1)NC}{T}+(1-\theta)\nu J-(\xi+\gamma+\delta+m+d)C+\xi C-(\nu+d)J=$$
$$=A-(dT+mC)$$

Bu yerda, $T=N+S+C+J+T$

Bu yechimlar shuni ko'rsatadiki, (1) model sistemasining ω soha chegaralangan, teorema to'liq isbot bo'ldi.

$$D=\left\{(N,S,C,J)\in R_+^4 : N(0)>0, S(0)>0, C(0)>0, J(0)>0\right\}$$

Jinoyatdan holi muvozanat nuqta (CFE). (Crime Free Equilibrium) ga ega bo'lishimiz uchun, (1) differensial tenglamalar sistemasining o'ng tomonini nolga tenglashtirib olamiz, shu holatda biz jinoyatdan holi bo'lgan muvozanat holatga erishamiz [6]. Shunday qilib, $N\neq 0, S=C=J=0$.

$$\begin{aligned}
&A-\frac{\beta_1 NS}{T}+\alpha S-\frac{(1-\beta_1)NC}{T}+\gamma C+\theta\nu J-dN=0\\
&\frac{\beta_1 NS}{T}-\frac{\beta_2 SC}{T}+\delta C-(\alpha+d)S=0\\
&\frac{\beta_2 SC}{T}+\frac{(1-\beta_1)NC}{T}+(1-\theta)\nu J-(\xi+\gamma+\delta+m+d)C=0\\
&\xi C-(\nu+d)J=0
\end{aligned} \qquad (3)$$

Tenglamalarni yechib, $N\neq 0, S=C=J=0$ ni hisobga olib, jinoyatdan holi bo'lgan muvozanat holatni topamiz va E_0 bilan belgilaymiz:

$$E_0=\{N,S,C,J\}=\left(\frac{A}{\mu},0,0,0\right) \qquad (4)$$

$$E_1=\{N,S,C,J\}=\left(\left(\frac{\alpha+\mu}{\beta_1}\right)\frac{A}{\mu},\left(1-\frac{\alpha+\mu}{\beta_1}\right)\frac{A}{\mu},0,0\right) \qquad (5)$$

Talaba yoshlarning o'rtasida jinoyatning tarqalishini tahlil qilish uchun chiziqli bo'lmagan model taklif qilingan, shuningdek, turg'unlik tahlili o'tkazilgan. Oddiy holatlarda jinoyatchilik yuqumli kasallikning tarqalishi sifatida modellashtiriladi. Bu yerda modellashtirish umumiy populyatsiyani sezgir bo'lmagan (N), sezgir(S), jinoiy(C) va qamoq(J)dagi populyatsiyalarga bo'lish orqali amalga oshiriladi va ular orasidagi bog'liqlik bir vaqtning o'zida oddiy chiziqli bo'lmagan differentsial tenglamalar bilan beriladi. Ularning o'zaro ta'siri muhim rol o'ynaydi Jinoiy faoliyatni bartaraf etish uchun R_0 chegara parametri keyingi avlod matritsasi yondashuvi

yordamida hisoblangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, qachon $R_0 < 1$, jinoiy faoliyat yo'qoladi, teskari bo'lganda esa $R_0 > 1$ jamiyatdagi talaba yoshlar o'rtasidagi jinoiy faoliyatning saqlanib qolishini ko'rsatadi. Shuningdek, α - bu jinoyatchilik qilishga moyilligi bor bo'lgan talabalar jinoyatchilikka aralashuv/oldini olish parametri va β_1 - bu jinoyatchilikdan holi talaba yoshlarni jinoyatchilik qilishga moyilligi bor bo'lgan shaxslarga aylantirish tezligi parametrlarining samaradorligini oshirish muhimdir [12,13].

Bu soha hali ko'plab muhokamalarga ega bo'lganligi sababli, ko'p javobsiz savollarga ega va xorijlik olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borishda davom etishmoqda, shunga qaramay, kelajakda bu sohada keyingi tadqiqotlar uchun muhim imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati

1. W.O.Kermack, A.G.McKendrick, Proceedings of the Royal Society of London. Series A, Containing Papers of a Mathematical and Physical Character, Vol. 115, No. 772. (Aug. 1, 1927), pp. 700-721.
2. O. Danford, M. Kimathi, and S. Mirau "Mathematical modelling and analysis of corruption dynamics with control measures in Tanzania" *Journal of Mathematics and Informatics*, September 2020, Vol 19, pp 57-79.
3. S. Abdulrahman, Stability analysis of the transmission dynamics and control of corruption, *Pacific Journal of Science and Technology,* 15(1) (2014) 99–113. [1]
4. S. Athithan, M. Ghosh and X. Z. Li, Mathematical modeling and optimal control of corruption dynamics, *Asian-European Journal of Mathematics,* 11(6) (2018) 41-93.
5. S. R. Waykar "Mathematical modelling: A Comparatively Mathematical Study Model Base between Corruption and Development" article in IOSR Journal of mathematics. January 2013, Volume 6, Issue 2, pp 54-62.
6. H. T. Alemneh "Mathematical Modeling, Analysis, and Optimal Control of Corruption Dynamics" August 2020, Volume 2020, Article ID 5109841, 13 pages.
7. M. A. Mikucki "Sensitivity analysis of the basic reproduction number and other quantities for infectious disease models" // Thesis Colorado State University Fort Collins, Colorado Spring 2012. 109 pages.
8. Omar, F. M., Sohaly, M A, El-Metwally, H.. Lyapunov functions and global stability analysis for epidemic model with n-infectious, Indian Journal of Physics, 2023, pp. 1-10, DOI: 10.1007/s12648-023-02895-6
9. H. S. Rodrigues, T. T. Monteiro and F. M. Torres "Sensitivity Analysis in a Dengue Epidemiological Model" Hindawi Publishing Corporation Conference Papers in Mathematics Volume 2013, Article ID 721406, 7 pages.
10. Jabborov N.M., Eshdavlatova S.E. Korrupsiyani matematik modellashtirish va dinamikasini nazorat choralari orqali tahlil qilish. O'zMU xabarlari. 2023 1/1. 13-20.
11. Jabborov N.M., Eshdavlatova S.E., To'ychiyev S.G'. O'zbekistonda sharoitida poraxo'rlikni oldini olishning matematik model asosidagi tahlili. «Amaliy matematika, matematik modellashtirish va informatikaning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy konferensiya ma'ruzalar to'plami (24-25 may). 186-188.
12. A.K. Misra, Modeling the effect of police deterrence on the prevalence of crime in the society, Appl. Math. Comput. 237 (2014), 531-545.
13. M.B. Gordon, A random walk in the literature on criminality: a partial and critical view on some statistical analyses and modelling approaches. Eur. J. Appl. Math. 21 (2010), 283-306.

TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Ergashev Sanjar Toshtemir o‘g‘li - Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali, Umumiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola texnik tizimlarning ishlashini shakllantirish va oshirishda axborot texnologiyalarining (IT) ajralmas rolini o‘rganadi. U ma'lumotlarni boshqarish, aloqa, avtomatlashtirish, monitoring, xavfsizlik va innovatsiyalar kabi turli jihatlarni o‘rganadi va AT yechimlari zamonaviy texnik tizimlarning samaradorligi, ishonchliligi va moslashuvchanligiga qanday hissa qo‘shishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari (IT), Ma’lumotlarni boshqarish, Aloqa va ulanish, Avtomatlashtirish va boshqarish, Monitoring va tahlil, Simulyatsiya va modellashtirish, Inson va mashinaning o‘zaro ta’siri, Texnik xizmat ko‘rsatish va masofaviy qo‘llab-quvvatlash, Innovatsiya va moslashuvchanlik.

Axborotlar ustida kerakli amallarni bajarish borasida tashkil qilingan jarayon axborot texnologiyasi deb ataladi. Axborot texnologiyasi- axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar majmuidir. Har doim rivojlanib borayotgan texnologiya landshaftida axborot texnologiyalari (IT) texnik tizimlarning asosi bo‘lib, ularni loyihalash, amalga oshirish va davom ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Ma'lumotlarni qayta ishlashdan avtomatlashtirishgacha, aloqa xavfsizligiga qadar IT tarmoqlar bo‘ylab turli texnik tizimlarning uzluksiz ishlashi uchun ajralmas hisoblanadi. Ushbu maqola texnik tizimlarni shakllantirish va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining ko‘p qirrali rolini o‘rganadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish: Texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining asosiy jihatlaridan biri uning katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish qobiliyatidir. Texnik tizimlar ko‘p ma'lumotlarni yaratadi va ularga tayanadi va IT tizimlari, jumladan, murakkab ma'lumotlar bazalari bu ma'lumotlarni samarali tashkil qiladi, saqlaydi va oladi. Ma'lumotlarning uzluksiz oqimi va mavjudligi ongli qarorlar qabul qilish va tizimning optimal ishlashi uchun juda muhimdir.

1. Aloqa va ulanish: Axborot texnologiyalari texnik tizimlar ichida mustahkam aloqa va ulanishni osonlashtiradi. Tarmoq texnologiyalari turli komponentlar va quyi tizimlar o‘rtasida uzluksiz ma'lumotlar almashinuvini ta’minlaydi. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik real vaqt rejimida aloqa va o‘zgaruvchan sharoitlarga tezkor javob berishni ta'minlash orqali hamkorlikni, muvofiqlashtirishni va texnik tizimlarning umumiy samaradorligini oshiradi.

Vosita (ulanish usuli):
a) mis (med) kabel:
1) simmetrik - parali kabellar;
2) koaksial;



b) Optik kabel:
1)bir modali – magistralda ishlatiladi;
2)ko'p modali – lokal tarmoqda ishlatiladi;



c) Simsiz aloqa (wi-fi, bluetooth va h.k);



1-rasm. Aloqa va ulanish vositalari.


2. Avtomatlashtirish va boshqarish: Avtomatlashtirish zamonaviy texnik tizimlarning o'ziga xos belgisi bo'lib, IT bu transformatsiyaning boshida turadi. AT yechimlari texnik tizimlar ichidagi turli jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa aniqlik, ishonchlilik va samaradorlikni oshirishga olib keladi. Ko'pincha IT tomonidan quvvatlanadigan boshqaruv tizimlari optimal ishlashni ta'minlash va o'zgaruvchan talablarga dinamik javob berish uchun parametrlarni tartibga soladi va boshqaradi.



2-rasm. Avtomatlashtirish jarayoni.

3. Monitoring va tahlil: Texnik tizimlarning samarali ishlashi uchun real vaqtda monitoring muhim ahamiyatga ega, axborot texnologiyalari esa har tomonlama nazorat qilish vositalarini taqdim etadi. Ilg'or tahlillar bilan integratsiyalashgan kuzatuv

tizimlari amaliy tushunchalarni yaratish uchun ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Bu prognozli texnik xizmat ko‘rsatish, muammolarni aniqlash va ishlashni optimallashtirish imkonini beradi va tizim ishonchliligini oshirishga yordam beradi.



3-rasm. Korporativ tarmoqni tahlil qilish va kuzatish (monitoring qilish) | TN-Service

4. Simulyatsiya va modellashtirish: Texnik tizimlarni jismoniy amalga oshirishdan oldin IT simulyatsiya va modellashtirish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Muhandislar virtual muhitda tizimlarni sinab ko‘rishlari va tahlil qilishlari, potentsial muammolarni aniqlashlari va dizaynlarni optimallashtirishlari mumkin. Ushbu proaktiv yondashuv nafaqat nosozliklar xavfini kamaytiradi, balki texnik tizimlarni ishlab chiqish va takomillashtirishni tezlashtiradi.

5. Xavfsizlik va xavfsizlik: Kiberxavfsizlik tahdidlari hamma joyda mavjud bo‘lgan davrda IT texnik tizimlarning xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. AT yechimlari tizimlarni ruxsatsiz kirish, ma’lumotlar buzilishi va kiber tahdidlardan himoya qiluvchi mustahkam xavfsizlik protokollarini ishlab chiqishga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, AT choralari bilan birlashtirilgan xavfsizlik tizimlari xodimlarning farovonligini va aktivlarning saqlanishini ta'minlaydi.

6. Inson va mashinaning o‘zaro ta'siri: AT tomonidan osonlashtirilgan foydalanuvchi interfeyslari va o‘zaro ta'sir dizayni texnik tizimlarning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Inson-mashina interfeyslari (HMI) operatorlar va mashinalar o‘rtasida intuitiv aloqani ta'minlaydi, samarali nazorat va monitoringni ta'minlaydi. IT-

interfeyslarining foydalanuvchilarga qulayligi umumiy tizimdan foydalanish qulayligi va samaradorligini oshiradi.

7. Texnik xizmat ko‘rsatish va masofaviy qo‘llab-quvvatlash: IT-tahlil yordamida amalga oshirilgan bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish uskunaning mumkin bo‘lgan nosozliklarini ular paydo bo‘lishidan oldin aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, IT masofaviy monitoring va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini qo‘llab-quvvatlaydi, bu texniklarga jismoniy mavjud bo‘lmasdan muammolarni tashxislash va hal qilish imkonini beradi. Bu ishlamay qolish vaqtini qisqartiradi, samaradorlikni oshiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

8. Innovatsiya va moslashuvchanlik: AT texnik tizimlarning innovatsiyalari va moslashuviga katta hissa qo‘shadi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan IT texnik tizimlarga eng so‘nggi yutuqlarni uzluksiz o‘z ichiga olgan holda dolzarb bo‘lib qolishiga imkon beradi. IT sohasidagi uzluksiz innovatsiyalar texnik tizimlar vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi va takomillashishi, o‘zgaruvchan talablar va texnologik landshaftlarga moslashishi mumkin bo‘lgan muhitni rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining roli keng va o‘zgaruvchandir. Ma’lumotlarni boshqarishdan tortib jarayonlarni avtomatlashtirishgacha, xavfsizlikni ta’minlashdan innovatsiyalarni ta’minlashgacha bo‘lgan davrda AT zamonaviy texnik tizimlar samaradorligi va samaradorligini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Texnologik taraqqiyotning guvohi bo‘lishda davom etar ekanmiz, axborot texnologiyalari va texnik tizimlar o‘rtasidagi simbiotik munosabatlar sanoat va jamiyatlarning kelajagini shakllantiradigan taraqqiyotning birinchi qatorida qoladi. Axborot texnologiyalari ma’lumotlarni samarali boshqarish, aloqa, avtomatlashtirish, monitoring va operatsiyalarni umumiy optimallashtirish uchun zarur vositalar va infratuzilmani ta’minlovchi texnik tizimlarning asosi hisoblanadi. AT integratsiyasi turli sohalarda texnik tizimlarning ishonchliligi, xavfsizligi va moslashuvchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov S. S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv .yurti talabalari uchun darslik T.: "Shark", 2000.

2. Белов В.А. Разработка устройств на микроконтроллерах AVR: шагаем от "чайника" до профи. Книга. - СПб: Наука и техника, 2013.

3. Кучинский В.Ф., Спирина Т.П. Теоретические основы экономической информатики: учеб. пособие. – СПб: НИУ ИТМО, 2014.

4. Tovboyev I.I. “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv qo‘llanma. Jizzax-2022.

5. S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. – T.:“Fan va texnologiya”, 2017.

2-SHO'BA.
TA'LIM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASIYALAR

РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЎЗИНИ-ЎЗИ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯЛАРИ

Бердалиева Гуласал Абдукундузовна - (PhD), доцент, Қ.Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ мустақил тадқиқотчиси

Бугунги кунда юқори малакали кадрларни тайёрлаш, инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш шунингдек, умумий ўрта таълим тизимида замонавий фикрлайдиган, инновацияларни қўллаб қувватловчи, рақобат ўсиб бораётган таълим хизматлари бозорида табақалашган таълим дастурларини таклиф эта оладиган мактаб ўқитувчиларига эҳтиёжни оширмоқда. Шу нуқтаи-назардан умумий ўрта таълим тизими ўқитувчилари узлуксиз касбий тайёргарлигини ривожлантиришнинг педагогик стратегиясини ишлаб чиқишнинг мазмуни, талаблари ва йўналишларини методологик ёндашувлар ва умумдидактик тамойиллар асосида такомиллаштириш долзарб ҳисобланади.

Узлуксиз касбий ривожланиш узлуксиз таълимнинг таркибий қисми ва тегишли равишда катталар таълими жараёни ҳисобланар экан, унинг мақсади илгари эгалланган касбий билимларни янгилаш ва чуқурлаштириш, касбий фаолият билан боғлиқ бўлган таълимий эҳтиёжларни қондиришдан иборат.

Илм-фан, техника, ишлаб чиқариш ва технология соҳаларининг рақамли технологиялар асосида шиддат билан ривожланиши замонавий жамиятда рақамли таълим муҳитини шакллантириш талабларини белгилаб бермоқда. Бу ўз навбатида рақамли таълим муҳитида мустақил ҳаракатланиш имкониятига эга, ўз соҳасининг билимдони бўлган, профессионал малакаларни юқори даражада эгаллай олган, рақамли технологияларидан фойдаланиш маҳоратига эга, ахборотларнинг шиддатли оқими билан ишлашда ахборот хавфсизлигини таъминлай олиш қобилиятларига ҳамда юқори даражали касбий компетентликка эга кадрларга эҳтиёж туғдирмоқда. Шундай экан, умумтаълим мактаблари ўқитувчиларини узлуксиз касбий ривожланиш жараёнида даврнинг мазкур талабини инобатга олиш мақсадга мувофиқдир[1].

Рақамли технологик ёндашувнинг методологлари ахборот тушунчалари мавжуд талқинларининг объектив асосларини тан ола туриб, шу вақтнинг ўзида

уларнинг нисбатан ҳақиқийлиги тўғрисида фикр билдирадилар. Ягона талқин қилишнинг мураккаблиги "классик" фаннинг атамалари орқали "ноклассик" феноменни унинг ўзига мос равишда акс эттиришнинг мумкин эмаслиги; ахборотли жараённи тушунишда унинг алоҳида қисмлари, мураккаблик даражалари ва бошқалар нуқтаи назаридан қамраб олмайдиган ўта тор эмпирик асосдан фойдаланиш билан тушунтирилади.

Фалсафий адабиётларда рақамли таълим муҳити тўғрисидаги тасаввурлар атрибутив (томонли) ёки функционал-кибернетик (кўринишли) ёндашувга асосланадилар. Биринчи нуқтаи назар рақамлашган ахборотни ҳаракатланаётган материянинг хоссаси, объектив реалликнинг хоссаси сифатида талқин қилади[2].

Иккинчи нуқтаи назар рақамлашган ахборотни мустақил бошқариладиган, мустақил ташкил қилинадиган тизимларнинг хоссаси сифатида кўриб чиқиш билан боғлиқ.

Бундан ташқари, рақамлашган ахборот ўз моҳиятига кўра, рақамли мазмунлар ва маъноларнинг ўзаро алмашуви ва ўзаро тўлдируви жараёнини акс эттирувчи шахслараро ва гуруҳли коммуникация ва кооперация асосида ётиши тан олинади. Умуман олганда эса, рақамли ва самарали ахборот алмашинуви, шахсий ва ижтимоий ривожланишнинг асосий манбалари ва ресурслари бўлиб хизмат қилиши илмий ва амалий даражада ягона маънода тан олинган.

Рақамли технологиянинг методологик қиймати, фундаменталлиги, универсаллиги ундан асос бўлувчи ғоя сифатида фойдаланиш имконини беради. Айнан шу ёндашув рақамли таълим жараёнларини ягона нуқтаи назардан кўриб чиқиш имконини беради[3].

Рақамли таълим муҳити назариясининг юқори эвристик имкониятлари педагогик ҳодисаларнинг рақамлили табиатини очиш, таълим жараёнининг услубий-дидактик таъминотининг хусусиятларини аниқлаш, педагогик рақамлашган ахборотларни баҳолашни амалга ошириш ва унинг асосида таълим жараёнини оптималлаштириш имконини беради.

Таълимий фаолият бошқа ҳар қандай педагогик асосдаги жараён каби, ўз табиатига кўра рақамлидир, чунки у турли хил рақамлашган ахборотлар билан амаллар бажаришни назарда тутади. Бундан ташқари таълимий фаолият уни қайта ишлашдан иборат бўлиб, В.Гаспарскийнинг фикрича, воқеъликни ўзгартиришнинг рақамли тайёргарлигидир[4].

Фан ва амалиёт ривожланишининг ҳозирги шароитларида педагогиканинг фан сифатидаги чегараларини аниқлаш ва педагогик ҳодисаларни тавсифлаш, тушунтириш ва олдиндан айтиб бериш учун ишончли воситага эга бўлиш билан бирга ҳар бир педагогик тушунчани аниқлаштириш лозим Бу мақсад учун педагогик восита сифатида биз томонимиздан *рақамли технологик ёндашув* танланди.

Таълимнинг муаммоларини ҳал қилишда рақамли технологик ёндашув ва педагогик рақамлашган ахборотнинг хусусиятларини тадқиқ қилиш В.И.Журавлев, В.М.Казакевич, ГА.Кручинина, Л.И.Фишман, В.А.Якунин ва бошқаларнинг ишларида кенг ёритиб берилган.

Шундай бўлса-да, олимларнинг бу муаммога юқори даражадаги қизиқишларига қарамай, ҳозирги кунга келиб, таълимга рақамли технологик ёндашувнинг илмий асослари ва унинг эвристик салоҳияти ҳозирча аниқланмаган, илмий изланиш методлари ишлаб чиқилмаган, ҳал қилинишида рақамли таълим муҳити назариясининг қоидалари қўлланилиши мумкин бўлган педагогик муаммолар доираси аниқланмаган.

Таъкидлаш муҳимки, педагогикада рақамлаштиришнинг умумий концепциясининг қўлланилиши, таълим жараёнини педагогик тадқиқ қилишнинг анъанавий йўналишини унинг иштирокчиларининг рақамли-таълимий муаммолари жараёни билан алмаштириш имконини беради.


Рақамлаштириш илмий-техника ривожланишининг илғор тенденцияларидан бири сифатида замонавий жамиятнинг кўпгина томонларини қамраб олган. Рақамлашган ахборот индустрияси, рақамли технологиялари жадал равишда яратилмоқда.

Рақамли технологик ёндашувнинг эмпирик негизи ўқув рақамли ахборотларини қайта ишлаш, узатиш, сақлаш ва ўзгартиришнинг ҳозирда мавжуд бўлган амалий тажрибаларини таҳлил қилиш, уни умумлаштириш ва муайян қонуниятларини аниқлашга асосланади.

Бугунги кунда узлуксиз касбий ривожланиш муассасаси: педагогнинг шахсий салоҳиятини фаоллаштириш, унинг интеллектуал ва ижодий қобилиятларини намоён этиш, касбий муаммоларни ҳал этиш бўйича амалий тажриба тўплаш жараёнида ўз-ўзини ривожлантириш имконини бера олиши лозим. Олимларнинг тадқиқотларига таянган ҳолда, умумтаълим мактаблари ўқитувчиларнинг касбий ўз-ўзини ривожлантириш камида уч томонлама стратегияларни белгилаш асосида амалга оширилиши мумкин(1-расм).

Қачонки педагогнинг билимлари, кўникма ва малакалари онгли равишда ўз-ўзини такомиллаштиришга ички ундов билан қабул қилинсагина у ишланади. Ўқитувчининг ўз меҳнати натижаларидан қониқмаслиги ҳисси унда ўзининг касбий фаолиятини ўзгартириш эҳтиёжини уйғотади, педагогик қийинчиликларнинг сабабларини англаш эса, ўқитувчини уларнинг ечимини излашига олиб келади ва педагогда ўзининг педагогик маҳоратини ривожлантириш устида ишлашига ижобий мотивациясининг шаклланишига кўмаклашади. В.А.Кан-Калик ва Н.Д.Никандров педагогик ижоднинг ривожланиши муаммоларини таҳлил қилиб, ижодга ўргатиш имкониятини шунингдек ижобий касбий шахсий мотивацияни таъминлаш билан боғлайдилар.

Ўқитувчига у томонидан қўйилмаган масаларни ечиш зарур бўлганида бу "ижодий имкониятни тўхтатиши, расмийликка олиб келиши ва асосийси ҳаётий, ҳақиқий аҳамиятли масалалар деярли аниқланмаганлигича қолиши" аниқланган[5].



1-расм.Умумтаълим мактаби ўқитувчиларининг ўз-ўзини касбий ривожлантириш стратегиялари

Ихтиёрий фаолият жараёнида мотивациянинг аҳамиятли роли Ю.К.Бабанскийнинг тадқиқотларида ўрганилган. У "ихтиёрий фаолиятни оптимал бошқариш қонуниятларидан, мазкур фаолиятнинг керакли мотивацияси, унга ижобий муносабат таъминланмаса, белгиланган вақтда зарур самарага эришиш мумкин эмас" деб таъкидлаган. Шунинг учун ўқитувчига ўз кучига ишониш имкониятини бериш жуда муҳимдир. Педагогик диагностикадан ўтказиш асосида ишни ташкил этишда, ўқитувчи ўзининг касбий қийинчиликларини ечишда ҳамкасбларининг ёрдамларини олиши ва бир вақтнинг ўзида ўзининг ҳамкасблари учун педагогик тажриба манбаи бўлиши мумкин бўлган вазиятларни яратиш зарур. Педагогнинг ҳамкасбларига ёрдам кўрсатишида ўз-ўзини амалга ошириш имконияти билан мустаҳкамланган унинг муваффақиятлилиги, унда ижобий ҳис-туйғуларнинг юзага келишига кўмаклашади ва ўз-ўзини ривожлантиришга йўналганлигини оширади[6].

Педагогнинг ўзини ўзи ривожлантириши бир неча жиҳатдан амалга ошади, энг катта қизиқиш бу касбий фаолият субъекти сифатида шахснинг ўзини ўзи ривожлантиришидир.

Шундай қилиб, касбий ўзини ўзи ривожлантириш деганда, биз касбий фаолиятнинг индивидуал услубини шакллантиришга ҳисса қўшадиган, илғор

тажрибаларни ва ўзларининг мустақил фаолиятини тушунишга ёрдам берадиган, шунингдек, ўзини ўзи билиш ва ўзини такомиллаштириш воситаси бўлган кўп компонентли шахсан ва касбий аҳамиятга эга жараённи назарда тутилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Власова Е.А. История становления проблемы процесса саморазвития –М.: Фолио, 2007 г.

2. Маркова О.И. Профессиональное саморазвитие педагога. – М.: Высшая школа, 2004.

3. Педагогика: учеб. пособие для студентов. / авт.-сост. Л.А.Кабанина, Л.Н.Смотрова, Е.А.Власова. – М.: МГУ, 2006 г.

4. Панова Н.В. Личностно – профессиональное развитие педагога на разных этапах жизненного пути: монография СПб: АППО, 2009 г.

5. Н.Абдумаликова. Бўлажак педагогларнинг касбий ўзини ўзи ривожлантириш муаммоси**.** March 2022. Общество и инновации 3(1/S):153-158

6. А.Х.Махмудов, З.Б.Абдурахмонов Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference3. С. 97-99. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-zamonaviy-ra-amli-tehnologiyalaridan-foydalanishning-yutu-lari-va-muammolari

PYTHON TILIDA MODULLAR

Ahtamqulov Muhriddin Ahtamul o'g'li -Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti

Xo'jamurodov Abdulaziz Ikromjon o'g'li - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

Annotatsiya: Modul bu loyihamiz ichidagi alohida fayl bo'lib, dasturimiz davomida ishlatiladigan funskyalarni (va o'zgaruvchilarni) mana shu faylga joylab, ko'zdan yashirib qo'yishimiz mumkin. Bu bizga asosiy dasturimizdan chalg'imasdan kod yozish imkoniyatini beradi.

Modul va uning ichidagi funksiyalarni istalgan payt asosiy dasturimizga yuklab olishimiz, modullarni boshqa dasturchilar bilan ulashishimiz yoki kelajakda o'zimizning boshqa loyihalarimizda foydalanishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Modul, integratsiya, funksiya, fayl

Modul – bu biz yozgan kodimizning fayl ko'rinishi. Bitta katta dasturimiz ko'pgina modullardan tashkil topishi mumkin. Pythonda modul hosil qilish uchun yozga kodimizning .py fayl kengaytmasi bilan saqlashimiz kerak bo'ladi. Masalan, quyidagi salomlash funksiyasi yozilgan kodimizni salom.py nomi bilan saqlaymiz va shu nomli modul hosil bo'ladi:

```
def salomlashish (ism):
 print("Salom"+ ism)
```

Endi biz katta dastur tuzishni boshlar ekanmiz, biz barcha kodni bir modulga yozib ishlatishimiz noqulay bo'ladi. Shuning uchun umumiy dasturni modullarga bo'lib ishlatganimiz ma'qul. Bu ancha qulay bo'ladi. Chunki biror moduldagi funksiya yoki ma'lumot kerak bo'lsa uni qayta-qayta yozib o'tirmasdan o'sha modulning o'zidan olib ishlatishimiz mumkin. Masalan, yuqorida funksiya tuzib uni salom.py moduliga saqlab qo'ydik. Endi biz yangi modul ochib unda salom.py modulidagi funksiyani ishlatamiz. Buning uchun import kalit so'zi bilan salom.py modulini chiqaramiz. So'ngra undagi salomlash() funksiyasini olib ishlatamiz.

E'tibor bering, bu yerda shunchaki funksiya nomini yozib ishlatayapmiz. Funksiyaning o'zi esa biz chaqirgan modulda tuzilgan:

```
import salom
salom.salomlash("Abbosbek")
Salom Abbosbek
```

E'tirbor bering: ilgari biror modulni chaqirganimizdan keyin undagi funksiyalar oldidan shu modul nomini qo'yib, so'ng nuqta (.) va kerakli funksiyani yozar edik. Agar o'sha moduldan ayna bir funksiyaning o'zini chaqirsak, shunchaki funksiya nomi yozilib ishlatiladi.[2]

Python dasturlash tilida modullar, kodni qayta ishlanuvchan qismatlarga ajratish uchun foydalaniladi. Modullar ko'rsatkich va funksiyalarga ega bo'ladi, ularni olib

kirish orqali ishlatish mumkin. Modullar kodni bo‘lib olish vaqtini kamaytiradi va kodni qayta ishlanishi va rivojlanishi oson bo‘ladi.

1. Modullarni foydalanishga har doim "import" operatoridan foydalanish zarur. Masalan: import math.

2. Python tarkibidagi integratsiya modullar (built-in modules) ko‘plab kengaygan funktsiyalarga ega. Masalan, "math" modulda matematik amallar uchun funktsiyalar mavjud.

3. O‘z modullingizni yaratish uchun, alohida fayl yarating va uni modulga o‘zlashtirib, kerakli funksiyalarni yozib qo‘ying.

4. Modulning nomi yozilgan fayl nomi bo‘lishi lozim, masalan: "mymodule.py".

5. Moduldagi funksiyalarni chaqirish uchun modul nomini yozib, funksiya nomi bilan qo‘shib qo‘ying. Masalan: mymodule.my_function().

6. Modul ichidagi funktsiyalarni alohida chaqirib ishlatish uchun, from mymodule import my_function yoki from mymodule import * usullaridan foydalaning.

Python modullari kodni tozalash, organish va boshqa dasturlardagi qayta-kodni minimalizatsiya etish uchun juda foydali. Modullar bilan ishlash, dastur kodini nazariy qismga va amaliy qismga ajratib, ko‘proq tuzilmagan va sodda qilinadi.[3]

Python tilida modullar, kodni organizatsiyalash uchun foydali vositalar turi hisoblanadi. Modullar Python da foydalanuvchi tomonidan yozilgan kod, funksiyalar, va obyektlarning bir qisminini o‘z ichiga oladi. Modullar kodni logikaviy bo‘limlarga ajratishga yordam beradi va kodni qisqa yoki kengroq qilish orqali tuzishga imkon beradi.

Python tilda modullar import operatori yordamida chaqiriladi. Masalan, agar siz "math" nomli moduldan matematik funksiyalarni foydalanishni xohlaysiz, unda quyidagi usul bilan uni chaqirishingiz mumkin:

```
import math
print(math.sqrt(16))
```

Bu ma’lumotni chop etgan kodda "math" modulini chaqiramiz va "sqrt" funksiyasini unga o‘zgaruvchini uzunligini kiritganingizda natijani chiqaradi.

Modullar Python dasturlashdagi amalni yengillik va tuzilganlikning ko‘proq qismida o‘z muhim joyini egallashadi. Yangi funksiyalar, komponentlar va normalizatsiyalar qo‘shish, boshqarish va vaqt o‘tkazishni osonlashtiradi. modullar o‘zgaruvchilar va funkisyalarni barcha qismlarni biror faylda yuborish orqali qulaylik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.A. Bobojonova Python dasturlash tili
2. Python asoslari. Abbosbek Ibragimov
3. https://python.sariq.dev/function/23-modules

TALABALARGA "MA'NAVIYATSHUNOSLIK" FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Yo'ldoshev Sherzod Ravshan o'g'li – Guliston davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: sherzod.yoldoshev.off@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi ta'lim tizimi, undagi kamchiliklar, ma'naviyatning ta'limda tutgan o'rni, "Ma'naviyatshunoslik" fanining hozirgi kundagi dolzarbligi va metodikasi haqida so'z boradi. Fanni o'qitish metodikasi bo'yicha bir necha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, kredit, modul, platforma, metod, akademik mustaqillik, o'qitish erkinligi, moliyaviy mustaqillik.

> ***Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.***
>
> **Shavkat Mirziyoyev**

So'ngi yillarda ta'lim tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik, o'qitish erkinligi, moliyaviy mustaqillik kabi huquqlar berildi. Hatto bu huquqlar O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyada ham o'z aksini topdi.[1, b. 21] Nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ham katta e'tibor qaratildi. Bu esa o'z navbatida kuchli raqobat muhitini shakllantiradi. Talabalarni jahon standartlariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar qilib shakllantirishda buning o'rni beqiyos. Ammo bu sohada bir qancha kamchiliklarimiz ham bisyor.

Birinchidan, islohotlarning haddan tashqari ko'p amalga oshirilishi. Ta'lim tizimidagi bir islohot, o'z natijasini, samarasini berishi uchun bir necha yillar, aniqroq qilib aytganda, shu islohot tizimida o'qigan bir avlod shakllanishi kerak. Buning uchun esa kamida o'n, o'n besh yillar kerak bo'ladi. Biz esa natijasini kutib o'tirmasdan yana yangi va yangi islohotlar qilaveramiz. So'z isboti sifatida quyidagilarni keltiramiz. So'ngi yillarda Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan ta'lim sohasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ulardan ta'lim standartlari o'zlashtirildi. 2021-yilda esa O'zbekiston Ta'lim inspeksiyasi va Finlandiyaning milliy ta'lim agentligi o'rtasida anlashuv memarandumi imzolanib, O'zbekiston ta'lim tizimida Finlandiya tajribasi yo'lga

qo‘yildi. Shunday qilib uch xil ta’lim standartlarida ta’lim olgan avlod bu tizimning qurboniga aylanadi.

Ikkinchidan, kredit modul tizimiga shaklan o‘tildi, ammo mohiyatan o‘tilmadi. Hozirda jahonda o‘qitishning kredit modul tizimidan keng foydalaniladi. Biz ham o‘zimizga mos va xos deb bilgan Yevropa mamlakatlarining kredit-modul tizimi (ECTS)ni oliy ta’lim tizimiga joriy etdik. Har bir oliy ta’lim muassasalarining platformalari, modul va hemis tizimlari joriy etildi. Unda fanni o‘zlashtirish uchun manbaalar va shu kabi bir qator qulayliklar yaratildi. Bu albatta yaxshi ammo masalaning ikkinchi tomoniga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, mohiyatan kredit-modul tizimida talabalarning darsdagi davomati masalasi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Uning fanlarni qay darajada o‘zlashtirganligi imtixonlarda namoyon bo‘ladi xolos. Bizda esa auditoriya soatlarining 25-30%ini sababsiz qoldirgan talabalar shu fandan akademik qarzdor deb topiladi. Bundan tashqari har bir talaba o‘z akademik traektoriyasini o‘zi tanlash imkoniyati to‘liq yaratilmagan. Fanlarni tanlash jarayoni har bir o‘quvchiga emas balki, butun guruhga taqdim etiladi. Guruhda eng ko‘p ovoz olgan fan dars jadvaliga qo‘yiladi. Professor-o‘qituvchilarni tanlash masalasini gapirmasa ham bo‘ladi. Bunday imkoniyat talabalarga taqdim etilmaydi.

Endi esa ma’naviyatning ta’lim tizimida turgan o‘rni haqida to‘xtalsak. So‘ngi yillardagi ta’lim tizimi islohotlari natijasida aniq va tabiiy fanlar bir qancha taraqqiy etdi. Bu sohalarda ilmiy ishlar, olimlar soni sezilarli darajada oshdi. Ammo ijtimoiy-gumanitar sohada turg‘unlik kuzatildi. Ma’naviyat masalasi e’tibordan biroz tushdi. Ma’naviyatshunoslik, Etika, Estetika, Axloqshunoslik kabi fanlarga bo‘lgan etibor susaydi. Ilgari bakalavr va magistr bosqichlarida ta’lim oluvchi talabalarning barchasiga o‘tilgan bu fanlar tanlov fanlari darajasiga tushib qoldi. Natijada o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishiga qaramasdan ma’naviy salohiyati bir muncha past kadrlar shakllandi. Rahbarlar ma’naviyat masalasiga ahamiyat qaratmay qo‘ydi. Aynan shu sababdan 2021-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori qabul qilindi. Mamlakatda ma’naviyat sohasi tubdan takomillashtirish zarururati mazkur qaror bilan tartibga solindi. Jumladan ushbu qarorning 9-bandida quyidagilar ta’kidlanadi: “… 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim tizimining tegishli ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma’naviyat” fanlari kiritilsin…”[2] Natijada ma’naviyat masalasi qayta uyg‘ondi. Uchinchi Renessansga erishish uchun ma’naviyatning ulug‘vor ahamiyati anglab yetildi.

Zero, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarni ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa,

o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, beparvolik, xudbinlik, manmanlik, yovuzlik, qo‘paruvchilik, o‘z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar kuzatilmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. So‘ngi yillarda erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk kadrlarni, komil insonlarnini tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, talabalarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. “Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir”. [3, b. 3]

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bir qator ustuvor vazifalar ham belgilandi. Jumladan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha vazirlik va idoralar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni ommalashtirish maqsadida an’anaviy tarzda “Eng namunali tuman”, “Eng namunali vazirlik”, “Eng namunali muassasa” tanlovlarini tashkil etish;

- Oliy ta’lim muassasalari talabalari, doktorant va izlanuvchilarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Uchinchi Renessans - yoshlar nigohida” nomli loyihalar tanlovini an’anaviy tarzda o‘tkazish;

- “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish maqsadida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

- Milliy tarbiya an'analari, vositalari, shakllarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tajribalar, to'plangan tarbiyaviy meros asosida ko'p jildli "Milliy tarbiya ensiklopediyasi"ni yaratish;

- "Ma'naviyat lug'ati"ning to'ldirilgan yangi nashrini yaratish kabi islohotlar shular jumlasidandir. Ushbu islohotlar albatta o'z mevasini bermay qolmaydi. Yoshlarda daxldorlik xissini shakllantirib, el-u yurt koriga yarovchi yangi avlodning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi, albatta.

Yuqorida ma'naviyatning qay darajada dolzabligi xususida so'z yuritdik. Endi esa "Ma'naviyatshunoslik" fanining xozirgi kundagi metodikasi haqida kichik xulosa va tavsiyalar keltiramiz. Xozirda oliy ta'lim muassasalari bakalavr yo'nalishlariga o'tilayotgan ushbu fan, uning metodikasi zamon talablariga javob beradimi yoki yo'q? Shu masalaga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Bugungi kunda an'anaviy ma'ruza darslari (teacher center) o'qituvchi markaz bo'lib o'tishi odatiy xolga aylangan. Bunda o'qituvchi bor bilim markaziga aylanadi. O'z bilimlarini talabalarga gapirib beradi. Talabalar esa o'zlariga kerakli joylarini daftarlariga qayd etib oladilar. Zamonaviy ta'limda esa ma'ruza darslari ham (student center) talaba markaz shaklida o'tishi ko'proq samara berishi isbotlangan. O'qituvchi o'zi ko'proq gapirmasdan, talabalarni fikrlashga majbur etadigan, ularga qiziq bo'lgan savollar bilan murojaat etadi. Talabalarni ko'proq gapirtiradi. Natijada auditoriya mashg'uloti zerikarli ma'ruza shaklida emas, balki munozara shaklida bo'lib o'tadi.

Buning uchun tavsiya etiladigan metodlardan biri "Idrok xaritasi" metodi. Idrok xaritasi talabalarni o'z tasavvurlaridan foydalanishga va ijodiy bo'lishga undaydi. Ushbu uslub, ayniqsa, yangi mavzuni o'tishda foydali bo'lishi mumkin. Bu har qanday muammoga ko'plab yechimlarni topishga yordam beradi. (Masalan, talabalar o'zlariga: "bu vaziyatda nima qilishim kerak?" yoki "bu to'siqni qanday yengishimiz mumkin?") Ma'naviyatshunoslik fani mavzulari ko'pincha ochiq mavzular bo'ladi. Ya'ni mavzu xususida har kimda o'ziga yarasha fikrlar mavjud. Ochiq mavzular ushbu strategiya bilan eng yaxshi ishlaydi. Masalan, "nima uchun jamiyatga ma'naviyat zarur?" yoki "insonning ma'naviyatini qanday taraqqiy ettirish mumkin?" Savollar ro'yxati yaratilgandan so'ng, javoblarni ko'rib chiqish, qayta tashkil etish, birlashtirish yoki o'zgartirish orqali muammoni to'g'ridan-to'g'ri hal qiladigan yechimlarni yaratish mumkin.

Tartibi:

1. Hamma ko'rishi uchun g'oyalarni yozib olish va joylashtirish uchun doska, flip-chart yoki qog'ozdan foydalaniladi.
2. Hal qilinadigan muammo yoki savol aytiladi.
3. Idrok xaritasini tuzish qoidalarini aytiladi. Qoidalar quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

a. ayni paytda biz g‘oyalarni baholamayapmiz yoki ularning qanchalik foydali ekanligini baholamayapmiz.

b. ijodiy fikrlang. Har bir fikr, qanchalik g‘alati bo‘lmasin, qabul qilinadi.

c. iloji boricha ko‘p fikr yarating. Ko‘proq fikrlar yaxshi.

d. boshqalarning fikrlarini ham e’tiborga oling (birlashtiring, o‘zgartiring, va hokazo.).

4. Fikrlar so‘raladi va ular tezroq yozib olinishi darkor. Talabalarning aytgan fikrlari yoki qanday aytganlari taxrir qilinmasligi kerak.

5. Xulosa qilib, yaratilgan g‘oyalar muhokama etiladi va baholanadi.

Ma’ruza darslarida ushbu metoddan foydalanilsa dars ancha qiziqarli va mazmunli bo‘lish bilan birga, talabalar yodida qolish ehtimoli ancha kuchayadi.

Seminar darslari esa, aqliy hujum, notiq kabi eskirgan metodlar bilan o‘tishi, “konspekt” tekshirilishi talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada pasaytirishi tabiiy hol. XXI asr – axborot texnologiyalari asri. Media olami shu darajada taraqqiy etdiki, hozirda turmush tarzini usiz also tasavvur etib bo‘lmaydi. Albatta bu imkoniyatlardan dars jarayonlarida ham samarali foydalanish darkor. Xozirda talabalar o‘z gadjetlariga qattiq bog‘langanligini inobatga olib ulardan foydalanib ham seminar darslarini o‘tish mumkin. Bunda bizga turli internet platformalari yordam beradi. Jumladan kahoot.it platformasi.

Ta’lim muassasalarida auditoriyada qo‘llaniladigan o‘yin orqali o‘rganish platformasi bo‘lib, sayt o‘yinlar katalogini taqdim etadi - "Kahoots" - ularning har biri bir nechta tanlov savollarini o‘z ichiga olgan viktorina hisoblanadi. Saytdan veb-brauzerda va 2017-yildan boshlab mobil qurilmalar uchun ilovalarda ham foydalanish mumkin. Undan asosan o‘quvchilar bilimini tekshirish uchun yoki darsda tanaffus sifatida foydalanish mumkin. O‘yin jarayoni oddiy, barcha o‘yinchilar o‘z qurilmalarida bir vaqtning o‘zida savollarga javob berishadi. Savollar ekranda birma-bir o‘quvchilarga ko‘rsatiladi. Ishtirokchilar har bir to‘g‘ri javob uchun ball oladi. Viktorina oxirida ekranda barcha ishtirokchilarning savollariga javob berish paytida to‘plagan ballari ko‘rsatiladi.

O‘yinda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish shart emas. Viktorinalar veb-saytdagi katalogdan tanlanishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi yangi viktorinalar yaratishi mumkin. Har bir savol uchun javob vaqti taxminan 20-60 soniya bilan cheklangan. Kahoot! 2012-yilda Norvegiya fan va texnologiya universiteti talabalari va professor-o‘qituvchilari tomonidan hamkorlikda tashkil etilgan. Sayt 2013-yil mart oyida SXSWedu-da shaxsiy beta-versiyada va 2013-yil sentabr oyida ommaviy foydalanish uchun ishga tushirilgan. Kamchiligi, o‘zbek tilidagi interfeysi yo‘q.

Ma’naviyatshunoslik fanida ushbu platformadan fanning tayanch tushunchalarini, tarixi va rivojlanishini o‘rgatish, o‘rgangan bilimlarini tekshirish maqsadida

foydalanish mumkin. Birinchilikni egallashga bo‘lgan intilish talabalarga kuchli adrenalin beradi va fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyat inson uchun suv va havodek zarur. Ma’nan yetuk va barkamol insonni tarbiyalash zamonning dolzarb talabidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”[4]

Ta’lim tizimidagi islohotlar zamirida ma’naviyatga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, ma’naviyatshunoslik fanini zamon talablariga moslash, uning metodikasini tubdan takomillashtirish hozirda yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi fanni o‘qitish bo‘yicha quyidagi tavsilarni ilgari suramiz.

Birinchidan, ma’ruza darslarini an’anaviy (teacher center) o‘qituvchi markaz shaklida emas, balki (student center) talaba markaz shaklida o‘tilishi ko‘proq samara berishini inobatga olish va talabalarni aktivligini oshirish.

Ikkinchidan, yuqorida ta’kidlangan “Idrok xaritasi” metodidan foydalangan xolda ma’ruzalarni tashkil etish. Sababi bu metod talabalarni o‘z tasavvurlaridan foydalanishga va ijodiy bo‘lishga undaydi. Ushbu uslub, ayniqsa, yangi mavzuni o‘tishda foydali bo‘ladi.

Uchinchidan, “Kahoot” platformasidan samarali foydalangan holda seminar darlarini tashkil etish. Bundan tashqari talabalarning mustaqil izlanishlari uchun ham ushbu platformadan foydalanish mumkin, ya’ni mustaqil ish topshiriqlari sifatida ularga platformada shaxsiy akkaunt ochish va test topshiriqlari yaratish vazifalarining yuklanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” Toshkent. 21-b
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori. 26.03.2021-yil
3. Masharipova G. Xo‘janova T. Ma’naviyatshunoslik. Darslik. “Fan ziyosi” nashriyoti. Toshkent. 2022-yil. 3-b
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. 22.12.2023-yil.

TA'LIMNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Beknazarova Gavhar Xabibullayevna - GulDPI "O'zbek tili va tillarni o'qitish" kafedrasi kabinet mudiri.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy tarkibiy qismlaridan biri - sifatli ta'lim. Bu barqaror rivojlanish barcha uchun teng bo'lgan sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar esa bu maqsadga erishish uchun muhim vosita sanaladi. Raqamli texnologiya ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda sohaga yangiliklarni olib kirish uchun zarur. So'nggi yillarda dunyoda yuz bergan vaziyat ya'ni COVID-19 pandemiyasi ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash qanchalik muhim ekanligini ko'rsatdi. Ushbu raqamli texnologiyalar butun ta'lim tizimida paradigmani o'zgartirdi. U nafaqat bilim yetkazib beruvchi, balki axborotning hammuallifi, maslahatchisi va baholovchisi hamdir. Ta'limga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi talabalar hayotini qulaylashtirib, vaqtni yanada tejash imkoniyatini yaratdi. Bugungi kunda raqamli texnologiya va sun'iy intellektlar hayotning barcha jabhalarida faol qo'llanilmoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisod, bank, xizmat ko'rsatish sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimining ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yurtimizdagi barcha fuqarolar, erkag-u ayol, yosh-u qari, hammaning ongida raqamli texnologiyalar orqali barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi". Bularni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa ta'limda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda esa 60 talikka, 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta"lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi.

Raqamli texnologiya hayotimizga shu darajada singib ketganki, bugungi kun faoliyatimiz, ijtimoiy – iqtisodiy va ta'limning rivojlanishi ham raqamli texnologiyalarga bog'liq. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda

ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo‘l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg‘or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar - kengaytirilgan haqiqat (AR). Eng istiqbolli - bu virtual dunyodan real dunyoga ob’ektlarni qo‘shish imkonini beruvchi to‘ldirilgan reallik texnologiyasi. Tasavvur qiling-a, ko‘chada yurib, atrofingizdagi narsalar va odamlar haqida qo‘shimcha ma’lumotni ko‘rasiz. Kengaytirilgan haqiqat misollari allaqachon mavjud va faol qo‘llanilmoqda, ba’zi istiroxat bog‘larida siz jismoniy dunyodagi ob’ekt va virtual dunyo o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadigan belgilarni allaqachon ko‘rishingiz mumkin. To‘ldirilgan reallik elementlariga ega o‘yinlar faol tarqalmoqda, kiyim-kechak sotiladigan do‘konlarda virtual oyna va jihozlash xonalari mavjud, to‘ldirilgan reallik allaqachon avtomobillarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, to‘ldirilgan reallik texnologiyalaridan faol foydalanish yo‘lida hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar ham mavjud. Masalan, geopozitsiyani aniqlash vositalarining aniqligi hali ham etarli emas yoki jismoniy dunyo ob’ektlarini ularning virtual nusxalari bilan bog‘lash uchun kompyuterda ko‘rish texnologiyalari nomukammal. Biroq, ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutuq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
2. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
3. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. Theoretical & Applied Science, (11), 56-58.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education

TA'LIM SOHALARIDAGI INNOVATSION FAOLIYATLARNING VIRTUAL TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI, DOLZARBLIGI VA MUAMMOLARI

Ochilov T.M. - O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti
E-mail: Ochilov@mail.ru
Bustanov X.A. - Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchi
E-mail: bustanov59@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qitish jarajonida zamonaviy komyuter texnalogiyalarini va raqamli texnalogiyalarni qo'llashning samaradorligi, uning bilim oluvchilarga ta'siri yuzasidan keltirilgan fikrlar yoritilgan. Maqolada asosan talabalarni aynan raqamli texnologiya usullardan va kompyuter texnikasidan foydalangan holda o'qitish metodlari, uning vazifasi va natijasi, ta'limni individuallashtirish masalasi va keltirib chiqaradigan muammolari, ularning yechimlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnalogiyalar, axborot resurslari, axborot texnologiyalar, kompyuter dasturlari, elektron darslik, virtual, elektron ta'lim va ishlanmalar, ta'lim metodlari.

Zamonaviy dunyodagi o'zgarishlar parametrlari va dinamikasining ortib borayotgan murakkabligi, global axborot infratuzilmasining shakllanishi, kontinentallashuv va globallashuv, axborot "portlashi" - bularning barchasi tizimli birgalikda yuqori sifatli innovatsiyalarga yo'naltirilgan o'zgarishlar zarurligini belgilaydi. Uzluksiz ta'limni amalga oshirish paradigmasida, xususan, professor-o'qituvchilarning kasbiy ta'limlari asos bo'lib xizmat qiladi[1].

Hayotning mutlaqo barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan muhim o'zgarishlar shunchalik shiddatli va tezdirki, o'rta va oliy kasbiy ta'lim tizimlari endi biron bir soha bo'yicha mutaxassis tayyorlash muammosini hal qila olmaydi, u kasbiy faoliyat jarayonida shunday darajada ishlaydi. Ushbu o'zgarishlardan orqada qolish bilan bog'liq kompetentsiya inqiroziga duch kelmaslik kerak. Yuqorida aytilganlar, eng kamida, umumiy ta'lim sohasidagi xodimlarga, birinchi navbatda, o'qituvchilarga tegishli. O'qituvchi endi ilm-fan, texnologiya va axborot taraqqiyoti bilan shug'ullanishi shart emas: ilg'or ta'lim sifati talabi o'z kasbiy o'sishida bu muvaffaqiyatdan oldinda bo'lish zarurligini anglatadi[2].

Bu holatlar, birinchi navbatda, pedagogik kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda virtual ta'lim muhitining imkoniyatlarini o'rganishning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

Muammoning dolzarbligi, shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi yangi ta'lim muhiti sharoitida qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi bilan bog‘liq. Ilmiy mulohazaga asoslanib, uzluksiz kasbiy pedagogik ta’lim tizimini qator jihatlarni hisobga olgan holda modernizatsiya qilish zarur.

Bugungi kunda malaka oshirish ko‘pincha texnosentrik yondashuv asosida, ya’ni pedagogik jarayonni texnik jihatdan qayta qurollantirishga asosiy e’tiborni o‘z maqsadi sifatida tashkil etish bilan stixiyali tashkil etiladi. Uzluksiz kasbiy ta’limda kompleks innovatsion modellashtirish tizimi, uslubiy yondashuvlar va tegishli ta’lim texnologiyalari asosida amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaymiz. Bu esa kasbiy malakani oshirish jarayonining yaxlitligi va izchilligini, samaradorligini, intensivligini, faollashishini va optimallashtirilishini ta’minlaydi. Professor-o‘qituvchilar tarkibi, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash, pedagogik maqsadlarga erishishlarda as qotadi.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimini innovatsion modernizatsiya qilish tashqi, tasodifiy, kundalik ong, hozirgi zamonning o‘ziga xos xususiyatlari, manfaatdor shaxslar va muassasalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmasligi kerak, balki bir tomondan, ta'lim jarayonining o‘zi mantig‘i, aksincha, odamlar, ta’lim muassasalari va davlat tomonidan tizimga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda. Malaka oshirish tizimining mohiyati va ahamiyatini ana shunday ilmiy tasavvur qilgandagina uzluksiz kasbiy ta’limni aniq pedagogik tizimda amalga oshirish mumkin.

Uzluksiz pedagogik ta’limning didaktik tizimi, bir tomondan, ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan barcha tarkibiy qismlar: maqsadlar, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, o‘qitish vositalarini o‘zida aks ettirishi, mahalliy va xorijiy pedagogikaning ilmiy yutuqlariga tayanishi kerak. Boshqa tomondan, u o‘zining muhim xususiyatlari bo‘yicha zamonaviy ta’lim innovatsiyalariga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak: innovatsiya va tizimni shakllantiruvchi xususiyat sifatida, shu bilan birga maqsad, tamoyil, vosita, shakl va o‘qitish usuli. Didaktik tizimda ana shunday ko‘p qirrali amalga oshirilgandagina innovatsiya yangilikchi o‘qituvchini pedagogik faoliyat va tafakkurning o‘ziga xos uslubiga ega bo‘lgan ijodiy shaxs sifatida “tarbiyalash” va doimiy qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

An’anaviylikni innovatsiya bilan uyg‘unlashtirgan uzluksiz pedagogik ta’limning didaktik tizimini qurishda ushbu tizimning o‘zgaruvchan komponentlari va o‘zgarmas tarkibiy qismlarining shunday uyg‘unligini topish muhim, ularning uzviy bog‘liqligi o‘qituvchilarga uzluksiz ilmiy asoslangan va innovatsiyaga yo‘naltirilgan kasbiy bilimlarni taqdim etishi rivojlanishi mumkin.

Bu darajada o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi muhitiga singib ketgan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash zarur.

Talabalar mustaqil ishini texnologik jihatdan tashkil etish quyidagi ***komponentlarni*** o‘z ichiga oladi: mustaqil ish maqsadlari, TMIning mazmunini tanlash, topshiriqlarni tanlash, nazoratni tashkillashtirish texnologiyasi.

Maqsadlarni tanlab olishda DTSda belgilangan maqsadlar asos hisoblanadi, undan kelib chiqqan holda bo‘lajak pedagoglik kasbiga kirish, kasbiy-pedagogik nazariyalar va tizimlar, pedagogik texnologiyalar va boshqalar bo‘yicha maqsadlar yanada aniqlashtiriladi. Tanlangan maqsadlar «*maqsadlar taksonomiyasini*» aks ettiradi. Masalan: kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash manbalarini bilish, mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘z-o‘zini tarbiyalashning turli shakllaridan foydalanish. Bundan tashqari, mustaqil ishning maqsadlari motivatsion, kognitiv, faoliyat tarkibiy qismlaridan tashkil topgan kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorgarlik tuzilmasiga mos kelishi lozim.

Mustaqil ish mazmunini tanlashda quyidagilar asos bo‘lib xizmat qiladi:

- DTS (davlat ta'lim standarti);

- o‘z-o‘zini tarbiyalash manbalari (adabiyotlar, tajriba, intros-pektsiya);

- talabalarning individual-psixologik xususiyatlari (ularning tez ilg‘ash qobiliyati, bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi, intellekti, motivatsiyasi, o‘quv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari).

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriq va vazifalarning turli darajadagi maqsadlarga mos kelishi, har bir tavsiya etilgan fanning mazmunini aks ettirishi va talabalar bilish faoliyatining turli tiplari va darajalarini qamrab olishi lozim.

Nazoratni tashkillashtirish texnologiyasi o‘z ichiga nazorat vositalari, nazorat bosqichlari, nazoratning individual shakllarini sinchkovlik bilan ishlab chiqish va saralab olishni qamrab oladi.

Talabalarning mustaqil ishida samaradorlikka erishish shartlari:

1. Auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlar hajmlarining o‘zaro to‘g‘ri nisbatini ta'minlash zarur.

2. Talabaning auditoriya va auditoriyadan tashqari ish faoliyatini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bosqichma-bosqich talabada mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirib borish lozim.

3. Mustaqil ishni ijodiy jarayonga aylantirish uchun talabani zarur uslubiy materiallar bilan ta'minlash talab etiladi.

4. Mustaqil ishni tashkil etish va uning bajarilishini nazorat qilish va mustaqil ishning sifatli bajarilganligi uchun talabani rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar mustaqil ishi quyidagi ***shakllarda*** joriy etilishi mumkin:

1. Talabaning bevosita o‘zi tomonidan *(mobil qurilmasi orqali*) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari (talabaning mustaqil ta'limi).

2. An'anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

3. Elektron shakldagi (*mobil qurilmasi orqali*) o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga (TMT) quyidagilarni kiritish mumkin:

• **darsga tayyorlanish** – ma'ruza matnlari, podkastlar, video materiallar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o‘rganish;

• **axborot izlash** – o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o‘rganish;

• **FAQ** (ko‘p so‘raladigan savollar) – o‘zini qiziqtirgan muammolarga o‘rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

• **Forum** – fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

• **Test echish** – o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

• **Nazorat ishiga tayyorlanish** – fan bo‘yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko‘rish.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabalar mustaqil ishi yuklamasi o‘qituvchining yuklamasiga to‘laligicha kirmaydi, biroq kontakt mashg‘ulotlar uchun unga alohida yuklama belgilanadi (hisob-chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.

TMI innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak. O‘RTMIning auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko‘zda tutadi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabalar mustaqil ishi har bir fan bo‘yicha butun akademik o‘qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi va tyutorlarni ko‘rsatgan holdagi jadval bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘RTMI doirasidagi mashg‘ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo‘lishi mumkin.

Ularning nisbati o‘rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o‘rganishga ajratilgan audtoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

An’anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• **masala yechish** – amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarni echish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

• **referat** – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;

• **kollokvium** – o‘quv modulining nazariy qismini o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

• **esse** – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

• **taqdimot** – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

• **keys-stadi** –muammoli pedagogik vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar orqali yechim izlash;

• **rolli o‘yinlari** – pedagogik faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko‘nikmalar orttirish;

• **glossariy** – berilgan mavzu bo‘yicha atamalarni qisqa izohlash;

• **guruh loyihasi** – 3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

• **hisob-chizma ishlari** – odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo‘yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;

• **kurs ishi** – fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan yozma va hisob ishlari;

• **kurs loyihasi** – fan yoki fanlar majmuasi (texno-pedagogik jarayon, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo‘yicha bajariladigan, grafik chizmalar ilova qilinadigan, belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

• **diplom loyihasi** – mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashga qaratilgan, hisobot ishlari bilan bayon qilinadigan, belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish;

• **amaliyot hisoboti** – o‘tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘rsatmalar asosida yoziladigan hisobot;

• **fan to‘garaklarida ishtirok etish** – talabaning fan to‘garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko‘rgazmali materiallarni tayyorlashi;

• **tanlovlarda ishtirok etish** – talabaning o‘qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (“Yosh ixtirochi”, talabalar startap loyihalari va h.k.);

• **fan olimpiadalarida qatnashish** – fanlar bo‘yicha OTMlar o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (pedagogika, psixologiya, ixtisoslik fanlari, pedagogik va axborot texnologiyalari va h.k.);

• **ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish** – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilish;

• **ilmiy tezis va maqolalar chop etish** – ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislar va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish;

• **o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish** – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va boshqa o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish.

Elektron shakldagi (*mobil qurilmasi orqali*) o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishiga quyidagi shakldagi topshiriqlarni kiritish mumkin**:**

• **Link** – internet havolasini ochib, unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

• **Chart** – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish;

• **Q\A** – masofaviy ta’lim platformasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

• **Review** – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish;

• **SWOT** – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT – tahlil qiladi;

• **Interview** – muammoni tadqiq qilish bo‘yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta’lim platformasiga yuklash;

• **Google Apps** – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

• **Dayjest** – berilgan mavzu bo‘yicha internet-havolalar to‘plamini tayyorlash, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;

• **Report** – talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritishadi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talaba mustaqil ishlarining bayoni tegishli fan modullari, uning mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmi ko‘rsatgan holdagi **sillabusda** o‘z aksini topadi.

Talabalar mustaqil ishini **masofaviy shaklda** tashkil etish va ta’lim natijalariga erishish bilim olish ishtiyoqida o‘qiyotgan talabalar uchun eng maqbul variant hisoblanadi. Bu shaklda talabaga turli dastur va ilovalarda ishlashni taklif qilish orqali ularda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish va buni hatto auditoriyadagi mashg‘ulotlardan ham yuksak darajada tashkil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Qarori. – T., 2019

2. O‘zbekiston Respublikasi OO‘MT Vazirining 2021-yil 19 oktyabrdagi "Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 35-2021-son bo‘yrug‘i. – T., 2021

3. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom. – T., 2005

4. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”. – T., 2009

MUZYORAR- INTERFAOL USULINI «GERMANIY GURUXCHASI ELEMENTLARI» MAVZUSIGA TATBIQ ETISH

Umirova Nilufar Omonboyevna - Guliston davlat universiteti katta o'qituvchi PhD,.
Lapasova Feruza Abdullayevna- Guliston davlat universiteti o'qituvchi

XXI asrda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustivor vazifalardan biridir. Bu esa, o'z navbatidafizik olimlarimiz zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida organik kimyo fanini o'qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri xisoblanadi.

"Avvalo fandagi yangilik nima?", "Fandagi innovatsiya nima?" degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Anorganik kimyo fanini o'qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quidagi innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari qo'llanilmoqda.

Interaktiv o'qitish texnologiyalari.

1. Ma'lumotli ma'ruza.
2. Ko'rgazmali ma'ruza.
3. Karusel.
4. Kichik guruhlarda ishlash.
5. Akvarium.
6. Tugallanmagan so'zlar.
7. Aqliy xujum.
8. Yechimlar daraxti.
9. Binarli ma'ruza.
10. Anjumanli ma'ruza.
11. Ishbilarmonlik o'yinlari.
12. Rolli o'yinlar.
13. Matbuot anjumani.
14. O'z pozitsiyasini egallash.
15. Diskussiya.
16. Debatlar va xokazolar.
17. Baliq suyagi
18. Raqibingni tanla.
19. Venn diagrammasi.
20. Krossvord....

Muzyorar – muomaladagi tusiqlarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o'zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

- Juftliklarda besh daqiqalik suxbat, so‘ngra har bir ishtirokchi o‘zining suhbatdoshini tanishtiradi va «Germaniy guruxchasi elementlaridan » birortasini tanlaydi. Masalan, “Qo‘rg‘oshin shakari” formulasini qog‘ozchaga yozadi. $Pb(CH_3COO)_2$

- Doirada koptokcha bilan o‘ynash - bunda qo‘liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o‘z ismini hamda o‘zi tanlagan birikma haqidagi ma’lumotni aytishi kerak bo‘ladi.

- O‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga guruh a’zolarini o‘zaro bog‘laydigan 3 yoki 5 ta umumiy o‘xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig‘i beriladi. Bunda germagniy guruxchasi elementlarini 3ta guruxchaga bo‘lib, fizxik va kimyoviy xossalarini aytishlari lozim. So‘ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholash mezonlar

Ko‘rsatkichlar	Maks. ball	Guruh ishi natijalarining bahosi			
		1	2	3	4
Ma’lumotni aniqligi va to‘liqligi	1,0				
Guruhning faollik darajasi (qo‘shimchalar kiritish, savollarga javoblarni to‘g‘ri berish)	0,6				
Hamkorlikda o‘qishning asosiy qoidalariga rioya etilishi	0,4				
O‘rtacha					

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O‘zaro baholash natijalari				Jami
	1	2	3	4	
1	*				
2		*	*	*	
3					
4					

Bu usul talabalar uchun qiziqarli bo‘lib, ular o‘zlarini o‘qituvchidek xis qilishadi. Uyga oldindan mavzu berib yuboriladi. Tayyorlanib kelgan talaba shu mavzuni gapirib tushuntirib beradi. Qo‘lidan kelgancha tajriba xam qilib ko‘rsatadi. U o‘rtoqlariga mavzu yuzasidan tushunchalarni beradi. Boshqa o‘quvchi shu mavzuga doir tajriba ko‘rsatadi.

Bu texnologiya bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning jumladan, Amerika Qo‘shma shtatlari, Germaniya, Yaponiya va Rossiya davlatlarining oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda keng qo‘lanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T.,”Ozbekiston”, 2002.

2. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov. Anorganik kimyo”O’zbekiston”, 2003.

3. М. Камолиддинов, Б. Вахобжонов, Инновацон педагогик технологиялари асослари, Тошкент, 2010.

4. Б.Ходиев, Л.В. Голишев, Д.Хошимова, Мустакил укув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари, Тошкент, 2011.

INTEGRATIV YONDASHUV - O'QUVCHILARDA TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Abdufatayev Sherjaxon - Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: Sherjahonjon07@gmail.com

Annotatsiya. Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi bosqichida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlari: Integratsiya, integrativ metodika, integratsiyalashgan texnologiyalar,kompetensiya, kompetentli yondashuv, Axborot kommunikatsiya, didaktika, STEAM, axborot-ta'lim muhiti, interoektsiya, sinektika, kogerentlik.

Mamlakat ta'lim tizimini barqaror rivojlanish hamda modernizdtsiyalash jarayonlariga moslashtirish, o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, integratsiyalashgan texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llash orqali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb qiladi. Chunonchi, ta'lim muassasalarining zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakllantirish va yanada mustahkamlash, undan oqilona foydalanish bo'yicha yuqori samarali o'quv-laboratoriya, kompyuter texnikasi va boshqa axborot- kommunikltsiya uskunalari bilan jihozlashni o'z ichiga oladigan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlarining yangi avlodi kompetentli yondashuvga asoslangan bo'lib, bu bilan bog'liq holda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini qanday qilib shakllantirish, qanday mexanizm yordamida shakllantirish muammosining amaliy echimini kutmoqda.

Kompetentsiya ta'limdagi yangilik sifatida birdaniga vujudga kelmaydi. Buning uchun nafaqat pedagoglar, balki o'quvchilarning bilimlarni shunchaki amaliyotda qo'llashi emas, shaxs sifatida o'ziga xos qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi, tashqi va ichki to'siqlarni engishi talab qilinadi. Qulay strategiyani amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tizimlilik va integrltsiyani ta'minlash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Analysis of literature on the topic): Ilmiy adabiyotlar tahlili zamonaviy ta'limning turli sohalarida integratsiyalash masalasi pedagogik jarayonning dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof qilinadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim tizimida, fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, uning pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq qilish muammolarini hal qilish zamon talabiga aylanmoqda. Shuning uchun biz, birinchi navbatda, "integratsiya" terminining ma'nosi, mohiyati va ta'rifiga to'xtalishni lozim topdik.

Integratsiya - ayrim bo'laklar yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi hamda bir

butunga aylanishi, demakdir.

"Integratsiya" so'zi lotincha "integratio" so'zidan ("integr" - to'liq, butun, yaxlit) olingan bo'lib, "qayta qurish, tiklash, to'ldirish", "integratsiya" -"o'zaro bog'langan holda rivojlantirish", "integratsiyalash'"- "bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmok" degan ma'nolarni anglatadi.

Didaktikada o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash muammosiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu muammolar tahlili asosida o'quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik yo'nalishlari belgilab berildi. Ayniqsa, V.N.Fedorova rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar fanlararo aloqadorlikning nazariy asoslarini bayon etganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashning didaktik jihatlari faqatgina muayyan o'quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi deyiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Pivovarova ishlarida integrativ metodikaning ta'limga texnologik yondashuvlar tavsifi quyidagicha bayon qilingan:

- "integrativ metodika" atamasini qo'llashdan asosiy maqsad ta'limga texnologik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab, ulardan foydalanishda pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg'unlashtirishni tatbiq qilish modellarini ishlab chiqishdir.

- ta'lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanishi bir qancha didaktik, metodik va kognitiv omillarga bog'liq. Ta'lim jarayoni, uning sub'ektlari va ob'ekti o'rtasidagi integrativ jarayonlarni tashkil qilishning o'zi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyati natijasidagi kognitiv kategoriyalar asosidagi modellar mavjudligini taqozo qiladi [45; 54-b.].

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv fanlararo aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlangan pedagogik sharoitda o'qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tutgan o'rnini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Integrativ yondashuv - turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va kompetentsiyalarni baravar rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo'lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko'p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi tizimlarni birlashtiradi. Integratsiya bilish mexanizmi asosida yotadigan qismlarni yaxlit sintezlash nuqtai nazaridan bilish strategiyalari kabi farqlanadi va natijada ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Dunyoda fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika fanlarini chuqur o'rganishga asoslangan (STEAM) ta'limni keng joriy etish asosida tabiiy fanlar, jumladan, texnologiya fanini o'qitish jarayoniga kompetentsiyaviy yondashuvni tatbiq qilish, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga doir xalqaro baholash

dasturlarini ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish, "kompyuterli ta'lim"ni ta'lim amaliyotiga joriy qilish biologiya fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, axborot-ta'lim muhitida integrativ yondashuvni amalga oshirish vazifasini qo'ymoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology): Tadqiqot olib borish jarayonida ta'lim texnologiyalarining integrativ xususiyatlari bir qancha omillarga bog'liq ekani ma'lum bo'ldi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-7 - sinflarida texnologiya fanini o'qitish jarayoni o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishida uzviylik printsipiga amal qilish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, shuningdek, mazkur fan asoslarining tarbiyaviy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarga bog'liq ekanini har tomonlama tahlil qilish zarurati tug'ildi. Ta'limdagi integrativ texnologik jarayonlarning asosiy mazmunini yaratilgan ilmiy manbalarga tayanib, quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, an'anaviy o'qitish yozma va og'zaki usullarga tayanib ish ko'radi, an'anaviy o'qitishni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda ta'lim jarayonida axborot-ta'lim muhitini shakllantirish zarur; umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuterli ta'limni joriy etilmasligi yoshlarimiz kelajagi uchun xavfli holatdir

- ikkinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha mediata'lim printsiplari asosida yondashuvni taqozo qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results): Demak, integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni uch yo'nalishda kognitiv, kontseptual, integrativ model asosida shakllanadi (*jadvalga qarang).*

Integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni yo'nalishlari

Kognitiv	Kontseptual	Integrativ
Interoektsiya - o'quvchi individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi. **Sinektika** - turli fanlar bo'yicha amalga oshirilayotgan o'quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish. **Kogerentlik** - integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlarni asosan texnologik turkum fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylashtirish.	Fanning kontseptual-tarixiy aspektlari, evolyutsion rivojlanish bosqichlari, tajribalar, zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari	**Gorizontal** - fanlar aro (fizika, kimyo, geografiya, biyalogiya). **Diagonal** - fan ichida (fizika, bialogiya, kimyo va x.k.). **Vertikal** texnologik: pedagogik, axborot-kommunikatsiya tarmoqlararo: nonotexnologiya, kibernetika,

Interoektsiya – o'quvchining individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarning tafakkuri muhim o'rin tutadi.

O‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishda shaxsning tafakkuri muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkurning sofistik, eklektik, metafizik-dogmatik, dialektik usullari mavjud bo‘lib, inson tafakkuri faoliyatning turli qirralari sifatida bir- biriga qarama-qarshi, ayni vaqtda bir-birlarini to‘ldiradi.

Tafakkur xotirada yig‘ilgan axborotni qayta ishlashi, umumlashtirishi natijasida voqealarning rivojlanishi, takomillashishi to‘g‘risida taxmin qilish, oldindan aytib berish uchun shart-sharoitlar tug‘iladi. Texnologiya fanini o‘qitishda integrativ yondashuv orqali tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda texnologiya fani ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli o‘quv vaziyatlarini hal qilishda tafakkur operatsiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning aqliy faoliyati, aql-zakovatini rivojlantirish, ongli xatti-harakatga yo‘naltirish ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Texnologiya fanini o‘qitishda foydalanilgan keys-stadi, amal va hato, aqliy hujum, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari, fanga oid kompetentsiyalarni baholash maqsadida shakllantirilgan test topshiriqlari axborotni qayta ishlash, tahlil, sintez, qiyoslash, abstraktsiyalash orqali umumlashtirish, xulosalash, o‘quv muammosining echimini topish yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini berdi.

Sinektika - turli fanlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish [45; 48-b.]. Ayrim faoliyat turlarida bu jarayon “integratsiya” ham deb ataladi. 5-7- sinflarda texnologiya fanini o‘rganishda turli bilimlar majmui bir ilmiy-kognitiv yo‘nalishga birlashadi. Sinektika - turli rejali (turli sifatli va turli modallikdagi) bilimlarni yangi sifatli sintezlash qobiliyati. U inson qobiliyatlarining hech qanday umumiy bog‘liqlikka ega bo‘lmagan (daryolar oqimi, insonlar oqimi, axborotlar oqimi va h.k.) turli-tuman jarayonlarda simultan fikrlashiga asoslanadi. Psixologiyada an'anaviy bilish faoliyatini faollashtirish mexanizmi, o‘qitishning faol metodlari (masalan, M.A.Granovskaya “aqliy hujum” metodining sinektik modifikyatsiyalashni tavsiflaydi) sifatida qo‘llanadi. O‘quv jarayonini sinektik integratsiyalash sifatida o‘zaro yaqin bo‘lmagan ta'lim sohalari va bloklarini integratsiyalash ko‘rib chiqiladi. Bunday tipdagi integratsiyalashgan kurslar an'anaviy sohaviy o‘qitishda ma'lum metodik chegaralarda bilish to‘siqlarini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan.


Texnologiya fanini o‘qitishda o‘rganilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tabiiy fanlar: fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya sohalarida o‘zaro aloqador tabiiy-ilmiy g‘oya, qonuniyat va tushunchalar, protsedura va ilmiy bilish metodlaridan foydalaniladi. Masalan, yog‘ochga ishlov verish texnologiyasi mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarning kimyo, uning funktsiyasini o‘rganishda esa fizika fanida o‘rganilgan qonuniyatlardan foydalaniladi. O‘quvchilarning tabiiy fanlardan o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatda foydalanish sinektika

qoidalariga mos keladi.

Kogerentlik integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlar asosan fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylanishini taqozo qiladi. Texnologiya fanini o‘qitishda yakkalik, xususiylik va umumiylik kabi falsafiy tushunchalar haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi. Masalan, texnologik jarayondagi bajarilishi kerak bo‘lgan va rioya qilinishi kerak bo‘lgan texnik xavfsizlik qoidalari bid umumiylikni aks ettiradi.

Shuningdek, amaliy fanlarning rivojlanishi, fanlar o‘rtasida differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi ob’ektiv qonuniyat sifatida texnologiya, biologiya, kimyo va fizika kabi fanlar o‘rtasida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirishni talab qiladi.

Kogerentlik -yangi tizimlarning strukturalarini chidamli, tartibli yaratish jarayonida kichik tizimlarning o‘zaro muvofiqlikdagi harakati. O‘qitishda kogerent integratsiya hozirgi davrda o‘quv jarayonida integratsiyalashning eng ko‘p tarqalgan turi hisoblanadi. Kogerent model umumiy o‘rta ta’limda: texnologiya va fizika, fizika va biologiya, fizika va kimyo kabi integratsiyalashgan kurslarda taqdim qilinadi. Bunday integratsiyalash asosida, bir tomondan, tabiat, madaniyat va fan olami haqida yaxlit tasavvurlarning shakllanishiga erishilsa, boshqa tomondan, o‘quv vaqti tejaladi. Bunday integratsiya nafaqat texnologik fanlariaro (vertikal), balki fanlararo (gorizontal) muhim tabiiy-ilmiy va madaniy hodisalarni sinxronlashgan o‘rganish, pedagogik jarayonni yuqori darajada intensifikatsiyalash, mazmunli fanlararo aloqalarni o‘rnatish, o‘quv materialini ko‘chirmaslik imkonini beradi. Kogerent modelni amalga oshirishning quyidagi texnologiyalaridan foydalaniladi: integratsiyalashgan kurs bir ta’lim sohasiga kiradigan fanlar mazmuniga muvofiq yaratiladi. Shuning uchun bir fan mazmuniga tushadigan og‘irlik boshqa fan mazmuniga tushmaydi va “teng” taqsimlanadi.



Ўқувчиларда таянч компетенцияларни ривожлантириш тизими

Texnologiya fanini o‘qitish jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot

texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish yuqorida qayd qilingan dolzarb muammoning ijobiy echimini topishga xizmat qiladi.

Demak, ta'lim jarayoniga integrativ yondashuv masalasi qandaydir umumiylik xususiyatiga ega. Chunki ta'lim jarayonida foydalanilayotgan integrativ yondashuv texnologiyalarini pedagogik va axborot-kommunitatsiya texnologiyalarga bo‘lishni taqozo qiladi. Bu integratsiyalashgan texnologiyalarning yo‘nalishlari har xil bo‘lgani bilan, ularning uzviylashadigan umumiy tomonlari ham bor. Maktabda texnologiya fanini o‘rganish, integrativ yondashuv asosida axborot-kommunikyatsiya texnologiyalarni qo‘llashning optimal(samarali) yo‘llarini belgilashda uzviylik printsiplarini tadqiq qilish hamda ularning aniq mezonlarini belgilash muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalaniklan adabiyotlar (Used literature):

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. .- Toshkent. 2013. - B. 64.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.- М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336.

3. Галеева Н.Л. Система компетенций как инструмент управления качеством образования // Интернет-журнал “Эйдос”.2007. 30 сентябряhttp://www.eidos.ru/journal/2007/0930.

4. To‘raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O‘zMU, 2018. -B. 27.

5. Xasanova Sh.B. Elektron ta'lim resurslari tayyorlash va undan foydalanish tajribalari. Uzluksiz ta'lim. -Toshkent. 2017, №5. - B. 4651

6. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В.В. Краевского. Электронный ресурс.

7. Sharipov Sh.S, Aripov M, Begimqulov U.Sh. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.

8. AKT yordamida biologiyani o‘qitish. Umumta'lim maktablariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish loyihasi. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. -Toshkent. 2010. - B. 11.

9. Abdufatayev, S. (2024). Fanlararo integratsiya–ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy omili. *News of UzMU journal*, *1*(1.1. 1), 31-35.

10. Boymatov, N. (2022). Pedagogical aspects of improving the content of corporate culture in the process of informatization of education. *Science and Innovation*, *1*(8), 538-542.

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATGA KASBIY TAYYORGARLIKNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Toshev Salimjon Nurboboyevich - Shahrisabz davlat pedagogika institutisi o‘qituvchisi
Gmail: salimtoshev053@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikning pedagogik yondashuvlari, fizika fani o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o‘ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsiya, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, muammoli texnologiyalari, interfaol metodlar.

Fizika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning zamonaviy tadqiqot ishlar kasbiy faoliyatning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion sohalarning aloqadorligini inobatga oluvchi shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida olib boriladi. V.A.Slastenin pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlikni ko‘rib chiqishda funksional ravishda quyidagilarni ajratadi:

1) psixologik tayyorlik, ya'ni pedagogik faoliyatga shakllangan (turli darajada) yo‘nalganlik, maktabda ishlash;

2) ilmiy-nazariy tayyorgarlik, ya'ni kompetent pedagogik faoliyat uchun talab etiladigan ijtimoiy-siyosiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy bilimlarning zaruriy hajmi mavjudligi;

3) amaliy tayyorgarlik, ya'ni talab etilgan darajada shakllangan kasbiy ko‘nikma va malakalar mavjudligi;

4) psixologik-fiziologik tayyorgarlik, ya'ni pedagogik faoliyat va ma'lum mutaxassislikni egallash uchun mos shart-sharoitlar mavjudligi, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarning shakllanganligi;

5) jismoniy tayyorgarlik, ya'ni salomatlik holati va jismoniy rivojlanishning pedagogik faoliyat va kasbiy ishlash qobiliyati talablariga mosligi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi - bu mustaqil, maqsadga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich ravishda ehtiyojli-motivatsion soha asosida o‘zining pedagogik vaziyatini o‘zgartirishning barqarorligi va zarurligiga ko‘ra turli usullar bilan loyihali obrazga erishish bo‘yicha pedagogik shaxsiy faoliyat va unga tuzatishlar kiritishni amalga oshirishdan iborat.

Fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri pedagogning quyidagi jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari shakllanganligi hisoblanadi:

1) pedagogik faoliyat ijobiy natijalarining barqarorligi (A.K.Markova);

2) yangi ish shakllari va metodlaridan tizimli foydalanish (O.A.Izosimova);

3) talabalar bilan hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasi (V.Lyaudis);

4) kasbiy malakani tizimli oshirish (A.K.Markova);

5) pedagogik tadqiqotchilik faoliyatini metodlarini egallaganlik (V.Maksimova);

6) stressga bardoshlilik, o‘z-o‘zini boshqarish (G.S.Suxobskaya);

Shu tariqa, o‘qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarligining barcha sanab o‘tilgan kasbiy-shaxsiy sifatlari tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional kabi 3 ta komponentiga tizimlashtirilgan. Bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini o‘rganishning nazariy va metodologik asoslarini innovatsion xususiyatga ega bo‘lgan innovatsion faoliyat tuzilishi bilan bog‘liq. Innovatsion faoliyat tuzilishi o‘qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning komponenti sifatida shakllantirish quyidagi shart-sharoitlarga bog‘liq:

• pedagogik niyatning yuzaga kelish vaqti (ma'lumki, pedagogda yuzaga keladigan har qanday niyat ham emas, balki biron-bir pedagogning muayyan rivojlanish darajasi, pedagogik muammoni to‘g‘ri idrok etish qobiliyatining darajasidagi pedagogik vaziyati bilan bog‘liq bo‘lgan);

• niyatni uning butun turli-tumanligida ishlab chiqish, o‘qituvchining kreativ fikrlashni namoyon etish qobiliyati va mavjud variantlar o‘rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni qisqa muddatlarda optimal hal etishning usullari, ehtimoliy yo‘llarini taklif etishga bog‘liq bo‘lgan muayyan pedagogik muammo yechimining mumkin bo‘lgan variantlarini taklif etish;

• pedagog niyatining amaliy ro‘yobga chiqarish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan, niyatni faoliyatda amalga oshirish jarayonida pedagogning barqarorligi (ya'ni niyat va uni amalga oshirish o‘rtasidagi, o‘qituvchi faoliyatining mazmunli yoki natijali tomonlaridagi o‘zgarishlar sababli yuzaga kelgan, muqarrar ziddiyatga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati to‘g‘risida gap bormoqda);

• dastlabki niyat (niyatning boshlanishi nuqtasi) va uni faoliyatda amalga oshirish (natijada, ifodalangan niyatning yakunlanish nuqtasi) o‘rtasidagi aloqaning saqlanganligi, bunda natija niyatni amalga oshirishning yakunlanishi sifatida uning boshi bilan bog‘liq bo‘lishi, niyat va natijaning mos tushishi yoki mos tushmasligi aloqaning saylanganligi darajasini ko‘rsatadi va bir vaqtda ularning dinamik rivojlanishidagi farqlarni ko‘rsatadi, bu esa niyatning faoliyatda sifat ko‘rinishida amalga oshirish darajasi ko‘rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lib, usiz barqaror hodisa sifatida tushuniladigan innovatsion faoliyat ifodalanishi va belgilanishi mumkin emas;

• o‘qituvchi niyatining saqlanganligi va barqarorligiga bog‘liq ravishda niyatni amalga oshirish natijasi ifodalanganligi va talaba niyatining saqlanganligi (uning talaba tomonidan qabul qilinishi) va barqarorligi (uning faoliyatga aylanishi) bilan bog‘liqligi imkoniyati – bunda o‘qituvchi faoliyati talaba faoliyati bilan aloqadorligining adekvatligi to‘g‘risida gap boradi;

• mazkur holatda biz innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligining ifodalanganligi va belgilanganligi yana bir barqaror ko‘rsatkichi - o‘qituvchining innovatsion jarayoni va talaba ijodiy jarayonining aloqadorligi to‘g‘risida aytish mumkin.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi - o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining ijtimoiypsixologik tavsiflari. Fizika o‘qituvchisi sifatlarining bunday tavsiflari uning axloqiy-siyosiy, umummadaniy va psixologik-pedagogik tayyorgarligi bilan belgilanadi. Mazkur umumiylik asosida - o‘qituvchining ijtimoiy hayotga, madaniyatga, o‘zining kasbiga va o‘z-o‘ziga fuqarolik munosabati yotadi.

O‘qituvchining shaxsi kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik, pedagogik faoliyatga ehtiyoj bilan tavsiflanadi. O‘qituvchiga quyidagi shakllantirilishi mumkin bo‘lgan kasbiy sifatlar zarur: talabaga shaxs sifatidagi qiziqish, uning qiziqishlari va xususiyatlarini o‘rganish va tushunish ko‘nikmasi, pedagogik kuzatuvchanlik; muloqotchanlik (kommunikabellik), tasavvur, pedagogik axloq; tashkiliy ko‘nikmalar; keng ma'naviy qiziqishlar, bilishga oid ehtiyojlar, ijtimoiy muammolarni tushunish; ta'limning umumiy ishiga, maktab pedagogik jamoasining ma'naviy-psixologik farovon muhitiga qiziqish.

O‘tiladigan fanlarining yuqori murakkablik darajasi, ularni mukammal bilish, fikrlash va nutq madaniyati o‘qituvchi uchun nafaqat bolalar bilan o‘quv-tarbiya ishlarini o‘tkazish uchun, balki talabalarning hurmatlarini, izlash keng doirasini, bashoratlash ko‘nikmasini, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning shaxsiy, o‘ziga xos metodini izlashni ta'minlovchi shaxsiy sifatlar tariqasida ham zarurdir.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchi izlanuvchan, andozalar bilan qoniqmaydigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Barcha holatlar uchun majburiy bo‘lgan ta'lim va tarbiyaning yagona metodikasi mavjud emas: har bir o‘qituvchi novator bo‘lishi, uning shaxsiy sifatlariga javob beradigan o‘z yondashuvlarini topishi mumkin. Kasbiy mahoratni egallash faqatgina inson to‘g‘risidagi, talaba to‘g‘risidagi bilimlar boyligini chuqur, har tomonlama egallash asosida hosil bo‘lishi mumkin - psixologiya, falsafa, pedagogika turli o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi. Yuqori pedagogik madaniyat o‘qituvchiga ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli

tanlash imkonini beradi va bu o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosida yotadi.

Fizika o‘qituvchisi o‘z kasbi uchun apatiya, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik, ularga va ularning taqdirlariga befarqlik, jizzakilik, yengiltaklik, qarorlarni qabul qilishda, xulq-atvordagi shoshqaloqlik va o‘ylanmaslik kabi mumkin bo‘lmagan shaxsiy sifatlarni yengadi.

Demak, fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan majburiy hisoblanadi va boshqa tomondan - ularni bilish o‘qituvchiga innovatsion yo‘nalishlar va texnologiyalar ko‘rinishlarini tushunishiga, o‘zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlash uchun va aniq ijodiy pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - Б. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Methods of increasing the heuristic activity of students in teaching physics Toshev Salimjon Nurboboevich Shakhrisabz State Pedagogical Institute https://doi.org/10.5281/zenodo.10155108*243-249 b.*

4. Fizika darslarida “Yarimo‘tkazgichlar” mavzusini o‘qitishda talabalarni evristik faolligini rivojlantirish metodikasi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali Toshev Salimjon Nurboboevich 1.11.2023yil*263-266 b.*

5. Jalolova P.M. Hydrogen atom: quantum numbers, energy spectrum, orbital impulse momentum and its spatial quantization // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – Germany, 2021. – Vol. 1. – No. 2. – P.1-4. (13.00.00 №7)

6. Jalolova P.M. Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system // Solid state technology. – Egypet, 2020. – Vol. 63. – № 6. – P. 152-158 Year: (Scopus).

7. Treninglar o‘quv dasturi “Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablar uchun” Metodik tavsiya. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi. Toshkent – 2021

KAFT TUZILISHI TASVIRLARI ASOSIDA SHAXSNI BIOMETRIK IDENTIFIKATSIYALASH

Qodirov Asliddin Asomiddin o'g'li, Abduraxmonov Muhammad Sulaymon o'g'li – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Dasturiy injiniring" kafedrasi o'qituvchilari


Annotatsiya: Kaft izini tanib olish odamlarni identifikatsiyalash va tekshirishda qo'llaniladigan asosiy biometrik texnologiya bo'lib, ularning kaft izlariga xos bo'lgan o'ziga xos naqshlarga tayanadi. Ishonchliligi va xavfsizligi bilan mashhur bo'lgan bu usul turli sohalarda, jumladan, kirishni boshqarish, xavfsizlik tizimlari va sud-tibbiy tekshiruvlarda keng qo'llaniladi


Kalit so'zlar: Biometrika, kaft izini aniqlash, Fleksion burmalar, shaxsiy autentifikatsiya.

Biometrik texnologiya shaxsiy autentifikatsiya uchun eng muhim va samarali yechimlardan biridir. Biometrika - bu shaxsni aniqlash va tekshirish bilan shug'ullanadigan soha, fiziologik va xulq-atvor xususiyatlariga asoslanadi. Bu xususiyatlar yoki identifikatorlar doimiy, noyob va bir shaxsni boshqasidan ajratishi mumkin. Biometrik tanib olish tizimlari murakkab ta'riflarni birlashtiradi [Kong A, Zhang D – 4-b].

Kaftning ichki yuzasida odatda uchta egilish burmalari, ikkilamchi burmalar va tizmalari mavjud. Fleksion burmalar asosiy chiziqlar, ikkilamchi burmalar esa ajinlar deb ataladi. Fleksion va asosiy ikkilamchi burmalar homiladorlikning uchinchi va beshinchi oylari orasida shakllanadi [M. Cannon, M. Byrne 6-b] va biz tug'ilgandan keyin yuzaki chiziqlar paydo bo'ladi. Hatto bir xil egizaklarning ham kaft izlari har xil bo'ladi [D. Zhang, G. Lu 8-b]. Ushbu genetik jihatdan deterministik bo'lmagan va murakkab naqshlar shaxsiy identifikatsiyalashda juda foydali.


Inson kafti bu barmoqlar ostidagi qo'lning tekis qismi, barmoq izlariga o'xshash asosiy chziiqlar bilan aniq belgilangan. Quyidagi rasmda ko'rsatilganidek uning o'ziga xos xusussiyatlari orasida yuqori aniqlikda ko'rinadigan tizmalar va kaft izi naqshlari kiradi. Kaft izi bosma ma'lumotlar shaxslarni aniqlashning yana bir keng tarqalgan usulidir. Tadqiqotlarga ko'ra kaft izlari naqshlari va arteriyalar odamlarni aniq aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Shaxsning kaft izini turli xil xususiyatlar jumladan geometrik xususiyatlar, asosiy chiziqlar va ajinlar aniq va noyob naqshlarni hosil qiladi. Ushbu usullar biometrika va shaxslarni indentifikatsiyalashda qo'llaniladi. Qon tomirlarining joylashuvi nuqtai nazaridan, kaft izlari ko'plab xususiyatlarga va identifikatsiyalash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan farqlovchi xususiyatlar to'plamiga ega[K.M Alishak va R. Yildirim 8-b].





Kaft izini aniqlash jarayoni bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Tasvirni olish va normallashtirish va yaxshilash uchun oldindan ishlov berish, tavsiflovchi xusussiyatlarni ajratib olish va tasniflash uchun naqshlarni moslashtirish.

Kaft izini aniqlash tizimlari odatda olti xil qayta ishlash bosqichini yoki modullaridan iborat: tasvirni olish, tasvirni oldindan qayta ishlash, xususiyatlarni ajratib olish, kaft izini moslashtirish va qaror qabul qilish. Har bir modulning tafsilotlari keyingi bo‘limlarda keltirilgan. Kaft izini aniqlash tizimlarining ikki turi mavjud – kontaktga asoslangan kaft izini va kontaktsiz kaft izini olish qurilmasi bilan aloqaga asoslangan. Kaft izini tasvirlarni qayta ishlash, tekislash va markazni segmentlash uchun ishlatiladi.



Tasvirlarga ishlov berish algoritmlarining aksariyati o‘rtasidagi asosiy nuqtalardan foydalanadi. Oldindan ishlov berish beshta umumiy bosqichni o‘z ichiga oladi, 1) kaft tasvirlarini binarizatsiya qilish, 2) qo‘l va/yoki barmoqlar konturini chiqarish, 3) aniqlash asosiy nuqtalar, 4) muvofiqlashtirish tizimini yaratish va 5) markaziy qismlarni ajratib olish.

Barcha dastlabki ishlov berish algoritmlaridagi birinchi va ikkinchi bosqichlar o‘xshashdir. Biroq uchinchi bosqichda bir nechta turli xil ilovalar mavjud, shu jumladan tangensga asoslangan, bisektor- barmoqlar orasidagi asosiy nuqtalarni aniqlash uchun va barmoq asosidagi [C.C. Han, H.L. Cheng 5-b]. Tangensga asoslangan yondashuv ikkita chegarani ko‘rib chiqadi - biri nuqta barmoqdan va o‘rta barmoq va ikkinchisi halqa barmog‘idan va oxirgi barmoqdan ikkita qavariq egri va bu ikki egri chiziqning tangensini hisoblaydi. Ikki kesishma ikkita deb hisoblanadi koordinatalar tizimini yaratishning asosiy nuqtalari. Tangensga asoslangan yondashuvlar bir nechta afzalliklari. Ular barmoqlarning pastki qismidagi juda qisqa chegaraga bog‘liq. Shuning uchun, to‘liq bo‘lmagan barmoqlar (nogironlarda bo‘lgani kabi) va halqalarning mavjudligi uchun mustahkamdir Bissektrisaga asoslangan yondashuv ikkita nuqtadan, a ning og‘irlik markazidan foydalangan holda chiziq quradi barmoq chegarasi va uning boshlang‘ich va tugash nuqtalarining o‘rta nuqtasi. Chiziqning kesishishi barmoq chegarasi esa asosiy nuqta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kong A, Zhang D, Kamel, M. A Survey of Palmprint Recognition. Pattern Recognit. 2009, 42, 1408–1418. [CrossRef]
2. Kong, D. Zhang, G. Lu, A study of identical twins palmprint for personal verification, Pattern Recognition 39 (11) (2006) 2149–2156.
3. M. Cannon, M. Byrne, D. Cotter, P. Sham, C. Larkin, E. O‘Callaghan, Further evidence for anomalies in the hand-prints of patients with schizophrenia: a study of secondary creases, Schizophrenia Research 13 (1994) 179–184.
4. C.C. Han, H.L. Cheng, C.L. Lin and K.C. Fan, "Personal authentication using palm-print features", Pattern Recognition, vol. 36, no. 2, pp. 371-381, 2003

TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING AYRIM DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH UCHUN BA'ZI BIR USLUBIY TAVSIYALAR

Haydarova Kamarbasta -Andijon viloyati Buloqboshi pedagogika kolleji katta o'qituvchisi, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirish maqsadida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning ayrim dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish uchun ba'zi bir uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, oliy ta'lim, ta'lim-tarbiya, nazorat qilish, baho, ball, baholash, ta'lim sifati, iqtidor.

Hozirda amal qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"[6]gi 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'ida Oliy ta'limda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning turlari va shakllari, talaba erishishi mumkin bo'lgan baho va ballarining miqdorlari yetarlicha aniq va ravshan belgilab qo'yilganligi bois, ular ko'pchilikda e'tiroz yoki tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmaydi. Lekin shuni ham e'tirof etish kerakki, bu meyoriy hujjatlarda talabalar bilimini baholashning boshlang'ich va eng muhim bo'g'ini-asosi (poydevori) bo'lgan talabalarning dars-mashg'ulotlarni o'zlashtirganlik sifat darajasini og'zaki so'rov jarayonida va yozma nazorat ishlarida kundalik baholashning mezonlari (kriteriyalari) va shu baholash ishlarini qayd qilish usullari (rasmiy hujjatlashtirish darajasida) yetarlicha aniq va batafsil ko'rsatilmagan. Bu xol amalda talaba bilimini baholash ishlarini o'qituvchilarning faqat shaxsiy tajriba, imkoniyat va o'z ishiga mas'ullik xissiyoti doirasida amalga oshirilishiga olib kelmoqda.

Amalda qo'llanilinayotgan va me'yoriy hujjatlarda qo'llanishi tavsiya etilgan boshqa qaydnomalar baholashning faqat natijaviy (pirovard) ko'rsatkichlarinigina aks ettirib, ular talabalar bilimini "kundalik" joriy nazorat jarayonidagi baholash natijalarini qayd etib borish yoki tahlil etish imkoniyatini bermaydi. Hozirda amalda qo'llanilayotgan HEMIS dasturi esa bu vazifani baholash talablari doirasida mazmunan va shaklan to'laqonli bajarilishini mutlaqo ta'minlay olmaydi.

[6] O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"[6]gi 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i

Mo'minova Mavjuda Sharifovna - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 1 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan yanada takomillashtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Maqolada viloyatning ziyorat turizmi imkoniyatlarini xorijiy mamlakatlarda targ'ibot qilish orqali turistlar oqimi oshirish bayon qilingan.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, turoperator, turagent, mehmonxona.

So'ngi yillarda barcha hududlarda bo'lgani singari Surxondaryo viloyatida ham turizm tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda hududning noyob tarixiy-madaniy va me'moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish hamda ichki turizmni rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyatning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 332-son qaror qabul qilingan.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi hududning turistik imkoniyatlari yanada oshishiga, ziyorat turizm salohiyatidan samarali foydalanilgan holda sayyohlar sonining oshishiga, madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va tiklash uchun respublika budjeti mablag'lari ajratilishga hamda xorijiy mamlakatlarda viloyatning turistik salohiyatini chet eldagi elchixonalarimiz orqali targ'ibot qilishga turtki bo'lmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yil 17-noyabrida Prezidentingiz raisligida o'tkazilgan "Surxondaryo viloyatini ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig'ilish"da ham viloyatda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida "Samarqand–Kitob–Denov–Oltinsoy–Termiz" marshruti bo'ylab "Naqshbandiya pirlari" turizm halqasi" va kelgusi yilda viloyatga sayyohlar oqimini 3 barobar oshirish" vazifalarni belgiladilar[1].

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, ichki va ziyorat turizmini tashkil etish, hududda arxeologik, ekstremal va madaniy turizm yo'nalishlarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslari Eshtayev A. A., Tuxliyev I. S., Aliyeva M. T., Xudoyorov A., Safarov B. Sh., Norchayev A. A., Safayeva S. R., Mazin K. A., Maxmudova M. R., asarlarida tadqiq etilgan[2].

P.Z.Xashimov va Z.N.Turayevlarning "Surxondaryo viloyatida turizm sohasining rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" maqolasida Viloyatning o'ziga xos me'morchilik obyektlari, diniy ziyoratgohlari, jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan milliy urf-odatlari, oshxonasi hamda tog'oldi hududlaridagi ko'plab dam olish maskanlari, bolalar oromgohlari, davolash-sog'lomlashtirish maskanlarining mavjudligi va turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatdan unumli foydalanishda tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, asosiy yo'nalishlari bo'yicha ijtimoiy va transport infratuzilmalarini barpo etish lozimligi bayon qilingan[6].

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan olimlarning fikr va mulohazalari hamda hududning turistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyatiga turistlarni yanada jalb qilish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish maqsadida, uning tusristik salohiyatini xorijiy malakatlarda targ'ibot qilishi ishlarini yanada kuchaytirish, viloyatga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan investitsiyalar oqimini oshirish, arxeologik hamda ekstremal turizm Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida targ'ibot qilish tavsiya etilmoqda.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishni belgilashda tadbirkorlik subyektlari tomonidan kiritilayotgan investitsiylar va ularga berilayotgan subsidiyalarni hisobga olish va shu orqali turizmning barqaror rivojlanishini tizim sifatida o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o'rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm sohasini tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo'nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, kelajakda viloyatda turizm tarmog'ini rivojlanishi yo'nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va mintaqada turizmni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlar sonining ortishi tabiiyki joylashtirish vositlariga bo'lgan talabning ham ko'payishiga turtki bo'ladi. Xususan, 2022-yil davomida 142,3 ming nafar va 2023-yilning 10 oyi mobaynida 239,9 ming nafar xorijiy turistlar viloyatga tashrif buyurgan.

O'z navbatida, viloyatda 2017-yilda joylashtirish vositalari jami 27 ta mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib joylashtirish vositalarining umumiy soni 227 tani tashkil etgan.

1-jadval: Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan joylashtirish vositalari haqida ma'lumot

№	Hudud nomi	Joylashtirish vositalari								
		mehmonxonalar			oilaviy mehmon uylari			sanatoriyalar va sog'lomlashtirish muassasalari		
		soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni
1	Angor tumani							1		20
2	Boysun tumani	8	106	287	45	14	144	4		150
3	Jarqo'rg'on tumani							6		130
4	Muzrabot tumani							1		50
5	Oltinsoy tumani	1	10	18	1	3	10	2		230
6	Sariosiyo tumani	3	41	97	32	74	251	1		100
7	Termiz shahar	22	682	1101	27	84	251	15		520
8	Termiz tumani	4	147	238	7	17	58	9		380
9	Uzun tumani	2	35	72						
10	Sherobod tumani	4	54	117	5	16	47	6		155
11	Sho'rchi tumani	5		130	2	6	18	4		120
12	Qiziriq tumani							2		50
13	Qumqo'rg'on tumani	1	16	30				5		130
Jami		**50**	**1091**	**2090**	**119**	**214**	**779**	**56**	**0**	**2035**

Yuqorida keltirilib o'tilgan jadvaldan ham ko'rish mumkinki, joylashtirish vositalarining asosiy qismi Termiz shahri, Boysun, Termiz, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida joylashgan.

Viloyatda ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Angor tumanidagi "Sayid Baraka" jome masjidi Sariosiyo tumanidagi "Abdullo ibn Abbos", "Imom Muxammad al Buxoriy" jome masjidi, Boysun tumanidagi "Abu Bakr Siddiq" jom'e masjidlari 10,0 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga qurib foydalanishga topshirilgan.

Termiz shahridagi "Qirqqiz qal'asi" va Termiz tumanidagi "Zurmola" madaniy meros obyektlari restavrat- siyasi uchun 3,7 mlrd. so'm respublika budjeti mablag'lari ajratilgan. Viloyatdagi madaniy meros obyektlari, ziyoratgohlar, dam olish maskanlari va boshqa 113 ta tashrif obyektlariga olib boruvchi yo'llarga jami 267 ta yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilgan.

Turistlarning o'rtacha qolish kuni 2017-yilga nisbatan 2 barobarga ortib, 3 kunni tashkil qilmoqda. 2017- yilda viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 20 ming

nafar va turistik xizmatlar eksporti 6 mln.dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 143,9 ming nafarga hamda turistik xizmatlar eksporti 15 mln. dollarga yetkazildi.

Yuqorida berilgan ma’lumotlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, Surxondaryo viloyatida turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni muntazam amalga oshirib borish lozim hisoblaniladi:

- viloyatda turizm sohasini yana qo‘llab-quvvatlanishida asosiy e’tiborni sayyohlik infratuzilmasini rivoj- lantirishga hamda sayyohlar oqimini rag‘batlantirishga oid choralar ustuvor bo‘lishini ta’minlash;
- viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar tomonidan joylashtirish vositalari bo‘lgan talab yuqori ekanligini
- inobatga olgan holda, tadbirkorlarga mehmonxona qurishga “yulduzi”dan qat’i nazar subsidiya berish;
- musulmon mamlakatlardan tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning soni ortirish maqsadida, viloyatning ziyorat turizni imkoniyatlarini Turkiya, Malayziya, Indoneziya mamlakatlarida targ‘ibot qilish;
- viloyatga ichki sayyohlar oqimini oshirish maqsadida avia va poyezd qatnovlari sonini ko‘paytirish.

Xulosa qilib aytganda, viloyatning ziyorat va ichki turizm salohiyati yuqoriligini inobatga olgan holda ushbu yo‘nalishlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish jihatidan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirib borish, turizm infratuzilmasini shakllantirishga ustuvorlik berish hamda uning turistik imkoniyatlarini xorijiy mamlakat- larida targ‘ibot qilib borish zarur hisoblaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549-son. 2019-yil 18-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil 9-fevral, PF-6165-son) Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 64 b.

5. A.Xudoyorov “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiyasi 2021-y. Toshkent.

KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Xidirova Malohat Qazaqovna - Guliston davlat pedagogika institute "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

Insoniyat taraqqiyoti jadallashgan hozirgi davrda komil inson ta'lim - tarbiyasining iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. Hozir yer yuzidagi barcha mamlakatlarda bilim kapitalga aylandi. Ilg'or texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish qurollarini boshqarish, raqobatbardosh kadrlar va tovarlar tayyorlashni zamonaviy bilimlardan foydalanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish, bunda boshqaruvning axborot texnologiyalaridan foydalanish taqoza etilmoqda.

Ilmiy-texnika inqilobi iqtisodiyotga ta'sir etuvchi omillar nisbatini o'zgartirib yubordi. Ekstensiv omillar iqtisodiyot rivojida yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bu hol kapital mablag' ajratish va ishchi kuchi miqdorida o'z aksini topayotir. Intensiv omillar birinchi o'ringa chiqdi: texnikaning, ishlab chiqarishning (yuksak saviyada tashkil etish) ishchilar malakasining yuksak saviyaga ko'tarilishini ta'minladi.

Ta'limning iqtisodiy ahamiyati ortishi bilan yirik ishlab chiqarish korxonalari, monopoliyalarining unga kuchliroq e'tibor bilan qarashiga olib keldi. Jahon mamlakatlaridagi ta'lim tizimlari davlatlararo iqtisodiy raqobatda hal qiluvchi omilga aylandi. Iqtisodiy raqobatda yutqazib qo'yishdan qo'rqish hissi xalq ta'limiga katta mablag'lar ajratib, uni isloh qilishga unday boshladi. XX asrning 60-yillarida G'arb mamlakatlarida shunday iqtisodiy raqobat amalga oshirildi.Mazkur jarayonlar insoniyatning bugungi ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini qondirilishiga olib keldi.

Yunesko, Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkilot bo'lib u 1946 - yilda tashkil etilgan. Yunesko faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir, uning ta'lim sohasidagi ishlari ko'p yo'nalishlarda olib boriladi.Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendentsiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni xam ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar.

YUNESKO faoliyati juda xilma-xil va serqirra bo'lib, uning ta'lim sohasidagi faoliyati ko'p yo'nalishlarda olib borilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda savodsizlikka barham berish, jahon ta'limining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu davlatda ta'lim siyosatini rag'batlantirish va h.k.

YUNESKO mazmunli ta'limning yagona xomashyo imkoniyati doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini aniqlash, kelajakda ta'lim va uning shaklini rivojlantirish tamoyillariga asoslanadi.

O'qituvchilar malakasini oshirish, ularning nazariy va amaliy saviyasini muntazam oshirib borish, ayrim mamlakatlarda muammo sifatida qaralayotgan ayollar va qizlarning erkaklar bilan teng ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darsliklar va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish ular o'rtasida barcha choralar bilan va boshqa ko'plab masalalarni hal qiladi.

Bu tadbirlarning barchasi yoshlarni global talablar ruhida tarbiyalash, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning nazariy-amaliy saviyasini muntazam oshirib borish, ba'zi mamlakatlarda muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olish huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal qiladi .Bu faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Fan va texnikani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liqdir. Hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini asori atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir. Bu masalada Yunesko asosiy o'rinni egallaydi.

XXasr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofotlardan holi bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqeyi mustahkamlanishi uchun sharoit yaratdi. Gumanitar fanlarda, birinchi navbatda, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik voqelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keladi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta'minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadida shunga intiluvchi g'oyalarni ifodalovchi va ulug'lovchi asarlarni yuzaga keltirdilar. Lekin, qanday qilib bo'lsa xam boylik to'plashga xarakat qilishni tasvirlovchi asarlar xam paydo bo'ldi. Bu davrda madaniyat, adabiyot va san'atning demokratik asosda rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Ayniqsa, bu narsa adabiyotda yaqqol o'z ifodasini topdi, shu sababli tanqidiy realizm va naturalizm yuzaga keldi .Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta ashyoviy dalillar to'pladilar. Bu davrda xam azaliy kurash yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, mafkuraviy, g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi.

Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar. Bu davrda falsafa fani ham rivojlanib, davrga

moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bo'lsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fanning rivojlanishi bilan uning jamiyatdagi o'rnini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni hal etishda fanning ijobiy hodisa ekanligini asoslash kuchaydi .

Tarixiy taraqqiyotining davriy modeli, Dunyo dinlari (buddaviylik, xristian, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyalari ilgari surildi. Shu tariqa cherkov vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, barcha dinlarining tengligi tamoyillariga toqat bilan ko'nika boshladi. Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi.

Shunday qilib , XIX asr oxiri XX asr boshlarida fan va madaniyat ancha yuksalib insonlarning yaxshi hayot kechirishlari uchun xizmat qila boshladi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi (xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y

3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4. Jahon mamlakatlari tarixi . 1994 y

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .

YOSHLARGA TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISDA SIDERAT EKINLARNING MUXIM AHAMIYATGA EGA EKANLIGINI TUSHINTIRISH YO'LLARI.

Xayitboyeva Nodirabegim -GulDU magistranti

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yer masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ko'plab O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Hukumat qarorlarining qabul qilinishi yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va yer munosabatlarini tartibga solishning huquqiy poydevorini yaratib berdi.

Bugungi kunda dunyoda eng dolzarb muammolardan biri bu ekologik va oziq-ovqat havfsizligidir. yerning unumdorlikka ega bo'lgan eng ustki yupqa tuproq qatlami chegaralangan bo'lib, inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotining 93,9 foizi ana shu yerlarda yetishtiriladi.

Ayrim mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tobora o'sib borayotgan aholi soni va ehtiyojining o'sishidan ortda qolmokda.

Tuproqlarda kechayotgan degradatsiya, degumifikatsiya, sahrolanish va antropogen omillar ta'sirida ifloslanishi kabi salbiy jarayonlar, tuproqlar unumdorligini, ekinlar hosildorligini oshirish bo'yicha dunyo miqyosida bir qator tizimli ishlar amalgan oshirilmoqda.

Tuproq hamma narsaning me'yori va mohiyati ekanligini hisobga olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2013 yil 20 dekabrda har yilning 5 dekabrini Butun jahon tuproq kuni deb e'lon qildi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish, bo'shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat va moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Shuni alohida ta'kidlashni joizki, tabiiy resurslar ichida tuproq o'ziga xos maqomga ega bo'lib, undan ilmiy-amaliy asoslangan tarzda samarali foydalanishni tashkil etish qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda uni muhofazalashning asosi bo'lib,

pirovardida mamlakatimizning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash, ekologik toza mahsulotlarini ishlab chiqarish, halqimizning turmush farovonligini yanada oshirishga zamin yaratadi. Ona zamin har doim bizning mehrimiz va e'tiborimizga muhtoj, uni asrab-avaylash va oqilona foydalanishi barchamizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

Tuproq unumdorligi - tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa bilan ta'minlash xususiyati. Tuproq tog‘ jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziqovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo‘jaligi. o‘simliklari o‘stiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish. vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproqhosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuprok hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o‘simliklar bilan uzviy boglik, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillar: o‘simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar va ular turining yetarli miqdorda bo‘lishi; o‘simlik o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan namning mavjudligi; yaxshi tuprok, aeratsiyasi; tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi; zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va boshqalar) miqdori; tuproq reaksiyasi va boshqalardan iborat. Bu xususiyatlar yigindisi tuproqning madaniylashganlik holati darajasini belgilaydi. Unumdorlikning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu elementlardan birortasining o‘zgarishi boshqalariga ham ta'sir ko‘rsatadi. Har xil o‘simliklarning Tuproq unumdorligiga talabi turlicha bo‘lganligi sababli va o‘simlik biologiyasiga bog‘liq holda bir tur o‘simlik uchun unumdor hisoblangan tuproq boshqa tur uchun unumdor bo‘lmasligi mumkin.

Unumdorlik, asosan, tabiiy va samarali turlarga bo‘linadi. Tabiiy unumdorlik tuprokdagi oziq moddalar umumiy zaxirasi bilan xarakterlanadi; uning shakllanishi esa tuprok hosil bo‘lish sharoitlari va omillari hamda genezisiga bog‘liq. Samarali (sun'iy) unumdorlikning inson mehnat faoliyati bilan, ya'ni yerga ishlov berish, sug‘orish, o‘g‘itlash, sho‘rini yuvish kabi agrokompleks tadbirlar bilan boshqaradi Sun'iy yo‘l bilan qumlik, toshloq, botqoqlik kabi unumsiz yerlarda unumdor tuproklar paydo qilish mumkin. Tabiiy unumdor tuproklar ba'zan kam samaraga ega bo‘lishi mumkin va aksincha yuqori agrotexnika tadbirlarini qo‘llash natijasida unumsiz tuproqlarda yuqori unumdorlikka erishish mumkin. Tuproqdagi oziq moddalar miqdori (azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy, oltingugurt, temir, bor, marganets va boshqa mikroelementlar) tuprok, hosil qiluvchi jinslar va uning tagidagi yotqizikdar (tagzamini) tarkibiga hamda tuproq hosil qiluvchi jarayonlarga bog‘liq. O‘simliklarning mikroelementlarni o‘zlashtirishiga tuproq reaksiyasi katta ta'sir ko‘rsatadi Tuprokdagi oziq moddalar zaxirasi mineral va organik o‘g‘itlar solish bilan boshkarib turiladi. Tuprokda suvda oson eruvchi tuzlar, asosan, natriy, shuningdek, magniy, kaltsiy va boshqa kationlarining ortiqcha miqdorda bo‘lmasligi

unumdorlikning muhim shartidir. Tuproqda tuzlar miqdorining me'yordan oshib ketishi - tuproqning sho'rlanishi, asosan, noto'g'ri sug'orishdan vujudga keladi, natijada unumdorlik keskin pasayib ketadi. Tuproq qatlamidagi zararli tuzlarni yo'qotish uchun sho'r yerlar yuviladi (qarang Sho'rlanishning oldini olish uchun esa tuproq xususiyati va tarkibiga karab suyurish rejimi belgilanadi. Qurg'oqchilik rnlarida, jumladan, sug'orma dehqonchilik zonalarida suyurish Tuproq unumdorligini tubdan oshiradi. Tuproq unumdorligining past bo'lishi, ko'pincha patogen organizmlar mavjudligiga ham boglik. Ularni kimyoviy (xasharotlarni bepusht kilish, fungitsidlar sepish va boshqalar) va agrotexnik tadbirlar (almashlab ekish, tuprokka ishlov berish) yordamida yo'k kilish tuproqning samarali unumdorligini keskin oshiradi. Tuproq unumdorligini saqlash uchun tuprokka eroziyaga yo'l ko'ymaydigan usullarda ishlov beriladi, dala ihota o'rmonzorlari barpo kilinadi, daryo va kanallar qirgog'i mustahkamlanadi va hakozo.

Xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarimizga ushbu ma'lumotlarni doyimiy ravishda yetkazib turishimiz ona zaminimizga balayotgan noxaqchiliklar, e'tiborsizliklar xaqidagi ma'lumotlarni bong urib turish orqali o'quvchini sergaklantirib olamshumul axamiyat kasb etadigan muammolarni yechishga o'z xissamizni qo'shib turishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi. -Toshkent,2007.

2. Abduazimov A.M. Azotli o'g'itlarni turli usullarda qo'llashning bahorgi bo'g'doyning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri. "Qishloq xo'jaligi ilm-fanida yoshlarning roli" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. 1-jild. Toshkent, 2020, 227 b.

3. Xalilov N.X. Kuzgi bo'g'doyni o'g'itlash va sug'orishning ilmiy asoslari. Monografiya. -Toshkent: Fan, 2009.-28 b.

4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent, 2007. – 147 b.

5. Dexqonov A.M. Irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlar sharoitida unga qarshi kurash elementlari asosida kuzgi bug'doyni tabaqalab o'g'itlash: Q.-x fanlari nomzod. diss. avtoreferati. -Tashkent: O'zPITI, 2007.

6. Xalikov B.M.-YAngi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumdorligi. Toshken. 2010. B. 71.

7. Dotterweich, Markus (2013-11-01). "The history of human-induced soil erosion: Geomorphic legacies, early descriptions and research, and the development of soil conservation – A global synopsis". Geomorphology. 201: 1–34.

8.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi *(*2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan

UMUMIY KIMYO FANINI O‘QITISHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

Mamadiyorova Saida Akmal qizi - Guliston davlat pedagogika insitituti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi 1-bosqich talabasi.
Bekpo‘latov Hasan Olim o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika insitituti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotasiya: Umumiy kimyo fanini o‘qitishda virtual laboratoriyaning ahamiyati uning qanchalik muhimligi to‘g‘risida so‘z boradi. Talabalar kimyo fanini o‘rganish jarayonida turli xil mashg‘ulotlarga duch kelishadi va bunda virtual va real labororiyalarini bajarib o‘ranish jarayonida ularning afzaligi va kamchiligi haqida xulosalar qilishadi.

Kalit so‘zlar: virtual laboratoriya, an'anaviy laboratoriya, ijobiy va salbiy muammolar, mashg‘ulot va boshqalar.

Kimyo fani eksperimental aniq fanlar sirasida ekanligi uchun bilim va ko‘nikmalar ko‘proq laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘lga kiritiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda ko‘p hollarda yonuvchi, uchuvchi , zaharli va zararli moddalar ajralib chiqadi. Bu inson salomatligi ziyon yetkazadi. Bundan tashqari laboratoriya mashg‘ulotlarida murakkab kimyoviy jihozlardan foydalaniladi.

Bu esa o‘quvchiga bir muncha noqulaylik tug‘diradi. O‘quvchilar laboratoriya mashg‘ulotini mukammal bilmasligi laboratoriya mashg‘ulotidan kutilgan natijani olishga imkon bermaydi. Yana bir muammolardan biri bu laboratoriya mashg‘ulotlarida ishlatiladigan reaktivlarning ko‘p hollarda sof holatda uchramasligi bu moddalarning tabiatda uchramasligi faqatgina laboratoriya holatida mavjudligi laboratoriya mashg‘ulotining to‘la-to‘kis o‘tmasligiga sabab bo‘ladi. Laboratoriya jihozlarining o‘zimizda ishlab chiqarilmaganligi va uni sotib olish juda katta mablag‘ talab etishini hisobga olsak virtual laboratoriya ancha qulaylik tug‘diradi. Birgina yurtimiz misolida oladigan bo‘lsak chekka hududdagi maktablarda laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishga shart-sharoitlarning yo‘qligi sababli o‘quvcjilarning kimyo fani haqida faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lib qolishi, laboratoriya mashg‘ulotlarini xayolda ham tasavvur qila olmasligi virtual laboratoriyani tashkil etish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatadi. Virtual laboratoriyaning kamchiliklaridan biri buni tashkil etuvchi dasturlarning barchasi o‘zbek tilida emasligi asosiy muammodir. Hozirgi kunda bunday dasturlardan foydalanish uchun 10 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Virtual laboratoriyadan foydalanganda yuqori

darajada ishtirok etiladi. Virtual muhitni interaktiv, vizual rag'batlantiruvchi va foydalanish uchun qulay. An'anaviy laboratoriyadan foydalanadigan o'quvchilar ko'pincha takroriy tajribalar va yangilik yo'qligi sababli zerikish va charchoqni his qilishadi. Virtual laboratoriya qanchalik qulay bo'lmasin bundan foydalangan ishtirokchilar o'qituvchi va tengdoshlari bilan yuzma-yuz muloqot qilishmaydi. Buning natijasida fikr-mulohazalar kam almashiniladi va o'zlashtiriladi. An'anaviy laboratoriyada zudlik bilan fikr almashiniladi, ijtimoiy ko'nikma va jamoada ishlash ham rivojlanadi. Smit, Jons va Anderson kabi olimlar virtual laboratoriyani xuddi an'anaviy laboratoriyadek amaliy ekanligini ta'kidlashadi. Virtual laboratoriya ayni an'anaviy laboratoriyalar cheklanganda juda katta foyda beradi. Virtual laboratoriyada ishlashning yuqori darajasini Braun va Uilson ishlari tasdiqladi. Virtual laboratoriya o'zlarining interaktiv simulyatsiyalari va multimedia elementlari bilan o'quvchilarning qiziqishlarini o'ziga jalb qiladi. Hozirgi kunda virtual laboratoriyadan foydalanishda qulay dasturlar ishlab chiqilmoqda .

Kimyo fanining laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish imkonini beruvchi dasturlar	
1	Crocodile chimistry 605
2	Химия (8-11 класс), Виртуальная лаборатория
3	Davriy _ jadval
4	Chemsk 12
5	Химический калькулятор
6	ChemDraw Ultra 11.0
7	ChEMEX 12
8	GaussView
9	Chembalance Wiziard 32
10	Xumua 42

Ayni bajarishi qiyin bo'lgan tajribalarni bajarishdan oldin uni virtual holatda bajarish tajriba vaqtida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan texnik xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi. Buning natijasida esa jihozlar va reaktivlarni isrof bo'lmasligiga sabab bo'ladi.

Virtual laboratoriyaning afzallik

1. Virtual laboratoriya o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab quvvatlaydi va ularga hech qanday cheklovlar qo'ymaydi.
2. Har doim yangi narsalarni o'rganishga yordam beradi.
3. Har qanday holatda ham qulay va xavfsiz hisoblanadi .
4. O'quvchilarni zerikishiga yo'l qo'ymaydi, ularni qiziqtira oladi .
5. Mablag' jihatdan ham ancha qulay va hozirgi texnika va raqamlar asriga aynan mos keladi.

Respublikamizda safatli ta'lim tizimini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodik, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarga kimyo, matematika, fizika, biologiya kabi muhim fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish ustivor vazifa etib belgilangan. Bu borada, jumladan kimyo fanini o'qitishning integrativ yondashuvlari asosida Umumiy kimyo fanini amaliy mashg'ulot darslari bilan hamohang ravishda o'qitish muhum ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.G.Raxmatullayev, X.T. Omonov SH.M Mirkomilov 'Kimyo o'qitish metodikasi. 2013y
2. Virtual chemistry laboratory (version 1.6.4). The IrYudium project's . founded by the National Science Foundation 2010
3. Салеева М.В. Развитие языковой личности в процессе межпредметной интеграции инязыка. «Развитие психологии личности и педагогических проблем социальной педагогики. Материалы РНТК. Минск. – 1998 г.
4. Давыдов В.Н. Интегративно-проектный подход во внеурочной работе по химии. –СПб, 2002 г, стр110.
5. www.ares.uz
6. www.researchgate.net\

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qodirova Zarina – Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo‘lg‘usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko‘zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulug‘ ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo‘lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunyo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o‘rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo‘lgan va bu o‘z navbatida diyorimizda juda ko‘p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo‘shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo‘lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta’lim sohasida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizing boy madaniy merosi, tarixiy an‟analarini to‘liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ‘ib qilish maqsadida 2017- yil O„zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to‘g‘risidagi” farmoni Davlat Ta'lim Standartlariga to‘laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda[1].

Umumta’lim maktablarida texnologiya fani o‘qituvchilari o‘zlarini ikkinchi darajali fan o‘qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o‘quvchilarda ham fanga qiziqish uyg‟ota olishlari kerak. Texnologiya fani o‘qituvchilari dars o‘tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o‘rni va mazmun mohiyati, fanning o‘qitilishdagi maqsadlarini o‘zlari teran his etishlari va shu bilan birga o‘quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma’noda tadbirkorlikni o‘rgatishlari lozim. “Ma’lumki o‘qituvchilik kasbi o‘ta ma’suliyatli kasb bo‘lib, turli integratsion bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o‘qituvchisi kelajakda o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma’lum kasb-hunarga oid ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o‘qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo‘lmog‘i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko‘nikmalardan tashqari o‘qituvchining o‘z sinalgan uslubi, ta’lim va tarbiya orqali o‘quvchilarga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyati bo‘lishi lozim. Dars

jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talabalarga oliy ta’lim muassasalarida shakllantirish lozimdir [2].

“O‘quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida “Texnologiya” fani muhim o‘rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o‘z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta’lim bilan qo‘shib olib borish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo‘llasada, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o’rganish obyekti sifatida emas, balki o‘quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o‘quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o‘rgatadi”[3]. Texnologiya fanini o‘rganish materiallar, ularning xossalarini o‘rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo‘ladi. Ushbu jarayon o‘qituvchilardan texnologik bilimlarni qo‘llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o‘quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O‘quvchilarni yoshligidan mehnatga o‘rgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko‘nikmalari bilan birga o‘quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur. Mashhur idealist faylasuf E.L.Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro‘li falsafiy lug‘atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog‘liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo‘lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin. Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o‘rganish o‘zgargani sari, umuman unga bo‘lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o‘zgardi. So‘nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo‘lmagan ijodkorlik bilan bog‘liqligiga e'tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo‘shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko‘lami bilan bog‘liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o‘lchanadi. So‘nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog‘liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko‘p narsa aytildi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin. Ratsionalizatsiya -

mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog‘liq jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funksiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish.

Ratsionalizatorlik taklifi - bu ma'lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan ixtirodan farqli o‘laroq) yangi o‘ziga xos muhitda (masalan, zavodning ba'zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma'lum bir muammoning echimi. Lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng ko‘p ishlab chiqarish). Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo‘lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog‘lab qo‘yish" mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo‘lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o‘rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn - tuzilmani yaratish; Loyiha - bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O‘qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog‘lash maqsadga muvofiq ko‘rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy echimining tuzilishini ko‘rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to‘xtalib o‘tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o‘rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo‘linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so‘z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo‘linmasi mavjud bo‘lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo‘lgan ob'ektiv mavjud bo‘lgan mulk yoki hodisani o‘rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘linadi [4].

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo‘yishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o‘zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so‘zi keng ma’no va tushunchaga ega bo‘lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to‘g‘ri kelmaydi. Texnologiya ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish

lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: -umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas; -texnologiya fanini o‘qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog‘liqlikning kamligi; -texnologiya fani me’yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o‘qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi; -texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O’zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo‘ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo‘lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda; -o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o‘quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi; -texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947 сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

2. Махбуба Аслановна Халмухамедова «НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИДА КАСБ-ҲУНАР ЭГАЛЛАШГА ДАЪВАТ.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA HADIS ILMINING AHAMIYATINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna - Zarmed universtiteti Boshlang'ich ta'lim pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Hadis manbalarini ilmiy tahlil qilish ham islomshunoslikning muhim yo'nalishlaridan bo'lib, soha bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mana shu maqsadda Samarqandda hadis ilmiy maktabining ochilishi soha rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, hadisshunoslik manbalari, hadis to'plamlaridagi matnlarni tahlil qilish, hadis ma'nolarini to'g'ri talqin qilish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohada «Abdulloh Subazmuniyning «Kashfu-l-osor» asari hadis ilmiga oid manba», «Abu Hafs Nasafiyning «Kitobu-l-qand fi ma'rifat ulamo Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba», «Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)», «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi», «Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojidagi o'rni», «Imom Buxoriyning «at-Tarix al-kabir» asari hadis ilmiga oid muhim manba», «Hadislarning diniy aqidaparastlikka qarshi mohiyati» mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, akademiyada amalga oshirilayotgan Imom Buxoriy «Al-Jome' as-sahih» asaridagi axloq-odobga bag'ishlangan hadislarning talqiniga bag'ishlangan grant loyihasi ham bu boradagi muhim ilmiy tadqiqotlardan sanaladi[10].

Asqar Zunnunovning Pedagogika tarixi nomli oliy o'quv yurtlari uchun darsligining Markaziy Osiyoda VIII-XIII asrlarda ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya bobida, Islomda ta'limtarbiya; Imom al-Buxoriy; Iso at-Termiziy; Abu Nasr Forobiy; Abu Rayhon Beruniy; Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariy; Mahmud Qoshg'ariy; Ahmad Yassaviy hayoti, Xoja Bahouddin Naqshband shaxsi va ilmiy merosiga to'xtalib o'tilgan[11].

Bugungi kunga kelib jamiyatimiz ma'naviy jihatdan uyg'un holda rivojlana boshladi va ayni paytda ta'lim tizimida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi masalasi muammo sifatida namoyon bo'ldi. Buning uchun, avvalo, «yuksak ma'naviyatli shaxs» deganda nimani

[10] https://moturidiy.uz/oz/news/1528
[11] Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlarni o'rganish tizimi (XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xuroson) [Matn] : monografiya/ Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, -2022. – 320 b.

tushunamiz, ma'naviyat, axloq tushunchalarini aniqlab olish lozim edi. Ma'naviyat o'zi nima? Axloq deganda nima e'tiborga olinadi? Bu borada berilgan qator ta'riflarga murojaat qilamiz: Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat shaxslarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga uzluksiz, muttassil g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy tushunchalarni o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir... » Bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin.

Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin[12]. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatlardandir. Uzluksiz ma'naviy tarbiya shaxsning shakllanishi, kamol topishi va o'z hayot pozitsiyasini aniq tanlashiga katta yordam beradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. «Axloq» ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush

[12] https://e-adabiyot.uz/maqola/183

tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid buyuk asarlar yaratgan, har bir asar ta'limiy-axloqiy sanalib, ularda pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan. Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ham ta'lim, ham ilmiy dargoh sifatida islomshunoslik sohasi rivojida sezilarli o'rin egallab kelmoqda. Jumladan bu ilmiy dargohda olib borilgan ilmiy izlanishlarning kattagina qismini ham Qur'oni karim va uning tafsirlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Ular jumlasiga «Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar)», «Abu Bakr Jassos «Ahkom al-Qur'on» tafsirining hanafiy mazhabi rivojidagi ahamiyati», «Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni», «Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni», «Abu Hafs Nasafiy «Taysir fi-t-tafsir» asarining manbashunoslik tadqiqi» mavzularidagi tadqiqotlarni kiritish mumkin[13]. Bugungi kunda o'ziga xos sharqona uslubda barpo etilgan ushbu salobatli majmua inshoati Islom olamining eng tabarruk qadamjolaridan biri sifatida yuksak qadrlanib, dunyoning turli burchaklaridan tinimsiz kelayotgan minglab ziyoratchilar bilan gavjum. So'nggi yillarda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan buyuk muhaddisning hayoti va ilmiy ma'naviy merosi haqida juda ko'plab kitoblar, risolalar, maqolalar nashr etildi. Mazkur markaz tomonidan muntazam ravishda chop etilayotgan «Imom Buxoriy saboqlari» nomli jurnalda ham buyuk muhaddisning hayoti yo'llari va uning asarlariga bag'ishlangan ko'plab maqolalar chop etilmoqda. Ayni paytda buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bag'ishlanib, hozirgi zamon arab olimlari tomonidan so'nggi yillarda nashr etilgan ko'plab asarlardan ham mazkur tadqiqotda keng foydalanildi. Shular jumlasidan eng avvalo, quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin: Alloma ash-shayx Abdussalom al-Muborakfuriyning «Siyrat al-Imom al-Buxoriy», Doktor Nuriddin Itirning «Al-Imom at-Termiziy val-muvozanat bayna Jomeyhi va bayn as-Sahihayn», olim Mahmud al-Foxuriyning «Al-Imom Muslim ibn al-Hajjoj» nomli tadqiqotlarini va shuningdek, arab olimlarining Al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, at-Termiziyning hayoti va ijodiga bag'ishlab, yaratilgan qator tadqiqotlar va risolalarini ham aytib o'tish kerak. Ushbu asarlar ro'yxati tadqiqotning biografiya qismida to'liq keltiriladi. Ushbu asarlar buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bag'ishlanib yaratilgan ko'pdan-ko'p yozma manbalarni qiyosiy o'rganish asosida vujudga kelgan. Shunga binoan aytish mumkinki, bu tarzdagi ilmiy tadqiqot nafaqat mamlakatimiz, balki jahon sharqshunosligida ham muayyan ahamiyatga ega. Unda ikki buyuk muhaddisning

[13] https://moturidiy.uz/oz/news/1528

Xulosa qilib aytganda aniq fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagi o'quv mashg'lotlariga: ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Jumladan, o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyatiga zamin yaratadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki-ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar respublikamiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan. Asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan

belgilanadi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo‘llay olish ko‘nikmalari orqali tekshirib ko‘riladi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuv: Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o‘zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda asosan, pedagog talabaning o‘quv faoliyatiga rag‘batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o‘z o‘rni bor va u o‘z joyida qo‘llanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisod moliya" 2009.

2. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi “ Pedagogik kreativlik bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsiyon faoliyatga tayyorlash jarayoni ” Andijon Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2020-yil 2-qism

3. O‘.Tolipov, D.Ro‘ziyeva.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

4. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Pedogogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.,- 2012.- 300b

5. Q.T.Olimov, L.P.Uzoqova. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb – hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun metodik o‘quv qo‘llanma Toshkent: Fan, 2004

KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY YONDASHUV

Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich-Guliston davlar pedagogika instituti o‘qituvchisi
Ahmatov Nodirbek Musa o‘g‘li, Pardayeva Dilafro‘z Shoyim qizi -
Guliston davlar pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi bosqichida o‘quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: Tayanch kompetensiya, umumiy (predmetli) kompetentsiya, xususiy kompetentsiya, rivojlantirish, bilim, ko‘nikma, malaka, kommunikativ, umummadaniy, o‘z-o‘zini baholash.

O‘quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch va fanga oid kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetentsiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi.

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetentsiyalar tayanch kompetentsiya, faqat o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar xususiy kompetentsiyalar deyiladi.

Adabiyotlar tahlili o‘quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar uch darajaga ajratilishini ko‘rsatdi:

1. Tayanch kompetentsiyalar –o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar sanaladi.

2. Umumiy (predmetli) kompetentsiyalar - o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar nazarda tutiladi.

3. Xususiy kompetentsiyalar – ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar hisoblanadi.

O‘qituvchilar kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda barcha darslarda o‘quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘zlashtirishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og‘zaki javob yozish, darslarda tashkil etiladigan o‘quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan

qarorlarni qabul qila olish, o‘z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o‘zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

DTS bilan me’yorlangan quyidagi o‘quv mehnati ko‘nikmalari o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiya tarkib toptirishga asos bo‘ladi:

O‘quv adabiyotlari bilan ishlash ko‘nikmalari:

- O‘quv adabiyotlarining kirish qismida berilgan ko‘rsatmalarni bilish va qo‘llash;
- Rang bilan ajratilgan iboralarni ajrata olish;
- O‘quv adabiyotning mundarijasi asosida mo‘ljal olish;
- Simvollar va tayanch signallarni bilish va foydalanish;
- Kolontitullardan foydalanishni bilish;
- Ko‘rsatmalardan foydalana olish.

Matn ustida ishlash ko‘nikmalari:

- O‘qilgan matnga reja tuza olish;
- Matndan foydalanib savollarga javob topish;
- Matndan foydalanib ma’ruza yozish;
- Drslik matnidan foydalanib amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish;
- Darslik matnidan foydalanib jadval, diagramma, sxemalar tuza olish;
- Darslik matnidan foydalanib tushuncha, qoidalarni topa olish;
- Ob’ektning tavsifini tuzish, xulosa yasash.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda turli kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o‘quv va videofilmlardan foydalanishi, qo‘shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma’lumotlarni saralashi, shu asosda o‘quvchilarga referat, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan samarali va o‘z o‘rnida foydalanishi zarur.

O‘qituvchi to‘garakning ish rejasini tuzishda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish nazarda tutishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida o‘quvchilarning mustaqil ishlari va ta’limiga e’tibor qaratishi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi uchun mavzular bo‘yicha standart va nostandart o‘quv va test topshiriqlari bazasini yaratishi, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib adaptiv test topshiriqlariga aylantirishi, shuningdek, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan ma’naviyat daqiqalarida jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga erishishga yo‘naltirish talab etiladi.

Fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda turli darslar, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda o‘quvchilarni tabiat va jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e’tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish, jamiyat va

oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, saxovatli bo‘lishga undash zarur.

O‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o‘rin tutadi.

Tabiat muhofazasiga oid kechalar, ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari, taniqli yozuvchilar va olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

O‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirish uchun o‘qituvchi fanlarni o‘qitishda o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, orasta kiyinish, yurish – turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi barobarida estetik tarbiyaga e’tibor qaratishi lozim.

O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mavzuli kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar, shanbaliklar o‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasini tarkib toptirishda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir turli masalalar, nostandart o‘quv topshiriqlari bilan ishlashni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv maqsadlarini shakllantirishi va shu asosida dars ishlanmalarini loyihalashi zarur.

O‘quv maqsadlari	Ta’rifi	Texnologik kompetentsiyalar	Darsdagi nazorat turi	Nazorat ishidagi test topshirig‘i turi
Bilish	Axborotni o‘zlashtirish	Texnologik ob’ekt-larni tanish va izohlash; hodisa, jarayonlarni tushu-nish, tanish, izoh -lash. Havfsizlik texnikasi va eko- logik bilimlarni egallash	Test topshirig‘i. Og‘zaki javob. Klaster tuzish.	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ
Tushunish	Ahamiyatni anglash, asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish	Texnologik ob’ekt, hodisa va jarayonlarni tushunish va izoh lash.	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish. Masalalar echish	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ
Amaliyotga qo‘llash	Axborotni yangi kutilmagan vaziyatda qo‘llash	Texnologik ob’ekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajriba o‘tkazish.	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Tahlil	Axborotni yoki ob’ektni qismlarga ajratish	Buyuumlarni tfrkibiy qisimlarini tahlil qilish	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Sintez	G‘oyalarni mujassam- lashtirish	Yasalayotgan buyuumning qisimlarini yig‘ish	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Xulosalash	O‘rganilgan mavzu yuzasidan xulosa yasash	Texnologik ob’ekt, hodisa, jarayonlar haqida umumiy xulosa yasash	Og‘zaki javob	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ

Ushbu jadvalda o‘quv maqsadlari, ularning izohi, darslarda o‘quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish bosqichlarida foydalaniladigan o‘quv topshiriqlari, oraliq nazoratda kompetentsiyalarni nazorat qilish uchun foydalaniladigan nostandart test topshiriqlarining turlari va ularning murakkablik darajalari o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish muammosi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetentsiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetentsiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o‘qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. .- Toshkent. 2013. - B. 64.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336.

3. Abdufatayev, S. (2024). Fanlararo integratsiya–ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy omili. *News of UzMU journal*, *1*(1.1. 1), 31-35.

TARBIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Nigora Jo'ranazarova Qurbonboy qizi – Termiz davlat Pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti " kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
Davlatov Asilbek Ravzatulloyevich – Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy tarbiya, uning ahamiyati, bola tarbiyasidagi muhim jihatlar haqida so'z boradi. Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari qisqacha yuritilgan. Maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ajdodlarimiz merosi, xulq-atvor, sharqona odob, qadriyat, madaniyat, ma'rifat.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvoriga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlarga zinxor-bazinxor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Quroni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambarimiz hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning muhim manbayi bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan.

Janob Rasulullo (s.a.v) hadislarida: "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!'', "Hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi'', deyilgan. Yana bir hadisda: "Mo'min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir'', deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o'z farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyali bo'lishi uchun kurashganlar. Yoshlarni tarbiyalashda "Mening bolam'', "Sening bolang'' deb ajratishmagan. Tarbiya berish hammaning burchi deb qaralgan.

Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillika intilib, ruhiy najot yo'lini qidiradi. Shu orzu-intilish samarasi o'laroq, ma'naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Komil inson haqidagi ta'limot insonni yuksak kamolotga yetishini ko'zda tutadi. Komillik bu – insonning yerda qilgan hamma ishlari ma'naviy e'tiqod bilan sug'orilishidir.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aql-u zakovatga, qomusiy bilim va qobilyatga ega bo'lgan Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy,

Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi. Ular tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi, doimo huriyat va erk sari intildi.

Inson koinotdagi barcha mavjudodlar ichida eng ulug‘i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki inson haqiqat haqida o‘ylaydi. Kamolot yo‘liga chiqish uchun u asta-sekin o‘zligini izlaydi. Alisher Navoiy “kamol et kasb kim” deya da’vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko‘p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o‘zini xirs-ta’ma, nafs, g‘aflat, nodonlik singari mayllardan poklamasa, hech vaqt komil bo‘la olmaydi. “Olam uyi”ida yashash – uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeyiga ko‘tarilishini xohlagan. Xuddi shu mavqeyini esa kamolotning oliy cho‘qqisi deb bilgan.

Navoiy o‘z davrida komil insonlarni “Ahli ma’ni” deb bilgan. “Ahli ma’ni” bu fikrli insonlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma’ni chuqurligi bo‘lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglashdir. “Ahli ma’ni” deganda oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoyi kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan insonlarning tafakkuri keng bo‘ladi [N. G. Dilova:1]

Chunki ular aql oddiy so‘z va tushunchalardan emas, balki diyonat, adolat, insof, iymon, ishq, dard tuhfalaridan kamol topgan bo‘ladi.

Inson go‘zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umidlar bilan komillikka – kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, bulardan namuna-yu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne’mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o‘zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azo-uqubatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql nemati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o‘qish, o‘rganish, tahlil etish, idora qilish, e’tiqod qo‘yish, hayot tajribasini egallash bilan ro‘yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog‘liq bo‘lganidek, odam bolasining komil inson bo‘lib yetishishi uchun uning murg‘aklikdan tarbiyalab borishga e’tibor berish lozim.

Ma’lumki, bolani layoqatga mos holda o‘stirish uchun unda yoshlikdan mehnatsevarlik va ishchanlik ko‘nikmasini hosil qilish kerak. Mehnatsevarlik – muttasil o‘tirib ishlash kabi fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta’sir etadigan omillar bir qancha bo‘lsa ham lekin, maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi.

Chunki, birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit ta’siri bera olmagan fazilatlar o‘zlashtriladi va narsalar o‘rganiladi, ya’ni bilim, egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklarni o‘zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishishini tezlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Inson

kamol topishida, barkamol inson bo‘lib yetishishida maktabning ahamiyati juda katta. Bolalar maktabga qadam qo‘yar ekan, ular o‘quv mehnati bilan band bo‘ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallab olishi bilan birga ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O‘quvchi tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo‘lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Reja asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etib, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko‘rsatadi. Tarbiyachi o‘z tarbiyalovchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo‘lishi, yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga yordam berishi lozim.

Umuman, pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyatbola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta’sir etishi mumkin [N. G. Dilova:2].

Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo‘lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan uyushtirilgan har qanday faoliyat ham o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham aqlan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o‘rganib boriladi.

Shaxsning kamolga yetishishida, uning barkamol inson bo‘lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o‘rni va roli beqiyosdir [Z. D. Rasulova:3].

Chunki bu tarbiya usullari birgalikda amalga oshirilsa biz O‘zbekiston yoshlari sog‘lom bo‘lishimiz, sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanishimiz lozim. Agar biz sog‘lom bo‘lsakkina, farzandlarimiz ham sog‘lom bo‘ladi.

Shunday ekan biz yoshlar bo‘lg‘usi pedagoglar, avvalo, o‘zimiz har tomonlama yetuk kamolotga yetishishimiz, bilim va malakaga ega bo‘lishimiz uchun qunt bilan o‘qishimiz darkor. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning qo‘llanilishiga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘imiz lozim. Bunda mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va ularni qo‘llashda oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilishimiz muhim hisoblanadi. Yoshlar ertangi kunning bunyodkorlari kelajak avlodni tarbiyalash, o‘qitishdek ma’suliyatli va sharafli ishga qo‘l urar ekanmiz, hozirdanoq o‘z bilimimizni oshirishimiz, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Ajdodlar merosida ta’limdagi ta’limdagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari.2019.7-b.
2. Dilova N.G. O‘quvchilarning shaxsiy sifati – pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili.2018.62-b.
3. Rasulova Z.D. Talabalarning kreativligini rivijlantirishda masofaviy ta’limning o‘rni.2017.37-b.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIYA FANII O'QITISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Abdullayeva F.S. - Guliston Davlat Pedagogika instituti "Aniq va tabiy fanlar "kafedirasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, zarur deb hioblanadi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya fani o'qituvchilarini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Shu bois, texnologiya fani o'qituvchilari "Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" muammolarini xal qilishga qaratilgan bo'lib, u texnologiya fani o'qituvchilariga ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Zamonaviy yondashuv va innovattsiyalar asosida o'qitish tizimining vazifasi o'quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo'lishi kerak. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, o'qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur bo'ladi. Bu esa, o'qitish jarayonida axborotlar berishda, o'quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o'qitishni kompyuterlash, o'quv televideniyasidan foydalanish va h.k.ni anglatadi. Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko'p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablarni qo'ya boshlaydi

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi Kichik guruhlarda ishlash orqali o'rganish – ma'lum muammoning echimini topishga va o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo'lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning echimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish. Bu yondashuvda kichik guruhlar 4-6 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning

mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari qismlarga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili TelAviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z xissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanib, yangi bilimlarning o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi.

“Muammoli ta’lim” metodi Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog‘liq bo‘ladi: o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish; qo‘yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materiallarini o‘rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish; muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o‘quv vazifalarini qo‘yish. Yuqoridagi bosqichlar asosida o‘quv materiali tushuntirilganda o‘quvchilar o‘zlari darrov tushunib etmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo‘ladi. Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o‘quvchilarning aktiv fikrlash faoliyatini psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o‘quv jarayonini qayta qurish muammoli ta’limning asosiy g‘oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta’lim deyiladi. Muammoli ta’limda o‘qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga

keltiriladi, o‘quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o‘quvchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Fachglossar – Betriebliche Ausbildung. Deutsch-Russisch. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2008. Bonn, 60 s.

2. Berufsausbildung sichtbar gemacht. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2003. Bonn, 72 s.

3. Bildung in Deutschland. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2004. Bonn, 6 s.

4. Ausbildung und Beruf. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2007. Bonn, 222 s.

5. Berufsbildung in Deutschland. Europäisches Zentrum für die Förderung der Berufsbildung. (CEDEFOP). Thessaloniki. 2007, 102 s.

6. Jugend und Berufsbildung in Deutschland. Bundesinstitut für Berufsbildung. 1994. Berlin, 31 s.

7. Richard Arum, Melisa Velez. Inproving Learning Enviroment: School Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.

8. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.

TALABA-YOSHLARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Xudayberdiyev Abdumajid, Boyjigitov Nishonboy - Guliston davlat pedagogika instituti yoshlar ishlari bo'yicha dekan o'rinbosarlari
E-mail: Abddumajid85@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlarni ta'lim-tarbiya berishda qo'llaniladigan pedagogic va axborot texnologiyalardan foydalanish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, texnologiyalar.

Axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalarni uzluksiz ta'lim tizimida rivojlanishini yakuniy natijalarini ta'minlashda asosiy o'rinlardan birini egallab bormoqda, biz buni ta'lim va tarbiyaning barcha jabhalarida ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarda axborot texnologiyalarning ma'lumot va materiallaridan iloji boricha ko'proq foydalanish shu kunning dolzarb masalalariga aylanib borayotganligini jamiyat taraqqiyoti uning rivoji har jabhada ko'rsatib turibdi.

Uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik texnologiya turlarini shakllantirish va ular asosida ta'lim jarayonini tashkillash, boshqarishda asosiy manba sifatida maydonga chiqadi. Jumladan, hozirgi kunda o'quvchi, talaba va magistrlar internet orqali o'ziga zarur bo'lgan ko'plab ma'lumotlarni olmoqda va qayta ishlamokda. Agar biz shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, pedagogik texnologiyani qo'llamoqchi bo'lgan fan o'qituvchisi birinchi navbatda fan buyicha axborot ma'lumotlariga tayansa maqsadga muvofik, bo'ladi. Bunda albatta axborot ma'lumotlari juda ko'p shuning uchun bu ma'lumotlarni yosh, psixologik xususiyatlarni hisobga olgan xolda qayta ishlab o'quvchilar ongiga yetkazishga harakat qilishi lozim.

Endilikda, ta'lim soxalari, jumladan, tabiiy, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunar, maxsus ta'lim bo'yicha o'qitishning zamonaviy usul va uslubiyotlari va ularni o'quvchi-talabalar ongiga singdirish hamda axborot ma'lumotlarini tizimlashtirib berish uchun pedagogik texnologiyalar majmualari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalar (ularni tarkibida albatta axborot texnologiyalari mavjud)ni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar xaqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqatgina bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi, lekin xar bir pedagogik texnologiyadan asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi. Jumladan:

Ta'lim oluvchiga yondoshuv turi buyicha: Talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida universitet kafedralarida xamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan holda, mavzularning didaktikaning konuniyatlariga tayangan (ya'ni, oddiydan murakkabiga tomon) holda, jamiyat ehtiyojlarini, pedagogik-psixologik holatlarni hisobga olgan holda, shaxsni hozirgi davlatimiz siyosatiga mos g'oyaviy konsepsiyalar asosida tarbiyalashda yoshlarga oid davlat siyosatini ustivor yunalishlarini erkin tarbiya jarayonida ularning ongiga singdirib borish masalalarni yechishga yo'naltirilgan.

- xamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan;
- didaktik yo'naltirilgan;
- ijtimoiy yo'naltirilgan;
- pedagogik yo'naltirilgan;
- shaxsga yo'naltirilgan;
- insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- erkin tarbiyaga yo'naltirilgan;

Qo'llaniladigan asosiy metod bo'yicha: Mavzularni yoritishda qo'llaniladigan asosiy ta'lim va tarbiya metodlari o'quv fan dasturlarida atroflicha yoritilgan va shular asosida ta'lim-tarbiya beriladi

- axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi;
- dasturlashtirilgan ta'lim metodi;
- tushuntirish, ko'rgazmali;
- rivojlantiruvchi ta'lim;
- muammoli, izlanishli;
- ijodiy metod;
- dialogli metod;
- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;

Tashkiliy shakllariga ko'ra: Ta'lim-tarbiya jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash eng birinchi navbatda quyidagi texnologiyalarni shakllarini mukammal bilishni talab etiladi.

- axborot texnologiyalarni loyixalash;
- axborot texnologiyalarini uzlashtirish;
- shaxsga yunaltirilgan axborot texnologiyalari asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- axborotlarni jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- axborotlarni samaradorligini oshirish asosidagi pedtexnologiyalar;
- tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari.

Shaxsning xususiyat va sifatlari tarkibiga yo'naltirilganlik bo'yicha:

Shaxsning xususiyat va sifatlari birinchi navbatda ma'naviy barkamollik xamda komil insonlik tomon yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir, quyida ularni yo'nalishlari keltirilgan;

fanlar bo'yicha bilim, o'quv, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan - axborot texnologiyalari;

aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan - operatsion texnologiyalar;

estetik va axloqiy munosabatlar soxasini shakllantirishga yo'naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional-axloqiy texnologiyalar;

shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari;

ijodiy qorbiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan-evristik texnologiyalar.

Barkamol avlod, komil insonni tarbiyalash va ta'lim berish yo'nalishidagi tarkibida axborot, telekommunikatsion texnologiyalar mavjud pedagogik texnologiyalarni yuqorida aytilganlardan tashqari yana bir qancha belgilariga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bunday turlarga ajratishlar har bir pedagogik texnologiya o'ziga xos ekanligidan kelib chiqadi hamda ularni ilmiy-nazariy hamda amaliy maqsadlar nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishga, o'zlashtirishga, yanada rivojlantirishga hizmat qiladi.

Barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalash jarayonida ta'lim -tarbiyaning asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalari xamda pedagogik texnologiyalar o'rni xamisha oshib takomillashib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T. Fan, 2000.
2. Azizxujayeva N.N.. Pedagogik texnologiya va texnologik mahorat. T. TDPU, 2003.
3. Ismailova Z.K., Musayev R.S, Shayusupova A.A. O'qitishning zamonaviy texnologiyalari. O'quv qo'llanma. TIMI, 2008.
4. Ismailova Z.K., Musayev R.S. Ta'limning texnik vositalari. O'quv qo'llanma. TIMI, 2008.
5. Xudayberdiyev A.A., Boyjigitov N.M. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Iqtosodiyot tarmoqlarining muammolari va ularning innovatsion yechimlari" Xalqaro miqyosidagi ilmiy anjuman 2022 yil.

MUNDARIJA

Kirish so'zi ……..			3
1-SHO'BA. ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI			
1	Raimov X.K., Sultonova N.F., Ne'matova M.Sh.	Murakkab elektr zanjirlarni kirxgof qonunlarini bevosita tatbiq etish usulida hisoblashning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tushuntirish	4
2	G'aniyev T.K, Xakimova F.A.	Kompyuter ofis dasturlarni o'rganishda amaliyofis.uz platformasidan foydalanish	10
3	Mamatkulov B., Shermuhammedov A., Mamatkulova G., Zayniddinova N	Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida fizikani o'qitishda samaradorlikka erishish	12
4	Nuriyev M. K, Axmadov M.Z.	Kompyuter texnikalari sotiladigan onlayn-do'kon uchun veb-sayt ishlab chiqishning nazariy asoslari	14
5	Xursandov H.F., Ahtamqulov M.A., Ahmadjonov Sh.H.	Geometrik masalalarni yechishda dasturlashdan foydalanish	19
6	Taniberdiyev A.A	O'quv jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalaridan foydalanish	22
7	G'aniyev T.K.	Zamonaviy dasturlash tillarni o'qitishda kontest tizimlaridan foydalanishning ahamiyati	27
8	Djumoboyeva Ya.E.	Javdal miqdorlarga oid masalalarga dastur tuzishda python dasturlash tilining imkoniyatlaridan foydalanish	29
9	Raimov X.K., Xayitboyeva G.T.	Murakkab elektr zanjirlarni kontr usulida hisoblash	34
10	Ashurmatov R., Norbo'tayeva G.	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga oid muammolarning yechimlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning tahlili.	39
11	Sayfullayeva N.J.	Sun'iy intellekt rivojlanishi va uning qo'llanilish sohalari	44
12	Davranov F.O'.	Biologiya fanlarini o'qitishda laboratoriya mashgulotlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar	48
13	Mamatov A.M.	Matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish	50
14	Turdiyev A.P., Turaqulov Ya.S.	Matematika o'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining axamiyati	52

15	Холбоев С.М., Худайкулов С.И	Модели движений водосбросов с закруткой потока в напорных водоводах джизакского водохранилища	54
16	O‘rinov Sh.S., Qulboyev Z.X.	Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida ustoz-shogird an’analari	61
17	Eshdavlatova S.E., Raufov H.R., Matyoqubova N.X	Matematik modellashtirish yordamida yoshlar orasida jinoyatchilikning tarqalishini tadqiq qilish	63
18	Ergashev S.T.	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining o‘rni	68

2-SHO‘BA.
TA’LIM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASIYALAR

19	Бердалиева Г.А.	Рақамли таълим муҳитида умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг ўзини-ўзи касбий ривожлантириш стратегиялари	72
20	Ahtamqulov M.A., Xo‘jamurodov A.I.	Python tilida modullar	77
21	Yo‘ldoshev Sh.R.	Talabalarga “ma’naviyatshunoslik” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi va ahamiyati	79
22	Beknazarova G.X.	Ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari va istiqbollari	85
23	Ochilov T.M., Bustanov X.A.	Ta’lim sohalaridagi innovatsion faoliyatlarning virtual ta’lim muhitini tashkil etishning asoslari, dolzarbligi va muammolari	87
24	Abdullayev B.B.	Intellektual tizimlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi vosita sifatida	91
25	Xakimova F.A.	Masofaviy ta’lim texnologiyalarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash	94
26	Xudayberdiyev M.Z.	Elektron ta’lim muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish	96

3-SHO‘BA.
UZLUKSIZ TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

27	Nizamov A.Sh.	Ta’lim samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning o‘rni va ahamiyati	103

28	Narkulov Sh.A.	Ta'lim muassasalarining axborot ta'lim maydoni bo'lajak mutaxassisning axborot kasbiy madaniyatini shakllantirish omili sifatida	105
29	Adilova Ch.A., Qurbonboyeva X.F	Multimedia technologies in teaching foreign languages	108
30	Ahtamqulov M.A., Xurramov A.Sh.	Tizim tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari	111
4-SHO'BA. TA'LIMNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI			
31	Doshanova M.Y.	"Raqamli universitet" modelini loyihalashtirish muammolari	113
32	Sherbekov D.K.	Kelajak informatika o'qituvchilarini klaster yondashuv asosida kompyuter vizual texnologiyalarini qo'llash	117
33	Doshchanova M.Y., Shaazizova M.E., Mirzayeva N.S.	Opportunities for the use of expert systems in health care	120
34	Shodimurodov U.A., Jo'rayev A.Q.	Tarmoq xavfsizligi standartlari (o'z dst isoiec 27033)	124
35	Doshanova M.Y., Mirzayeva N.S., Isoqov D.D., Ayupova D.A., Aliyev R.R.	Dasturlashda sun'iy intellektning o'rni va ahamiyati	126
36	Mirzayeva N.S.	Big data va uning ta'limda qo'llanilishi	130
5-SHO'BA. UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI			
37	Qo'shmatov O, Baratov F.Sh.	Ta'limda fanlararo yondashuvlarning fanlararo integratsiyalashuvi g'oyaviy-siyosiy ta'limning yuksalishiga xizmat qilishi.	134
38	Нуртаева Д.К., Нурмуханова Г.Ж.	Роль взаимодействия высшего образования и предпринимательства в социальной и экономической модернизации страны	139
39	Boymatov N.M., Jumaboyev B.B.	Malakaviy amaliyot kasbiy kompetentsiyani shakllantirishning asosiy omili	145
40	Kushiev B.H., Isanturdiyev S.Y.	Raqamli qishloq xo'jaligi boshqaruvi asosida iqtisodiy barqarorlikka erishish tamoyillari	148
41	Ergashev R.N.	Talabalar mustaqil ishini tashkil etish shakl va metodlari	163

42	Umirova N.O., Lapasova F.A	Muzyorar- interfaol usulini «germaniy guruxchasi elementlari» mavzusiga tatbiq etish	169
43	Abdufatayev Sh.	Integrativ yondashuv - o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning asosiy omili	172
44	Toshev S.N	Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikning pedagogik yondashuvlari	178
45	Qodirov A.A., Abduraxmonov M.S.	Kaft tuzilishi tasvirlari asosida shaxsni biometrik identifikatsiyalash	182
46	Haydarova K.	Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning ayrim dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish uchun ba’zi bir uslubiy tavsiyalar	185
47	Narzilloyeva M.Sh.	Krizis holatiga tushgan o‘quvchilarga lingvopsixologik yordam ko‘rsatish asoslari	190
48	Yaxshiboyev T., Yaxshiboyeva D.	O‘quvchi shaxsi ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning mavjud holati	195
49	Iskandarova N.	O‘zbekiston xalq hunarmandchiligi va to‘quvchikik san'ati.	197
50	Abdullayeva F., Iskandarova N.	Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi	199
51	Raxmatova D.S.	O‘qituvchilar faoliyatini va o‘quvchilar bilimini baholashning yangicha mexanizmini joriy etishning innovatsion tomonlari	202
52	Mo‘minova M.Sh.	Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari	206
53	Xidirova M.Q.	Komparatıvıstık pedagogıkanıng taraqqıyot Bosqıchları	210
54	Xayitboyeva N.	Yoshlarga tuproq unumdorligini oshirisda siderat ekinlarning muxim ahamiyatga ega ekanligini tushintirish yo‘llari.	213
55	Mamadiyorova S.A., Bekpo‘latov H.O.	Umumiy kimyo fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni va ahamiyati.	216
56	Qodirova Z.	Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	219
57	Fayzullayeva G.K.	Talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida hadis ilmining ahamiyatini o‘rganish pedagogik muammo sifatida	223

58	Hamroyeva D.Ya, Atavulloyev H.H.	Ba'zi kimyoviy masalalarni algebraik tenglamalar sistemasi orqali gauss usuli orqali yechish.	227
59	Nabiyev M.B.	Xojagon naqshbandiya ta'limotida shaxs kamolotiga ta'sir etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	233
60	Абдураимов Д.Э.	Ҳарбий олий ўқув юртларига кирувчи абитуриентларини психологик тестловчи модел ишлаб чиқиш	236
61	Holiqova M.K.	Проблема социального сиротства в социологических исследованиях	240
62	To'xtarova I.M.	Iqtisodiy o'sish yo'lida innovatsion xarakterni shakllantirishning ayrim mummolari	245
63	Abdukadirova N.A	The benefits of clil on teaching english: a scientific perspective	248
64	Saxibov A.X.	Pedagogik faoliyatni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar o'rni	251
65	Suyumov J.Yu., Nuraliyeva Z.A.	Umumtalim maktab o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash	255
66	Мустафакулов А.А	Нодир тошлар ва уларнинг радиацион-оптик хусусиятлари	257
67	Шарипова Х.Д.,	Проблемы преподавания русского языка в иноязычных группах	260
68	Davlatova M.S.	Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan geografiya va matematika mashg'ulotida foydalanish masalalari.	264
69	Abdufatayev Sh.A., Ahmatov N.M., Pardayeva D.Sh.	Kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy yondashuv	268
70	Jo'ranazarova N.Q., Davlatov A.R.	Tarbiyaning inson hayotidagi o'rni	272
71	Abdullayeva F.S	Globallashuv sharoitida texnologiya fanii o'qitishga qo'yiladigan talablar	275
72	Xudayberdiyev A., Boyjigitov N.	Talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalari	278

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UZLUKSIZ TA’LIMNI SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Nashriyot muharriri: Mohira YULDASHEVA

Texnik muharrir: Baxtiyor YAKUBOV

Sahifalovchi-dizayner: Shohida MUQUMOVA

“Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti

Manzil: 120100 Guliston sh., O‘zbekiston ko‘chasi 8-uy.

Tel: (67) 227-63-09

Nashriyot litsenziyasi № 880921, 14.08.2020-y.

ISBN 978-8910-792-68-7

